O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“HARBIY VATANPARVARLIK, MA’NAVIY-MA’RIFIY TARBIYA VA YOSHLAR BILAN IJTIMOIY ISHLASH” KAFEDRASI

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami

2023 yil 21 dekabr



TOSHKENT-2023

KBK- 74.200.54
G-54

Globallashuv sharoitida yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning dolzarb masalalari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. - 127 bet.

Ushbu konferensiya to‘plamida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning strategik modellari, ijtimoiy masalalari, oila institutini mustahkamlash hamda yoshlarni oilada vatanpavarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb muammolari, ajdodlar merosini yosh avlodlarga singdirish orqalari ularda vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularni shakllantirishning pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilish hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda hamkorlikning o‘rni bo‘yicha keng jamoatchilik bilan o‘tkazilgan muhokama natijalari ichiga qamrab olingan.

To‘plamda berilgan ilmiy maqolalar va tezislar Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari psixologlari, amaliy psixologlar, vatanparvarlik mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, kursant va tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.

Mas’ul muharrirlar:
dotsent E.N.Sirliyev, dotsent F.A.Choriyev

Tahrir hay’ati:
psixol.f.n.b.f., dok (PhD) Tursunov Burxon Saydaxmatovich;
p.f.d., prof Akramova Shaxnoza Abrarovna;
psixol.f.n.b.f., dok (PhD) Xaydarov Islom Mahmudali o‘g‘li;
psixol.f.n., dots Xaydarov Ismoyil Oblaqulovich;
psixol.f.n.b.f., dok (PhD) Choriyev Fahriddin Abdugapporovich;
psixol.f.n.b.f., dok (PhD) Sirliyev Erkin Nazarovich;
Baxranov Sherzod Toshtursunovich

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023

KIRISH SO‘ZI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti boshlig‘i, polkovnik,
Y.f.d., professor

Assalomu alaykum, hurmatli konferentsiya ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

Davlatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab shaxs manfaatlariga keng yo‘l ochib berdi. Shu bilan birga yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning kelajakda o‘z o‘rnilarini topishda davlatimiz rahbari tamonidan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Bunda yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Muhtaram Prezidentimizning 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5215-sonli qarori, 2022-yil 4-avgustdagi “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-345-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi “Oilaviy bolalar uylari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 451-sonli qarorlarining qabul qilinganligi mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibordan dalolat beradi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, shuningdek, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash eng dolzab masalalardan biri hisoblanadi. Shu o‘rninda ushbu Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaning mavzusi **“Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohatlar”** deb nomlanib, bugungi kunning eng muhim masalalari sirasiga kiradi. Ushbu fursatdan foydalanib, Respublika ilmiy-amaliy konferensiyani ochiq deb e’lon qilamiz.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!!!

O‘ylaymanki mazkur Respublika ilmiy-amaliy konferensiya mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar sohasidagi faoliyatni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

A.A.BEKNAZAROV
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy
instituti professori
SH.B.URINOV
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa
harbiy instituti katta o‘qituvchisi.

Bugungi kunda vatanimiz yoshlarini harbiy vatanparavarlik ruhida tarbiyalash hamda ularda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalalasi davlat siyosatidagi muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalardan biri sifatida ekanligini aloxida e’tirof etishimiz muxim ahamiyat kasb etadi. Agar o‘tmish tariximizga jiddiy nazar soladigan bo‘lsak, tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishqi jo‘sh urgan insonlargina buyuk ishlarga qodir bo‘ladilar va tarixda hech bir narsa izsiz kolib ketmasligiga hech kaandayin shubha yuqligiga amin bo‘lamiz. Shunday ekan, ayni damda shunday ma’naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko‘zimizni, dilimizni va qalbimizni muntazam ravishda yashnatib tursin.

Bugungi kunda bizlarni ozod yashashimiz uchun jon fido qilgan iymon-e’tiqodli buyuk sarkardalarimiz, adiblarimiz, bobolarimiz hamda ma’rifatparvar jadidchilarimiz, Vatanga o‘z sadoqati ila o‘rnak bo‘larli ajdodlarimiz borligi, ularning bosib o‘tgan shonli yo‘llari, milliy ozodlik uchun, jonajon Vatanimizni bir parcha yerini dushman qo‘liga berib qo‘ymaslik uchun jonini xam fido qilganliklari, dushmanlarga qarshi olib borgan fidokorona kurashlari biz avlodlarni mag‘rur etadi va insonlar qalbidagi Vatan mehri oliy qadriyatlardan biri ekanligini alohida e’tirof etishimiz muxim sanaladi. Shunday ekan, bugungi kunda Respublikamiz harbiy yoshlarini vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishimizda Vatan tushunchasi va Vatan tuyg‘usi cheksiz va bebaho ne’mat ekanligini ularning ruxiyatiga,ongitga va psixologiyasiga soddalik va moxirlik bilan singdirishimiz zarur hisoblanadi. Vatan bu – Alloh inoyati bilan har bir millat, elatga berilgan bahosi yo‘q ne’mat. Undan a’lo narsa yo‘q. Vatan bu – xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir.

Biz uchun mustaqillik – Allohning o‘zi el-yurtimizga in’om etgan tabiiy boyliklarga egalik qilish, xalqimiz qudrati, salohiyati, aqlu zakovatiga tayanib, O‘zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun munosib hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod Vatan qoldirishdir. Jonajon vatanimizga fidoyi

bo‘lib xizmat qilish uzoq muddatli, uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, bu har bir insonning xususan, Respublikamiz yoshlarining,jumladan harbiy xizmatchilarning doimo xushyor, sergak, mahoratli, bilimli bo‘lishlarini talab etadi. Yurtboshimiz haqli ravishda ta’kidlaganlaridek: “Bilimli avlod buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”.[1]

Bugungi kunda jadal sur’atlar o‘zgarib borayotgan shiddatli va taxlikali davrda zamonaviy bilimlar asosida mukammal ta’lim-tarbiya olgan Respublikamiz yoshlari o‘zlarini ham, jamiyatni ham taraqqiyot sari yetaklaydilar. Bunda ta’lim-tarbiya mukammal bo‘lmog‘i lozim bo‘ladi. Yaxshi ta’lim-tarbiya, shubhasiz, insonni baxtli - saodatli qiladigan, ilm va tajriba bilan bir qatorda ezgu va ma’qul ishlarga undaydigan zamon talabiga va Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan zamonaviy ta’lim-tarbiyadir va u ilm maskanlarida muntazam ravishda nazortga olinmog‘i darkordir, mukammal darajada esa o‘rganilmog‘i lozimdir.

Buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temur bobomiz «Askarlari baquvvat el qudratli bo‘lur, qudratli elning askarlari baquvvat bo‘lur» degan o‘gitlari va iboralari asosida ezgu niyatlarimizni bardavom ettirgan holda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy ishlar asosida davom ettirib, O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov «Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi» degan fikrlarini astoydil isbotini asoslashimiz zarur deb hisoblaymiz.

Soxibqiron bobomiz Amir Temurning hayotiy qarashlarida iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, bilimlilik, adolat, axloqiy poklik, yaxshi xulq, ma’naviy yetuklik g‘oyasi, ilm-fanga intilish kabi insonning eng oliy ma’naviy harakatlari mujassamlashgan. Amir Temur har bir ishda tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi. Nodonlik, erinchoqlik, ilmsizlikni tanqid qiladi. Shuningdek, bobomiz Amir Temur kishilar hayotidagi yomonlikning shoxobchalari ta’ma, g‘azab va ilmsizlik ekanligini ongli his etadi va rostgo‘ylik, to‘g‘ri so‘zlikni ulug‘laydi, yolg‘onchilikni esa odamlar o‘rtasiga nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi.

Amir Temur mamlakatning obodonligi, ilm-fanning ravnaqiga bog‘liq bo‘lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi va ma’rifatiga bog‘liq deb biladi va yoshlarni ilm-ma’rifatga chorlaydi. Ilmli bo‘lish faqat chidam bilan qilingan mehnat mahsuli ekanligini ta’kidlaydi.Amir Temurning shaxsi ulug‘lanib, Sohibqiron, ya’ni shohlarning shohi, jahongir deb atalgan. Uning hayoti va amaliy faoliyati ko‘p qirrali, har tomonlama ma’lumotga ega bo‘lgan. Amir Temur insondagi asillik, tozalik, aql-farosatlilik, ehtiyotkorlik, ziyraklik, mehribonlik, xushmuomalalik, sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik kabi sifatlarni qadrlagan. U

[1] Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar. Yoshlar nashriyot uyi. – Toshkent, 2019. 5-bet.

vatanga xizmat qilishda halollik, poklik, adolatlilik tamoyillariga amal qilishga da'vat etishlari bilan birgalikda aynan yoshlarni vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga zamin yaratib berganligining guvoxi bo'lamiz Amir Temur harbiylarni tanlash va mansabga qo'yish masalasini ham davlat boshqaruvidagi eng muhim omillardan hisoblagan. Jahongir harbiylikka olinadigan kishidagi tashkilotchilik, faollik, sergaklik, xushyorlik va tadbirkorlikni birinchi o'ringa qo'ygan. "Temur tuzuklari" da ham: "Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-ming tadbirsiz loqayd kishidan afzal"[2], - deya alohida ta'kidlangan. Darxaqiqat, komil insonlar – jamiyatdagi ilg'or qatlamdir. Shunday ekan, barkamol insonni tarbiyalash, Respublikamiz harbiy yoshlarini vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish masalasi – yangi O'zbekiston Respublikasining bosh maqsadi hisoblanadi. Komil inson o'z maslagi, Vatani, xalqi manfaatlariga yot, zararli g'oyalarni tarqatayotgan kimsalar ortidan ko'r-ko'rona ergashib ketavermaydi, ogoh va faol bo'ladi. Hayotda ezgulik hukmron bo'lishi uchun aql yaxshilik va adolatga xizmat qilishi zarurligi o'qtirib o'tiladi. Respublikamiz harbiy yoshlarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda asosiy e'tibor ularning o'z ishiga mas'uliyatli va faol sub'ekt sifatida adolatli xukm chiqaruvchi yuksak ma'naviyatli inson bo'lishi muhim ahamiyatga egadir.

"Adolat va ma'naviyat-o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat ham bo'lmaydi".[3]

Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy o'qituvchining kasbiy egallagan bilimlari hamda innovatsiya faoliyati orqali mamlakat istiqbolini o'z kelajagi bilan uyg'un ko'radigan, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashadigan erkin fikrlovchi harbiy vatanparvar tuyg'usi yuqori saviyada rivojlangan harbiy yoshlarimizni yanada shakllantirish, rivojlantirish va mukammal darajada takomillashtirish eng muhim kechiktirib bo'lmaydigan masalardan ekanligi hammamizga ma'lum. Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maksadi ham har tomonlama shakllangan intellektual kadrlarni tayyorlash, davlat va jamiyat tarakkiyotini yanada yuksaltirish va Uzbekistonning xalqaro nufuzini oshirish bilan bog'lik ishlarni yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Ma'lumki, ta'limning sifatini ta'minlash, jamiyatni rivojlantiruvchi omil va uni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Shunday ekan, pedagogik jarayonlarning samaradorligi, ta'lim sifati o'qituvchilarning pedagogik jarayonlarni tashkil etish va

---

[2] Amir Temur o'gitlari. B.Ahmedov tahriri ostida. – Toshkent: Navro'z, 1992. -B.11.

[3] Mirziyoyev SH.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu-maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti. Uning o'zi. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild, – T.:- B.432.

boshkarishdagi kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari hamda kasbiy va shaxsiy sifatlariga bevosita va bilvosita bog‘likdir.

Zamonaviy o‘qituvchi innovatsion faoliyati orqali yangiliklarni izlash, o‘rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma’lumotlardan foydalanish, pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklarni o‘zlashtirish asosida ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatiga xos bo‘lgan usullardan biri – uning pedagogik ijodkorligidir.

Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, mashg‘ulotlarning qiziqarli va tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Respublikamiz harbiy yoshlarini vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish hamda ularning vatanparvarlik tuyg‘usini yanada takomillashtirish jaryonida “G‘oyalar g‘ildiragi” ish usulidan foydalanish muxim axamiyat kasb etadi. Bunda “G‘oyalar g‘ildiragi” shunday tamoyilga asoslanadiki, qandaydir muammoni hal qilish uchun g‘oyalarning ma’lum sonining ro‘yxatini keltirish zaruriy shart bo‘ladi. Ularning soni **sakkiz** yo‘nalishida ifoda etiladi.

Ushbu usulda ishlash uchun tavsiyalar:

1. O‘rtasiga hal qilinishi zarur bo‘lgan muammo yoki masala yoziladi.

2. Sakkiz – bu o‘zaro kelishuv asosidagi bosqich bo‘lib, shu yo‘nalishda g‘oyalarni topishga erishasiz va bunda o‘zingizning ijodiy imkoniyatlaringizdan foydalanasiz.

3. “G‘oyalar g‘ildiragi”da muammo va masalaning javobi aks etgan g‘oyalar joylashadi. **“G‘oyalar g‘ildiragi”** sonlarini **8** dan **12** gacha kengaytirish mumkin. Bu sizning muammo yoki masalani hal etishga bo‘lgan qat’iyatingizga bog‘liq.

Masalan **“Vatan”** tushunchasini **“G‘oyalar g‘ildiragi”** asosida yoritish muxim axamiyatga ega:

Vatan arabcha so‘z bo‘lib o‘zbek tilida tug‘ilib o‘sgan joy, ona yurt, onadek tanho, ko‘z ochib ko‘rgan dunyomiz, bizni voyaga yetkazgan makon, shahar,qishloq, uy, turar joyi,boshpana, diyordir.

Vatan – muqaddas qadriyat. Insoning kindik qoni to‘kilgan joy, manzil, ma’naviy kamolot va va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o‘chog‘idir.

Vatan – onaning allasi taralgan , beshigining izlari chizilgan zamin.

Vatan – birinchi bor bahorni tanitgan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta tongni kutgan joy.

Vatan – insonni kamol toptiradigan,hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan, ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira.

Vatan – har bir insonning baxtu kamoli,yuksak axloqi va chinakam fidoyiligidir.

Vatan – odamning g‘ururi, iftixori, yuksak maqsad-muddaolari, tog‘dek kaliti.

Vatan – uni qalb, dildan anglamoq,u bilan yashamoq,uni yashnatmoq, obod etmoq uchun kurashmoqdir.

Harbiy yoshlarimizda milliy g‘urur va milliy rux mavjud ekan, shu milliy g‘urur negizida vatanga muhabbat kayfiyati paydo bo‘ladi. Natijada har bir inson millati, yurti uchun fidoyi bo‘lib mehnat va ijod qiladi. Eng muhimi ularda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish orqali ularning qalbiga va ongiga singdirish orqali ular haqiqiy vatanparvar bo‘ladilar. Demak, milliy g‘ururi bo‘lgan harbiy yoshlarimizda vatanparvarlik, badiiy-estetik tuyg‘usi mujassamlashgan bo‘ladi. Mazkur tuyg‘u esa juda noyob bo‘lib, ham vijdonli, iymonli hamda mehnatni yaxshi ko‘radigan va umuman barcha sifatlarga ega bo‘lgan harbiy yoshlarimizda vujudga keladiki, bunday insonni kamolotga yetgan deb hisoblashimiz zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda vatanimiz yoshlarini harbiy vatanparavarlik ruhida tarbiyalash hamda ularda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish masalalasi davlat siyosatidagi muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan masalalardan biri sifatida ekanligini aloxida e’tirof etishimiz muxim ekan, Xulosa sifatida shuni aloxida qayd etishimiz kerakki, ma’naviy barkamol inson o‘zining qilgan ishlari, hayot va turmush tarzi bilan boshqalarning havasini uyg‘otadi hamda hayotda iz qoldiradi. Eng muhimi, O‘zbekiston taqdiri uchun mas’uliyat hissi oshadi va harbiy yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiriladi. Ayniqsa, Vatan oldidagi burchini ongli anglagan holda vatanparvar bo‘lib yetishadi. Vatanparvarlik ayni vaqtda insonga yanada mas’uliyatli bo‘lishni yuklaydi, uni ijod va bunyodkorlikka, shijoat va g‘ayratga rag‘batlantiradi. O‘z vatanini sevish u bilan faxrlanish, uning baxt-saodati yo‘lida faol faoliyat ko‘rsatish demakdir. Inson o‘z Vatanini sevmasa, unga sadoqat bilan farzandlik burchini ado etmasa, u haqiqiy inson bo‘lishi mumkin emas. Vatanparvarlik insonning eng ulug‘, eng oliyjanob va eng muhim fazilati, odamiylikning tom ma’nodagi ifodasidir. Shu bois, “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” dasturiy g‘oya asosida harbiy yoshlarimizni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish o‘ta sharafli vazifadir deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar.– Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash – barcha ezgu-maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti. Uning o‘zi. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: 1-jild.

3 Amir Temur o‘gitlari. B.Ahmedov tahriri ostida. – Toshkent: Navro‘z, 1992.

HARBIY XIZMATCHILARNI VATANPARVARILIK RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

X.X. JABBOROV
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Shu boisdan mazkur masalada mamlakatimiz yoshlarini **vatanparvarlik**, shu jumladan, **harbiy-vatanparvarlik**, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga **tinchlik va totuvlikni** ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish masalasi **harbiy va ijtimoiy psixologik** tadqiqotlar predmetiga aylanib bormoqda.

Bizningcha Psixologiya fani fanlarning fanidir? Nega shunday? Chunki psixologik bilimlar birinchi navbatda insonni o‘zini so‘ngra milliy o‘zligini anglashga yordam beradi.

Psixologik bilimlar insoning intellektual taraqqiyotini, intellektual odamlar esa davlat, xalq va millatni taraqqiyotining garovidir.

O‘zini va milliy o‘zligini anglash vatan himoyasi va vatanga muhabbatni oshiruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar hisoblanadi.

«Vatan — ulug‘, burch — muqaddas!» Harbiy xizmatchilarni vatanparvarilik ruhida tarbiyalash bo‘yicha ijtimoiy buyurtma bor. YA’ni mazkur masalada Prezident qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari va sohadagi islohotlar bo‘yicha bir qancha xujjatlarni aytish mumkin. Lekin yoshlarni va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik qilib tarbiyalash ishlari ijtimoiy extiyojga aylanmayapti.

Bizningcha buning sababi yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvar qilib tarbiyalashning yakdil va aniq indikatorlari (Vatanparvar insonda qanday tayanch kompetensiyaviy drayver fazilatlar bo‘lishi kerak?) va uning o‘lchov mezonlarining puxta emasligi.

Harbiy xizmatchilarni vatanparvarilik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillarida asosan harbiy xizmatchining xulq-atvorida milliy fazilatlarni namayon bo‘lishi, milliy o‘zligini anglashi kabi jihatlar juda muhim hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarni vatanparvarilik ruhida tarbiyalashda ularning xulq-atvorida vatanparvarlikni namayon bo‘lishini **yakdil verbal va noverbal elementlar**

algaritmini va vatanparvarlik bo‘yicha **milliy xulq-atqor modelini** ishlab chiqish va mustahkamlash masalasini tadqiq qilish juda muhim.

Harbiy xizmatchilarning xulq-atvorida vatanparvarilikni yuksak darajada namayon bo‘lishida bexeviorizm va neobexeviorizm konsepsiyadagi **S-R** formulasi va **“operant”** modeli ya’ni aytish emas **ushuntirish ko‘rsatish o‘rgatish** kabi metodlarni kuchaytirish lozim.

Harbiy hizmatchining xulq-atvori bevosita va bilvosita tarbiya jarayonining mahsulidir.

Shunday ekan biz harbiy xizmatchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda ularning xulq-atvorida vatanparvarlikning **“sadoqat”, “matonat”, “ma’suliyat”, “burchdorlik”, “daxldorlik”** kabi tayanch kompetensiyaviy drayver faziflatlarni kuchaytirishmiz muhim hisoblanadi. Shundagina yoshlar va harbiy xizmatchilarda **“alturizm”** xulq modeli shakllanadi.

Alturizm esa vatanparvarlikni naqd o‘zidir!

Harbiy xizmatchilarni vatanparvarilik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillari da ta’sirchan bo‘lgan oila, mahalla, ta’lim va ommaviy axborot vositalarini o‘rni bo‘yicha yakdil vazifalarni ham kelishib olish va shular orasidagi amaliy hamkorlik harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik fazilatini yaqqol namayon bo‘lishini ta’minlaydi.

Quyidagilar metodlar harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ta’sirchanligini oshiradi:

1.Tushuntirish

2.Ishontirish

3.Mashq qildirish va mustaqil ishlash

4.Kuzatish

5.Rag‘batlantirish

6.O‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy namuna.

Harbiy xizmatchilarimizni aksariyat qismini yoshlar tashkil qiladi. Yoshlar – Vatanimizning, millatimizning kelajagidir. Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo ular zimmalariga yuklatilayotgan murakkab va mas’uliyatli vazifani butun mohiyati ila chuqur anglashlari, unga o‘zlarini hissalarini qo‘shishlari lozim. Zero, Vatanni sevish, unga mehr-muhabbat qo‘yish bevosita har kimning shu yurt ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan bunyodkorona ishlari bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatchilarni vatanparvarilik ruhida tarbiyalashda milliy o‘zlikni anglash masalasi ham eng asosiy ijtimoiy-psixologik omillardan biri g‘isoblanadi. Milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishida milliy vatanparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan, teran fikrlovchi harbiy xizmatchilarni tarbiyalash katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan yoshlarimizning har biri yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi shart.

Vatanparvarlik – yuksak insoniy fazilat hisoblanadi. Vatanparvarlik komillikning eng yorqin jihatlaridan biridir. Shuning uchun ham Hadisi Sharifda **«Vatanni sevmoq - iymondandur»** deb da'vat qilinadi.

Vaholanki, o'tmishda jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan xalqning bugungi avlodlari, o'z meroslarining jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilishini ta'kidlab o'tish joizdir, zero ularda bu kabi his – tuyg'ular milliy g'urur hamda ruhiy barkamollikka yetaklaydi, milliy o'zligini anglashga intilishini kuchaytiradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jismoniy tarbiya bilan o'zviy bog'liq suratda olib borilganidagina yaxshi natija beradi. Shuning uchun harbiy vatanparvarlik tarbiyasini ruxiy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi g'oyaviy, fikriy, tafakkur janglarida harbiy xizmatchilarda irodaviy sifatlar, sabr, sabot – matonatlik, tez va chaqqon obektiv fiklay olish kabi Vatan mudofaasi uchun eng muhim fazilatlarni yoshlar va harbiy xizmatchilarda rivojlantirishda psixologiya va ijtimoiy psixologiya ilmining roli benihoyat kattadir.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan mudofaasiga jismonan va ma'naviy jihatdan tayyorlash zarurligi hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo'lishni talab etadi. Harbiy xizmatchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdagi faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasalarining asosiy o'rin egallashi darkordir.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – yoshlar tarbiyasining samaradorligiga qanday erishiladi.

Mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish yoshlar tarbiyasi, siyosiy ongi, mehnat faoliyati va ilmiy-texnika rivojlanishi tezligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarbiyalash - bu insonlarni jamiyat uchun jismoniy - aqliy mehnatga yoki boshqa foydali faoliyatga yo'naltirish, shu bilan birga ko'p qirrali ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlashning obektiv asoslangan jarayonlardan iborat. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologiyasi va ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo'llaniladi. Bu tushunchaga insonning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy jismoniy va boshqa fazilatlari yig'indisi kiradi.

Harbiy vatanparvalik tarbiyasini tashkil qilish uchun tinch va jangovar vaziyatdagi harbiy xizmat sharoitlarida bilishlarning psixologik faoliyatini o'rganuvchi harbiy psixologiya ham muhim ahamiyatga ega.

Harbiy psixologiya Vatanimiz himoyasi uchun o'z burchini bajarishga yoshlarni psixologik tayyorlash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Psixologik fan inson shaxsiyoti, ichki ma'naviy dunyosi, o'zini tutish omillari,

bir-biridan xususiyati, qiziqishlari bilan farqlanadigan kishilar bilan harbiy vatanparvalik tarbiyasini to‘g‘ri tashkil qilishni yaxshi tushunishga yordam beradi.

Tarbiyachilarning psixologik fanni yaxshi bilishi, ularga kasbiy tanlov va yuqori sinf o‘quvchilarini harbiy o‘quv yurtlariga kirish va O‘zbekiston Respublikasi turli faoliyatdagi va Qurolli Kuchlarida hizmat qilishga tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Yoshlarning harbiy vatanparvalik tarbiyasi, shuningdek zamonaviy urush xususiyati, qurollangan jang vosita va shakllari, qonuniyligi, jangovar harakatlar sharoitlarini ochib beradigan harbiy fan bo‘lib, qoida va xuloslarini hisobga olgan holda tashkil kilinadi. Harbiy fan har bir kishi qanday ma’naviy-siyosiy, psixologik va jangovar xislatlarga ega bo‘lishi, Vatan himoyachisi majburiyatini muvaffaqiyatli bajarini uchun unga qanday bilim, ko‘nikmalar zururligi haqidagi savollarga javob beradi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiya ilmiy asoslari, Vatan himoyasiga yoshlarning ma’naviy siyosiy va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha amaliy faoliyatning mazmuni, tashkili, shakl va metodlarini aniqlovchi boshlang‘ich nizomlar, asos soluvchi qoidalar, talablarini bildiradigan prinsiplarda tadbiq qilinadi hamda aniqlashtiriladi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi prinsiplari o‘z mohiyatiga ko‘ra obektivdir. Ular haqiqiy holat, real aloqa va munasabatlari aksi, mamlakat mudofaasiga xalqni tayyorlash bo‘yicha davlat va ijtimoiy tashkilotlarni ilmiy asoslangan, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat ifodasidir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, harbiy xizmatchilarni vatanparvarilik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish va u bo‘yicha mahalliy tadqiqotlarni ko‘paytirish mazkur masaladagi samaradorlikni oshirishning eng ta’sirchan yo‘llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiY. Toshkent. «Fan» nashriyoti 2004.

2. Sa’dulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. O‘zbekistonda ma’naviy – ruhiy tiklanish. Toshkent. «Yangi asr avlodi» nashriyoti 2003.

3. Harbiy - Vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. «Ma’rifat» nashriyoti 1988.

4. E.Umarov, M.Abdullayev. Ma’naviyat asoslari. “Sharq” nashriyoti 2005y.

5. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining D-7, D-16, D-17 ko‘rsatmalari. 2003y.

6. Inoyatov I.Y., Abilov M.X. «Vatan himoyasi muqaddas burch» Toshkent. “O‘zbekiston”. 2001y.

7. Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi «Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi». Toshkent. “O‘zbekiston”. 2006y.

HARBIY XIZMATChiLARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINING IJTIMOIY VA MA’NAVIY OMILLARI

T.D. MAMATQOBILOV
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasining Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik
kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi

Yngi O`zbekiston Respublikasining Mudofaa qobiliyati va Qurolli Kuchlarning yuksak jangovarligi iqtisodiy, siyosiy, strategik hamda harbiy-texnikaviy va ilmiy kuch qudratini rivojlantirish, O`zbekiston xalqining jipsligi va har bir fuqaroning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanganligi bilan bevosita bog‘liq. 2018-yil 23 – fevralda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarori qabul qilindi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo`mondoni Shavkat Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida” 2018-yil 4 – avgustdagi PQ-3898-sonli qarori va shu asosda joriy etilgan Qurolli Kuchlar tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samarodorligini oshirish kontseptsiyasiga muvofiq “Vatan-muqaddas, uni himoya qilish sharafli burchdir!” g`oyasi ilgari surildi. Shuningdek, Qurolli Kuchlar tizimida haftaning har juma kuni “Ma’naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni” etib belgilanganligi zamirida esa harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini rag`batlantirib borish lozimligi belgilangan. Maqsad mamlakatimiz suverenligini, hududiy yaxlitligini, xalqimiz tinchligini sadoqat bilan himoya qilish eng oliy vazifa sifatida e’tirof etiladi. Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ta’minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro`- e’tiborini yuksaltirish borasida keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Demak, 2022-2026 – yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasining Taraqqiyot strategiyasida belgilangan yettita ustuvor yo`nalish bo`yicha mamlakatimiz yoshlarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. Buyuk o`tmishimizda yashab o`tgan ajdodlarimiz, xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan, Vatan ozodligi yo`lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz - Shiroq, To`maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning ko`rsatgan jasoratini harbiy xizmatchilarimizga doimo namuna sifatida ko`rsatishdan biz doimo faxrlanamiz. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan ancha takomillashdi. Tuzilmalarning harakatchanligi, jangovar qobiliyati, harbiylarning

jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi oshdi. Harbiy qism va bo`linmalar zamonaviy qurol-yarog` va jangovar texnika bilan ta'minlandi. Milliy armiyamizni professional kadrlar bilan to`ldirish, harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini, bilim va ko`nikmalarini yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor.

Davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga doimo e'tibor qaratishni vazifa qilib belgilab berdi. Mudofaa vazirligi qo`shinlarida o`zbek xalqining buyuk mutafakkirlari misolida harbiy xizmatchilarning o`z milliy va madaniy merosi bilan faxrlanish tuyg`usini oshirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish to`g`risida olib borilayotgan ishlar ko`lamini kun tartibidan tushirmaslikni ta'kidlab, "Harbiy ilmsiz harbiy bilim bo`lmaydi", degan fikrni bildirdi.

Harbiy xizmatchilarni ijtiimoiy himoyalash, oilaviy shart-sharoitlarini to`g`rilash, uy-joy bilan ta'minlash masalalari bosqichma-bosqich rejali amalga oshmoqda. Mamlakatimizda harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish va Qurolli Kuchlarimiz jangovar shayligini yanada oshirish maqsadida qo`shin turlarini yosh va salohiyatli kadrlar bilan to`ldirish, harbiy xizmat o`tash uchun qulay sharoitlar yaratish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiylari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo`llab-quvvatlashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi qarorga asosan harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim yo`nalishlariga davlat granti asosida belgilangan umumiy qabul kvotalarining besh foizi miqdorida davlat granti asosidagi qo`shimcha qabul kvotalari ajratilmoqda. Shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila-a'zolari salomatligini ta'minlash bo`yicha zarur sharoitlar yaratildi. Uy-joyga muhtoj oilalar belgilangan tartibda uy-joy bilan ta'minlanmoqda.

Milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda oilada bitta o`g`il bo`lib, qolganlari qiz farzand bo`lsa ham bu yigitlarga ota-onasi yashaydigan hududda xizmat qilish imtiyozi, ijobiy tavsiyaga ega, vakant lavozimlari yo`qligi sababli berilgan harbiy unvonida xizmat muddatini kamida ikkitasini o`tagan ofitserlarga lavozim bo`yicha bir pog`ona yuqori turuvchi harbiy unvon berilishi, har yili harbiy xizmatchilarning navbatdagi ta'tiliga xizmat yillarining taqvim hisobiga ko`ra qo`shimcha tarzda 5, 10, 15 sutkalik ta'tillar berilishi kabi imtiyozlar yaratildi.

Kuchli ijtimoiy himoya, o`z navbatida, ofitser va askarlarimizning fidoyilik, burchga sadoqat bilan xizmat qilish, o`zining professional tayyorgarligini oshirib borishi uchun zamin yaratmoqda. Ko`rilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida Vatan himoyachilarining harbiy xizmatga bo`lgan yondashuvi tubdan o`zgardi, harbiy qismlarda mas'uliyat va intizom mustahkamlandi, barcha harbiylar qalbida o`z

Vatani bilan faxrlanish va g`ururlanish hissi yanada ortdi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o`z kasbining ustasi unvoni uchun ko`rik-tanlov to`g`risida Nizom (O`zR Prezidentining 01.12.2020 y. PQ-4905-son qaroriga 1-ilova).

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.07.2019 y. PQ-4382-son «O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat majburiyatlarini bajarish chog`ida tan jarohati olgan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) yoki halok bo`lgan (vafot etgan) harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) oila a'zolariga bir martalik nafaqa tayinlash va to`lash tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori.

O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida tinchlik va urush davrida tibbiy ko`rikdan o`tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to`g`risidagi Nizom (AV tomonidan 03.04.2019 y. 3147-son bilan ro`yxatga olingan 14.03.2019 y. Mudofaa vazirligining 11-son, Milliy gvardiyaning 8-son, Favqulodda vaziyatlar vazirligining 5-son, Davlat xavfsizlik xizmatining 6-son, Ichki ishlar vazirligining 23 qq-son, Sog`liqni saqlash vazirligining 37-son qarori bilan tasdiqlangan).

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2017 y. 619-son «O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joy sotib olish (qurish) uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari hamda yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalari berish tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi Qarori.

O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joy sotib olish (qurish) uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari hamda yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalari berish tartibi to`g`risida Nizom (O`z.R. VM 11.08.2017 y. 619-son qaroriga 1-ilova) kabilar ijtimoiy himoyaning ma'naviy omillari sirasiga kiradi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo`mondoni Shavkat Mirziyoyev belgilab berganidek, "Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish", muhim yo`nalish hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko`lamdagi islohotlar mohiyati odamlarning hayotdagi insoniy omilkorligini va ichki imkoniyatlarni yanada teranroq anglashga, his etishga hamda inonib-ishonib doimo mehnatdan qochmaslikka chorlamoqda. Fuqarolarning, ayniqsa, mamlakat yoshlarining ma'naviy va jismoniy kamoloti Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi g`oyasi orqali yuksak fuqarolik mas'uliyatini his qilish, anglash, uqish va tushunish hamda bevosita jamiyatga dahldorlik tuyg`usi bilan uyg`unlashuvi buyuk maqsadlarimizning amalga oshishida mustahakam poydevor bo`ladi.

Yangi O`zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko`lamdagi islohotlar zamirida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va savdo-iqtisodiy masalalar muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O`zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o`rni tobora yuksalib borishida tinchlik, barqarorlik va insonparvarlik tamoyiliga tayangan holda yurtimizda yashayotgan har bir insonning hayoti, orzusi, dardu – armonlarini e'tiborimiz markaziga qo`yishni va bu boradagi vazifalar samaradorligini oshirishni eng muhim masala sifatida kun tartibiga qo`ymoqda.

Bugungi dunyo axborot xurujini boshidan kechirmokda. Shu sababli ham nafaqat aholi balki harbiy xizmatchilar tafakkurida axborotni o`zlashtirish eng dolzarb masalalardan biri bo`lib bormoqda. Endi barcha shaxsiy tarkib va ijtimoiy guruhlarning qiziqishi, kayfiyati, ijtimoiy holati tahlil etilar ekan, ekstremistlar va yot, buzg`unchi g`oyalar ta'sir doirasini tahlil eta olish ko`nikmalarini o`zlashtira olishimiz zarur.

Mamlakatimizda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishi hisoblandi. Yurtimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari 138 ta milliy-madaniy markazga birlashib, "O`zbekiston-umumiy uyimiz" shiori ostida katta bir oilaning farzandlaridek tinch-totuv yashayapti. Buning zamirida ulkan insonparvarlik siyosati turibdi. O`zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi farmoniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do`stlik aloqalari qo`mitasi tashkil etildi. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad esa jamiyatimizda millatlararo hamjihatlik va bag`rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil davom ettirishdan iborat.

Dunyoda globalizatsiya jarayoni kuchaygan, jahon miqyosida raqobat, o`zaro qarama-qarshilik tobora avj olayotgan, radikalizm, terrorizm, ekstremizm, prozelitizm va "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kengayib borayotgan hozirgi zamonda doimo ogoh va hushyor bo`lib yashashimiz kerak.

Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hozirgi vaqtda dunyoda turli kuchlar o`rtasida qarama – qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shavqatsiz kurash kechmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi – yangi tahdidlar paydo bo`lmoqda"[1, b.371].

"O`z uyingni o`zing asra", "O`z bolangni o`zing asra" g`oyalari orqali safarbarligimizni yanada oshirishimizni hayotning o`zi taqozo etmokda. Mamlakat chegaralari daxlsizligini ta'minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovor salohiyatini kuchaytirish navqiron yigit-qizlarimizni tom ma'noda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz darkor.

Aynan, Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlar natijasi o`laroq, buyuk ajdodlarimiz - Shiroq, To`maris, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Bobur kabi milliy qahramonlarimizning ko`rsatgan jasoratini harbiy xizmatchilarimizga doimo o`rnak

sifatida ko`rsatishdan biz doimo faxrlanamiz. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan ancha takomillashdi. Tuzilmalarning harakatchanligi, jangovor qobiliyati, harbiylarning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi oshdi. Qism va bo`linmalar zamonaviy qurol-yarog` va jangovor texnika bilan ta'minlangan. Qurolli Kuchlarning yuksak jangovorlik qobiliyati iqtisodiy, siyosiy, strategik hamda harbiy – texnikaviy va ilmiy kuch-qudratini rivojlantirish orqali O`zbekiston xalqining jipsligi va har bir fuqaroni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng muhim printsipi hisoblanadi. Bugun dunyoning ko`plab davlatlari turli ko`rinishdagi jiddiy muammolarga duch kelayotgan bir vaziyatda yurtimizda mustaqillikning o`tgan o`ttiz ikki yili davomida, ayniqsa Yangi O`zbekiston sharoitida muhtaram Yurtboshimiz tomonidan barcha sohalarda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xalqimiz hayoti kundan kun zamon bilan hamnafaslashib bormoqda. Shu o`rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19 – sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78 – sessiyasidagi nutqida: "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O`zbekiston o`z oldiga qo`ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag`allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o`sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz"[2, b.1-2.], - degan fikrni qayd etdi. Buning mazmun – mohiyati odamning hayotdagi insoniy omilkorligini va ichki imkoniyatlarini yanada teranroq anglashga chorlashdan iborat.

Shuning uchun ham barcha jabhalar qatori mudofaa sohasiga ham sinchkov razm solar ekan, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo`mondoni Shavkat Mirziyoyev, shunday muammolar bo`ladi-ki, ular doimo dolzarbligicha turaveradi. Ular orasida insonning ma'naviy-axloqiy takomillashuvi bilan bog`liq masalalar ham mavjud. Darhaqiqat, O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish kontseptsiyasida harbiy xizmatchilarning ma'naviy saviyasi va intellektual salohiyatini yuksaltirish, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas'uliyat tuyg`usini chuqur singdirish, dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo`layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish kabi vazifalar belgilab berilganigiga alohida e'tibor qaratadi. [3,b.3-4].

Bugungi kunda barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlariga yuqori talablar qo`yilib, shaxsiy tarkibning g`oyaviy va jismoniy jihatdan chiniqishini kuchaytirishga, uning jangovar mahoratini oshirishga, intizomni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xizmatning intellektual va ruhiy tangligi oshib borgani sayin, ofitserning intizomliligini yanada rivojlantirish zarurati kun tartibida dolzarb bo`lib qolmoqda. Zero, intizom armiyaning asosiy kuchi hisoblanadi.

Intizom avvalo, faoliyat, xulq-atvor bilan bog`liq tushuncha. Intizom jamiyatda o`rnatilgan ijtimoiy meyorlarga javob beruvchi, kishilar xulq-atvoriga qo`yilgan muayyan talablardir. Unda, birinchidan, jamiyatning individlar va jamoalarga qo`yilgan muayyan talablari va ikkinchidan, inson xulq-atvorining jamiyat manfaatlariga, uning qonuniyligiga hamda ichki madaniyatiga mos kelishining ijtimoiy bahosi aks etadi. Intizom tartibsizlikning turli shakllari va darajalariga qarshi zaruriy vositadir.

Harakat sohalariga ko`ra intizomning quyidagi turlari farqlanadi: davlat intizomi, mehnat intizomi, harbiy intizom, shartnoma asosidagi intizom, moliyaviy intizom, texnologik intizom. Bular:

- Davlat intizomi – davlat xizmatchilariga qo`yilgan talablarni bajarishlari bilan bog`liq intizom turi;

- mehnat intizomi – mehnat jarayonida, uning qatnashchilarini o`rnatilgan muayyan tartibga majburiy bo`ysunishlariga olib keluvchi ijtimoiy munosabatlar shakli. U mehnat qonunining meyorlari bilan boshqariladi;

- shartnoma asosidagi intizom – shartnomada ko`rsatilgan majburiyatlar, qonuniy munosabatlarga subyektlarning amal qilishi;

- moliyaviy intizom – subyektlarning byudjet, soliq va boshqa moliyaviy huquqiy ko`rsatmalarga amal qilishi;

- texnologik intizom – subyektlarning ishlab chiqarish jarayonida texnologik ko`rsatmalarga amal qilishi;

- harbiy intizom – harbiy xizmatchilarning belgilangan qonunlar, Nizomlar, buyruqlarga amal qilish qoidalari bilan izohlanadi.

Demak, harbiy sohadagi keng ko`lamda amalga oshirilayotgan ishlar tufayli qat'iy intizom, ma'naviy-ma'rifiy tafakkur yuksaladi.

"Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammami ko`rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm – fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz"[4, b.237].

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 – yil 29 – iyun kuni "Yoshlarni harbiy – vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora – tadbirlari to`g`risida" qarori qabul qiindi.

Shu qarordan kelib chiqib, 2023 – 2027 – yillarda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo`yicha 7 – bobdan iborat kontseptsiya qabul qilindi va 14 ta hududiy birlikda qaror va kontseptsiya ijrosini amalga oshirish belgilandi. Bunda "Vatan ulug`, burch-muqaddas" kontseptual g`oya asosida yoshlarni birlashtirish ko`zda tutilgan.

Xulosa sifatida aytadigan bo`lsak, vatanparvarlik tuyg`usi harbiy sohani anglash, his qilish va idrok orqali yanada mustahkamlanadi. Chunonchi, yuqoridagi huquqiy,

ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy omillardan kelib chiqib, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 23 avgustdagi "O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to`g`risida"gi hamda 2022 yil 8-sentabrdagi "Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovor ruhini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora – tadbirlar to`g`risida"gi qarorlari ijrosini ta'minlash mamlakat taraqqiyoti uchun muhim strategik omil bo`lib xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi taklifni ilgari suramiz. Harbiy sohaga oid o`qitiladigan biror bir fan uzluksiz ta'limning uch bosqichida haftada bir marta o`qitilishi zarur deb hisoblaymiz. Bular maktab, o`rta-maxsus va oliy o`quv yurtlarida, shuningdek, mazkur soha xizmatchilarini uy-joy bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish, oylik maoshlarini bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib bir necha bor oshirishni barqarorlikning muhim omili sifatida anglashimizga zamin hozirlaydi, deb o'ylaymiz.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalq va armiya – bir tanu bir jon" tamoyili asosida mamlakatimiz dunyo mehvarida o'z o'rnini mustahkamlab boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun" – T:.O`zbekiston, 2022 - yil.-B.371.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. "Xalq so`zi" gazetasi, 2023-yil 20-sentabr – B.1-2.
3. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima qismi. - T.: O`zbekiston, 2023 yil. –B.3-4.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O`zbekiston strategiyasi". T.: O`zbekiston, 2021 yil. – B.237.

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MILLIY TAASSUBLARNING O'RNI

N.SH.UMAROVA

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Biz uchun muqaddas bo'lgan Ona Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, uning shon-u shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalarni, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat, shuningdek,

milliy qadriyatlar asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali vatanparvar, sadoqatli hamda shijoatli yoshlarni kamol toptirish har bir yurtdoshimiz oldida turgan ilk va sharafli mas'uliyatlardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.06.2023 yildagi 267-son Qarori asosida qabul qilingan "2023 — 2027 yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish" Konsepsiyasiga muvofiq "yoshlarda ajdodlarimiz va ota-bobolarimizning Vatanni himoya qilishga oid an'ana va qadriyatlariga sadoqatli bo‘lish xususiyatlarini shakllantirish" asosiy vazifa sifatida belgalanganligi ham bejiz emas [1].

Yoshlarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash o‘sib kelayotgan yosh avlodning millati, tili, kasbi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar Vatanga bo‘lgan sadoqatini shakllantirish, fuqarolik burchlarini va konstitusiyaviy majburiyatlarni bajarishga, jamiyat va davlatimizning manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashlashda milliy taassublarning o‘rni beqiyosdir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vojib va muhim masala. Milliy taassublarni o‘rni bilan tarbiyalash, yoshlarga tarix, madaniyat, til va millatning boshqa muhim asoslarini o‘rganish imkoniyatini berishdir. Bundan tashqari, yoshlarga shaxsiy qiziqishlar bilan tanishtiruvchi turli tadbirlarni tashkil etish mumkin.

Xo‘sh milliy taassub nima?

Bu borada jo‘da ko‘plab tortishuvlar bo‘lib, O‘zbek tilining izohi lug‘atida quyidagicha ta'rif berilgan:

Taassub-biror narsa yoki g‘oyaga behad berilish, ko‘r-ko‘rona ergashish; fanatizm. Biror kishiga yoki narsaga taqlid qilish, ergashish [2].

Karimova V. va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bugungi kundagi milliy xarakter tuzilmalaridan biri milliy taassublarni tashkil etmoqda [3]. Unga ko‘ra bugungi kundagi o‘zbek milliy xarakteriga xos milliy taassublarga:

1. Til
2. Davlat ramzlari
3. Etnik qadriyatlar xos ramzlar.

Tahlil qiladigan bo‘lsak, tarbiyada milliy taassublar o‘rtasidagi munosabat, insonlarning qadriyatlarini, ularning o‘z Vatani, tili, adabiyoti, san'ati va dinini qadrlash, hurmat qilishga yo‘l ochadi. Bu milliy taassublar, insonlarga o‘z mamlakatlarining yagonaligini his etish imkonini beradi. Milliy taassublar insonni:

- Ijodkorlik va mustaqil fikrlash;
- Tan olish va qadrlash;

- Novvator va kashfiyotchilik;
- Javobgarlik va milliy identifikatsiyalash jarayonlarini to‘laqonli amalga oshirishga yordam beradi.

Ijodkorlik va mustaqil fikrlash orqali shaxs insonlarni o‘z mamlakatlari va ularning tarixi, madaniyati, san’ati bilan yaqinlashtradi. Bu insonlarni o‘z mamlakatlarining ijodiy va intellektual merosini qadrlash hissini ulug‘aytiradi.

Tan olish va qadrlash orqali insonlar boshqa mamlakatlar qadriyatlari, tillar va madaniyatlaridagi munosabatlarda hurmat va adolatni o‘rgatadi.

Novvator va kashfiyotchilik insonlarga yengillik va yangiliklarga qiziqish, o‘z mamlakatlari rivojida ijodiy yondashuvlar qilishga yo‘l ochadi. Bu o‘z mamlakatlarini rivojlantirish uchun yangi g‘oyalar, ilmiy izlanishlar va yangi kashfiyotlar uchun ilhom olishiga olib keladi.

Javobgarlik va milliy identifikatsiyalash insonlarga o‘z mamlakatlari uchun javobgarlikni o‘rganish, milliy identifikatsiyalash orqali jamiyatidagi faol loyihalarda ishtirok etishga undaydi.

Bundan tashqari, tarbiya jarayonida milliy taassublarni inson ongiga singdirish insonlarni o‘zlarining mamlakatlariga sidqidildan xizmat qilish his-tuyg‘usi orqali boshqa mamlakatlar madaniyatiga tolerant va barqaror munosabatda bo‘lishni yuksaltiradi.

Shaxsga milliy taassublarni ongiga singdirish uchun tarix va milliy markazlar bilan tanishish ijobiy foyda keltiradi. Muzeylar, kutubxonalar, turli tanlovlar, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkillashtirish orqali yoshlarni tariximiz va milliylikka bo‘lgan ehtirosini oshiradi.

Milliy bayramlar va tadbirlar yoshlarning milliy taassublarga hurmat va shaxsiy tajribalar egalashini ta’minlaydi. Yoshlar, milliy bayramlar va tadbirlar bilan tanishish orqali milliylik taassurotlariga ega bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya tashkilotlari bilan hamkorlik qilish yoshlarga milliy taassublar va vatanparvarlik bo‘yicha darslar va treninglarni tashkillashtirishda yordam bera oladi.

Aynan yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tayyorlashimizda bizning milliy xarakterimizdagi milliy taassublar orqali tayyorlash maqbul yo‘llardan biridir. Chunki, tilimizni, davlat ramzlarimizni hamda etnik qadariyatlarimizni hurmat qilishni bilmagan shaxsda vatanparvarlik hissini shakllantirish xato yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Bilamiz-ki, bola tug‘ilganidanoq o‘z oilasidagi til orqali tarbiyalanadi, voyaga yetadi, maktabgacha ta’lim muassasalariga chiqqach milliy davlat ramzlarimiz o‘rgatilda, ammo davlat ramzlarimizdan iqtisodiy ta’minlanish darajamizni aks ettiruvchi “So‘m”imizni tanishtirishda oqsoqliklar borligini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, maktabgacha ta’lim muassasasida

tarbiyalanayotgan va umumiy o‘rta ta’lim muassasasining birinchi sinfida ta’lim olayotgan bolalarning iqtisodiy ijtimoiylashuvida milliy xarakterdagi ilk milliy taassublarning roli ham katta ekan. Bunday milliy taassublar bolalarning iqtisodiy ongiga taalluqli ayrim yanglish fikrlar borligini ko‘rsatadi.

2012 yil tadqiqotimizda, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanayotgan va umumiy o‘rta ta’lim muassasasining birinchi sinfida ta’lim olayotgan «Z» avlod bolalarning iqtisodiy ijtimoiylashuvida milliy xarakterdagi ilk milliy taassublarning roli ham katta ekanligi kuzatilgan edi. 2022 yilda esa «α» avlod bolalarda bilimlarni rag‘batlantirish, ma’lumotlilik alohida ahamiyat ko‘rsatsa-da, ulardagi individuallashuv «YOLO (siz faqat bir marta yashaysiz)», «FOMO (o‘tkazib yuborishdan qo‘rqish)» va hatto «NOTOMO (ertaga yo‘q)» qarashlarini mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi. Bunday milliy taassublar esa o‘z navbatida bolalarning iqtisodiy ongiga taalluqli ayrim yanglish fikrlar borligidan dalolat beradi.

Ushbu bosqichda avvallo bolalarni o‘z pulimizga bo‘lgan munosabatlarni ijobiy tomonga yo‘naltiradi, ularni boshqa davlat pullariga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli iqtisodiy ijtimoiylashuvini ta’minlashda maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi oila a’zolari bilan hamkorlikda bolalarda: a) milliy valyuta to‘g‘risida boshlang‘ich tasavvurlarga ega bo‘lish, b) moddiy ehtiyojlarga bo‘lgan talabni qondirishda ota-ona maslahatiga rioya qilish kabi *fazilatlarni*; a) o‘z xatti-harakatlarini iqtisodiy munosabatlar tomon yo‘naltira bilish, b) iste’molchi sifatida maqsadlarini aniq belgilay olish *ko‘nikmasini* shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy ishlarni yo‘lga qo‘yishi zarur.

Yuqoridagi vazifalari bajarish orqali yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalarni amalga oshirishda, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyati katta bo‘ladi.

Aynan milliy taassublar orqali yoshlarni Vatanparvarlik hissini shakllantirish yoshlarda ijtimoiy ahamiyatga ega fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish, yetuklik, Vatanga muhabbat va burch, milliy an’analarga sodiqlik, tarixiy va madaniy qadriyatlarni saqlashga intilish kabi fazilatlarni rivojlantirishga;

har tomonlama rivojlangan, sodiq, vatanparvar, odil, mard va jasur yoshlarning tayyorlanishi ta’minlanshag;

ma’naviy-axloqiy muhit va an’anaviy oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash negizida mustahkam oila qurish fazilatlari rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 267-son 29.06.2023. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (lex.uz)

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida (2006-2008), https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O‘zbek%20tilining%20izohli%20lug‘ati%20-%20A.pdf.

3. Sotsial psixologiY. Darslik: / V.M. Karimova, O.E. Hayitov, N.Sh. Umarova; Mas’ul muharrir V.M. Karimova; “UMID-DESIGEN” – Toshkent: 2021. – 270 b.

4. Umarova N.SH. Shaxs iqtisodiy ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar. Falsafa fanlari (PhD) doktorlik dissertatsiyasi. TDPU-2020 y.

KASB-HUNAR MAKTABIDA ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘ISIZ QOLGAN BOLALARNING BAG‘RIKENGLIGINING PEDAGOGIK JIHATLARI

Majidov Nabi Mahmudovich
O‘zbekiston Milliy Universiteti, dotsenti
Majidov Feruz Nabi o‘g‘li
Moskva Davlat Univeristeti Toshkent filiali,
magistr

Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarda bag‘rikenglikni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Kasb-hunarga ega bo‘lgan bolalarning bu toifasi ijtimoiy muhitga moslashishni istamasligi, samimiy hissiy munosabatlarning yo‘qligi va izolyatsiyasi bilan tavsiflanadi. Ularning boshqalar bilan aloqalari mazmunan zaif va hissiy jihatdan to‘yinmagan.

Kasb-hunar o‘quvchilarining umumiy toifasidan

Maktablar etim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni quyidagi sabablarga ko‘ra ajrata oladi:

- ijtimoiy aloqalarning yomon tajribasi;
- aniq qaramlik tendentsiyalari;
- individuallikning etarli darajada rivojlanishi, past shaxsiy faollik;
- jamiyat tomonidan o‘rnatilgan qoidalar va me'yorlarga qarshilik.

Bularning barchasi kollejni tugatgandan so‘ng etimlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam bermaydi. Kasb-hunar ta’limi muassasasi pedagogik jamoasining vazifasi aspirantlarning nafaqat kasb-hunar egallashini, balki tolerant dunyoqarashga ega bo‘lgan mustaqil shaxs bo‘lib yetishishini ham hayotiy pozitsiyasining asosi sifatida ko‘rsatishdan iborat.

Kasb-hunar maktabining ta’lim muhitida bag‘rikenglik komponentlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi bosqichda bag‘rikenglikni shakllantirish muammosini nazariy rivojlantirish pedagogikada va barcha tegishli

fanlarda: falsafa, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va boshqalarda jadal olib borilmoqda. Bag‘rikenglik g‘oyasini demokratik qadriyatlar tizimining muhim elementi, shaxslararo bag‘rikenglik munosabatlarini tarbiyalashning asosiy yo‘nalishi sifatida e'tirof etish ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Ta’limda bag‘rikenglikka o‘rgatish zarurati va ahamiyati 1995-yil 16-noyabrdagi YUNESKO Bosh konferensiyasining 5.61-rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan BMTning bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida bayon etilgan.Unda insoniy munosabatlarning asosiy tushunchasi – bag‘rikenglik mohiyati ochib berilgan: “Murosasizlikning oldini olishning eng samarali vositasi bu ta’limdir. Bag‘rikenglik tarbiyasi ana shu huquqlarning amalga oshirilishini ta’minlash va boshqalarning huquqlarini himoya qilish istagini kuchaytirish maqsadida odamlarga ularning umumiy huquq va erkinliklari nimadan iboratligini o‘rgatishdan boshlanadi. Bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashga eng muhim vazifa sifatida qaralishi kerak...

U boshqalarga nisbatan qo‘rquv va begonalashish hissi tug‘diradigan ta'sirlarga qarshi turishga qaratilgan bo‘lishi kerak.Bu yoshlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarga asoslangan mulohazani rivojlantirishga yordam berishi kerak”.

Tolerantlik fenomeni murakkab ko‘rinadi va uni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish mumkin: falsafiy, madaniy, sotsiologik, etnologik, siyosatshunoslik, shuningdek, psixologik va pedagogik. Tolerantlik tushunchasi ko‘p asrlar davomida shakllangan va bu jarayon bugungi kunda ham rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda ushbu kontseptsiyaning ko‘plab talqinlari mavjud.

Falsafiy ensiklopediyada bag‘rikenglik lotincha «tolerantia» so‘zi - sabr-toqat, boshqa turga nisbatan bag‘rikenglik sifatida ta'riflanadi.

qarashlar, axloq, odatlar. S.I.ga ko‘ra bag‘rikenglik. Ozhegov - «kimgadir, biror narsaga nisbatan bag‘rikenglik munosabati” 1. Lotin etimologik lug‘atlarida (masalan, klassik Oksford lug‘atida), shuningdek, Evropa tillarining lug‘atlarida bag‘rikenglik bo‘yicha ikkita nuqtai nazar taqdim etilgan - «bag‘rikenglik» va «qo‘llab-quvvatlash» 2. Tolerantlik tushuntirishlari faol pozitsiyani ko‘rsatadi. shaxsning quyidagi jarayonlarda: o‘zining “men”ini va boshqasining pozitsiyasini bilish va tan olish; xulq-atvor taktikasini aniqlash va boshqalar bilan muloqot qilish; o‘zining «men» ni saqlab qolgan holda boshqalar bilan muloqot qilish; o‘zaro ta'sir natijalarini tahlil qilish qobiliyati. U yoki bu shaklning namoyon bo`lishi insonning yashash sharoitiga, u yashayotgan muhitga, olgan tarbiyasiga bog`liq. Bularning barchasi uning individualligiga, mafkuraviy ustuvorliklariga, xulq-atvor stereotiplariga va atrofidagi odamlar bilan muloqot qilish uslubiga ta'sir qiladi. Jamiyatlar, ularning mentaliteti, diniy yoki siyosiy imtiyozlari o‘rtasidagi barcha farqlarga qaramay, har bir kishi uchun ma'lum qadriyatlar mavjud. Har doim hamma

uchun umumiy “tejamkorlik” qadriyatlari - bag‘rikenglik, xayrixohlik, hamkorlik, insoniy munosabatlar mavjud.

A.Grzegorchikning kuzatishiga ko‘ra, tolerant xulq-atvorni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘zaro ta'sir turlari mavjud: yordam, yordam sohasida yordam.

rejalashtirish, hamkorlik qilish, haqiqatni etkazish, bu «muloqot orqali ... erkin, erkin o‘zaro ta'sirda»3. Muloqot insonning axloqiy etukligi va uning madaniy qiziqishi bilan belgilanadigan bag‘rikenglik xatti-harakatlarini amalga oshirish uchun qabul qilinadi.

Shaxsning boshqa sub'ektlar bilan muloqot qilish, o‘zaro munosabatda bo‘lish va hamkorlik qilish qobiliyati va istagi kommunikativ bag‘rikenglik bilan tavsiflanadi.

Kommunikativ bag‘rikenglik - bu shaxsning odamlarga bo‘lgan munosabatining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uning fikricha, qabul qilinmagan yoki qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan o‘zaro ta'sir sheriklarining ruhiy holatlari, fazilatlari va harakatlariga toqat qilish darajasini ko‘rsatadi.

«Bag‘rikenglik» tushunchasi, garchi ko‘p manbalarda «sabr» tushunchasi bilan aniqlangan bo‘lsa-da, yanada aniqroq faol yo‘nalishga ega.

Bag‘rikenglik - bu passiv emas, balki faol axloqiy pozitsiya va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, boshqa odamlar bilan ijobiy munosabatda bo‘lish yo‘lida bag‘rikenglikka psixologik tayyorlik.

Tolerantlik - bu shaxsning faol axloqiy sifati bo‘lib, u insonning atrofdagi odamlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish, bag‘rikenglik, o‘zaro yordam va ishonch ko‘rsatish qobiliyatini anglatadi. Ushbu talqin kundalik hayotning rivojlanishi uchun zarurdir.

Ong, buning natijasida inson odamlarning o‘zaro yordami va bag‘rikengligi munosabatlar evolyutsiyasining muhim omili ekanligini anglashi mumkin. Tolerantlikni ikki jihatdan ko‘rish mumkin. Birinchidan, bu tolerant ongning ma'lum bir falsafasini egallash, ikkinchidan, o‘zaro tushunish va muloqotga asoslangan voqelikka munosabat. Tolerantlikning teskarisini o‘jarlik, qarshilik, toqatsizlik deb atash mumkin. Fanda bu xususiyat «toqatsizlik» atamasi bilan belgilanadi. Shaxsning bag‘rikeng va toqatsiz shaxsga bo‘linishi o‘zboshimchalik bilan sodir bo‘ladi, lekin tolerantlik yoki toqat qilmaslik moyilligi barqaror shaxs xususiyatiga aylanishi mumkin. Hozirgi vaqtda bag‘rikenglikning yana bir turi mavjud: psevdotolerantlik, majburiy bag‘rikenglik, bu «o‘rganilgan va ko‘chirilgan, tushunilmagan va qadriyat sifatida qabul qilinmagan bag‘rikenglik turlarini» anglatadi.

O‘smirlarda tolerantlik muayyan shart-sharoitlar yaratilganda shakllanishi mumkin. Tolerantlik atrofimizdagi odamlarga qiziqish bilan munosabatda bo‘lishni, ularning «o‘zgaligini» his qilish istagini o‘z ichiga oladi, bu esa ongni boshqa odamlarning dunyoqarashi o‘zinikidan farqli bo‘lgani uchun ishlashga undaydi.

Tolerantlik - bu shaxsning faol axloqiy sifati. Bu insonning atrofidagi odamlarga nisbatan bag‘rikengligi va empatiyasiga asoslanadi, muloqotni, bag‘rikenglik namunalari to‘g‘risidagi bilimlarni, jamoadagi o‘zaro munosabatlarni bilishni (aks ettirishni) nazarda tutadi. Bag‘rikenglik sizga boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish orqali odamning tajribasini kengaytirishga imkon beradi, u moslashishni o‘z ichiga olmaydi, lekin umumiy tilni faol izlashda namoyon bo‘ladi.

Tolerantlik ko‘p komponentli hodisa bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi va rivojlanishining bir necha yo‘nalishlari mavjud. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarga ta'sir qiluvchi bag‘rikenglik tuzilishiga quyidagilar kiradi:

- bag‘rikenglik;
- hamdardlik;
- aloqa;
- bag‘rikenglik haqida bilim;
- aks ettirish

E.I. Kasyanovaning ta'kidlashicha, «bag‘rikenglikni na bilim, ko‘nikma, na ma'lum bir «aqliy» ma'lumotlar to‘plami bilan ta'minlash mumkin emas.

la'nat,» na tashqi sharoitlar bilan. Tolerant munosabatlar insonga berilmaydi, balki insonning insonparvarlik talqinida unga imkoniyat, sog‘lom va konstruktiv tamoyilni amalga oshirish potentsiali berilganidek beriladi, bu nafaqat ma'lum sharoitlarda, balki amalga oshiriladi. shuningdek, shaxsning o‘zi tegishli sa'y-harakatlari bilan.

Pedagogika nuqtai nazaridan ta’lim muassasasida etim bolalarning bilim, ko‘nikma va malakalar orqali shakllangan bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirish ehtimolini oshiradigan maksimal sharoitlarni yaratish zarur. Insonga bag‘rikenglik munosabatlari insonparvarlik talqinidagidek beriladi, ammo kasb-hunar maktabining ta'lim va tarbiya maydoniga katta rol berilishi kerak.

Tolerantlik yon berish, kamsitish yoki ijtimoiy adolatsizlikka sabr-toqat bilan munosabatda bo‘lish orqali emas, balki faol munosabat va boshqa shaxsning individualligini tan olish orqali yuzaga keladi.

Adabiyotlar royxati

1. Ozhegov S.I. Rus tilining lug‘ati / ed. N.Y. Shvedova; 20-nashr, stereotip. M., 1988. B. 436.

2. Bezyuleva G.V., Shelamova G.M. Pedagogikada tolerantlik. M., 2002. B. 6.

3. Grzegorchik A. Ijtimoiy motivlar va ta'sirlar (zo‘ravonlikni psixologik tahlil qilish masalasi bo‘yicha harakatlar) // Zo‘ravonlik qilmaslik etikasi: xalqaro materiallar. konf. M., 1991. B. 49.

4. Boyko V.V. Muloqotdagi his-tuyg‘ularning energiyasi: o‘zingizga va boshqalarga qarash. M., 1996. B. 200.

5. Bratchenko S.L. Shaxslararo muloqot va uning asosiy atributlari // Inson yuzi bilan psixologiya: postsovet psixologiyasida gumanistik nuqtai nazar. M., 1997. B. 201.

6. Kasyanova E.I. Axloqiy faoliyat muhim xususiyat sifatida // Moskva davlat universiteti axborotnomasi. Ser. Gumanitar fanlar. 2008. No 1. 58-bet.

YOSHLARDA HARBIY-VATANPARLIK TUY‘USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

S.K.ALIYEV
“PSIHOLOG-EKSPERT” MChj rahbari,
yuridik psixologiya, biznes psixologiyasi amaliyotchi
psixologi, sud-psixologik ekspertiza bo‘yicha ekspert,
O‘zbekiston Psixologlar assosiatsiatsiyasi psixologlar
faoliyatining etika va monitoring bo‘limi boshlig‘i

Barchamizga ma’lumki, vatanparvarlik tushunchasi– umuminsoniy va milliy qadriyatlardan biri sifatida insonning ajralmas ma’naviy va psixologik xususiyatiga aylanb ulgurdi. Vatanparvarlik qadriyatlar tizimida muhim o‘rin egallaydigan qadriyatdir. Vatanparvarlik –tug‘ma tuyg‘u emas. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflarda bu tuyg‘uni tarbiyalashga muhim o‘rin berilgan. “Qadriyat” tushunchasi eng umumiy tarzda inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan narsalar va hodisalarni ifoda etadi. Vatanparvarlik qadriyati jamiyat shakllanib, insoniyat yuzaga kelganidan beri uning ijtimoiy-ma’naviy hayotida alohida ahamiyat kasb etib kelgan.

Vatanparvarlik tuyg‘usi kishining o‘z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o‘tmishdagi va hozirgi qahramonligiga, tili va san’atiga bo‘lgan otashin muhabbatini ifodalaydi. Qadim zamonlardan buyon xalqning o‘z Vataniga muhabbati qo‘shiqlarda, ertaklarda va sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida tarannum etib kelinadi. Vatanparvarlikni eng umumiy ma’noda insonning tug‘ilib o‘sgan yurtiga, vataniga, yaqinlariga hamda vatani bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ijobiy jihatlarga muhabbat, tarixi va bugungi kuni uchun g‘urur, o‘z manfaatlarini vatan manfaatlari bilan bog‘liqlikda his qilish, zarur bo‘lganda, vatan hayoti va taqdirini o‘z hayotidan ustun qo‘yish kabilarga asoslangan psixologik tuyg‘u sifatida ta’riflash mumkin.

Bugungi tobora globallashib borayotgan zamonda insonning o‘zi tug‘ilib o‘sgan vataniga, xalqiga, uning tarixi, madaniyati va an’analariga munosabati yanada dolzarblik kasb etadi. Chunki globallashuv oqibatida madaniy va aksiologik unifikatsiya, vesternizatsiya va amerikalashuv kabi hodisalarning tez sur’atlar bilan

kengayib borishiga hamda “dunyo fuqarosi” g‘oyasiga o‘xshash g‘oyalarga qarshi tura olishi mumkin bo‘lgan qadriyatlardan biri bu vatanparvarlikdir.

Hozirgi davrda yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘usi va qadriyatining shakllanishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bular asosan globallashuv va axborotlashuvdir. Kompyuter va IT texnologiyalari, Internet kabi zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti natijasida virtual olamning yuzaga kelishi ham vatanparvarlik qadriyatining qisman transformatsiyasiga sabab bo‘ldi.

Yurtimiz, aniqrog‘i jamiyatning axborotlashib borayotgan bugungi sharoitda ijtimoiy hayotda ko‘pchilik uchun vatanparvarlik qadriyati uning aksiologik ongidan ba’zan tabiiy, ba’zan esa aksincha majburiy tarzda chiqarilib yuborilmoqda. Bu esa o‘z navbatida yoshlar ongida vatanga nisbatan iste’molchilik kayfiyatining shakllanishiga olib kelishi va bu bilan birga ularni ma’lum ma’noda o‘zining tarixiy ildizidan uzoqlashtiradi. Ushbu muammoning samarali yechimi o‘smirlar ongida vatanparvarlik qadriyatini shakllantirishning samarali yo‘llarini izlab topishdan iborat.

Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatini shakllantirish ijtimoiy va etnik psixologiyaning muhim muammosi bo‘lib, uning hal etilishi birdek, ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etadi. Davlatimizning kelajagi bugungi yoshlar pozitsiyasi, dunyoqarashi, qadriyatlari, vatanga muhabbati, faolligi kabi jihatlari bilan bog‘liq. Demak, ona yurtga munosib farzand bo‘lish uchun namunali axloq –odob bilan o‘rnak ko‘rsatish, Vatan uchun jon olib, jon berganlarni hamisha yodda tutish, el – yurt manfaati yo‘lida mahnatdan qochmsalik kabi fazilatlar yurtimizning dunyo hamjamiyatida qanday o‘rin egallashini belgilaydi.

Yoshlar ongida vatanparvarlik qadriyatini shakllantirish haqida gapirilganda, albatta, o‘smir yoshlarning psixologiyasida yangiliklarga ochiqlik, shaffoflik, ommaviy madaniyat ta’siriga moyillik, kundalik turmush tarzida komfort va zamonaviylikka intilish kabilarning ustunligini hisobga olish zarur.

Vatan tuyg‘usi muayyan tarixiy birlikni vujudga keltirgan va saqlab turadigan joyga nisbatan dunyoga kelgan tabiiy-ijtimoiy tuyg‘udir. Bu esa har qanday millatga mansub kishining tabiat bilan chambarchars bog‘langanligi va bashar farzandi ekanligini isbotlaydi» [1.100].

Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatini shakllantirishda muhim yondashuvlardan biri tizimli yondashuvdir. Bu nuqtai nazardan vatanparvarlik qadriyatini shakllantirish ularda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish bilan bir qatorda diniy, axloqiy, tarbiyaviy, ilmiy, estetik va boshqa qadriyatlarni shakllantirish bilan birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki sanab o‘tilgan qadriyatlar ham vatanparvarlik g‘oyalarini ifoda etadi.

Yoshlarda vatanparvarlik qadriyatini shakllantirish – bu tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, u o‘smirlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga

qaratilgan. Bir vaqtning o‘zida o‘smirlarda bunday qadriyatni shakllantirish vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lgan barkamol shaxsni shakllantirish va rivojlantirish ham hisoblanadi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishni ularda faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni ijtimoiy hayotida faol bo‘lish, o‘zining oilasi, mahalla, jamoasi hamda jamiyatga ma’lum foyda keltirish, jamiyatda amalga oshayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldor bo‘lish kabi xususiyatlar vatanparvarlik qadriyatini rivojlantiradi. Chunki o‘smirlarning o‘z egallab turgan o‘rnida – o‘qishdami, ishdami, mamlakatda amalga oshayotgan ijtimoiy jarayonlarning kuzatuvchisi bo‘lib emas, aksincha, faol sub’ekti sifatida faoliyat olib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalaga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va hukumatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Shavkat Mirziyoyev yoshlarni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri asosida yangicha yondashuvlarni joriy qilish orqali ishlarimizni yangicha bosqichga ko‘taramiz, deb ta’kidladi. O‘zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasini tuzish masalasi ham, yurtboshi mizning aytishicha, vatandan uzoqda, chet ellarda yashab mehnat qilayotgan va o‘qiyotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan [2].

Millatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlarning kengayishi va rivojlanib borishi shaxsning ongi, dunyoqarashi, ma’naviy dunyosini, so‘zsiz, boyitadi. Shu bilan birga, bunday munosabatlar shaxsning boshqa madaniyat bilan muloqotining natijasi sifatida uni tobora ta’sir etayotgan madaniyatning ichiga kirib borishini tezlashtiradi.

Har tomondan bo‘layotgan turli ta’sirlar va o‘zgacha madaniy muhit ichida milliy xususiyat va belgilarni saqlab qolish qiyin. Bugungi bozor iqtisodiyoti va kishilarning boshqa davlatlarga borib ishlashi, dam olishi, umuman, o‘zga yurtlarda yashashi oddiy holga aylanib borayotgan sharoitda shaxsning turli madaniyatlar ta’sirida shakllanib borishi tabiiy. Milliy xususiyatlarning ma’lum darajada kamayib borishi yoki saqlanib qolishi ko‘p jihatdan milliy ongning va unda vatanparvarlikning aks etishi darajasi bilan bog‘liq.

Shuni bilishimiz kerakki, vatanparvarlikning asosida millatchilik elementlari yotadi, deb aytish mumkin. Ma’lum meyorlargacha bo‘lgan millatchilik aslida ijobiy xususiyat. Chunki o‘z millatiga muhabbat, uni ko‘klarga ko‘tarish, uning uchun xizmat qilish va h.k. vatanparvarlikning belgisi. Lekin o‘z millatini ko‘klarga ko‘tarib, boshqa millatlarni kamsitish millatchilikning salbiy jihatlari namoyon bo‘lishiga, ba’zan milliy ekstremizmning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda Ukrainada, Boltiq bo‘yi mamlakatlarida bo‘layotgan siyosiy jarayonlar bunga misol bo‘la oladi.

Millatga bo‘lgan muhabbat tolerantlik bilan uyg‘unlashishi maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda hech qaysi mamlakatning aholisi bitta millatga mansub bo‘lgan kishilardan iborat emas. Jumladan, O‘zbekistonda yuzdan ortiq millatlar va elatlar hamda 15 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladilar. Xalqimizning ongida va psixologiyasida vatanparvarlik bilan birga tolerantlik qadriyati ham chuqur aks etgan. Bu holat mamlakatimizda millatchilik negizida hech qachon mojarolar yoki konfliktlar bo‘lmaganida ham ko‘rinadi.

Vatanparvarlik qadriyatini shakllantirish yana axloqiy, diniy va ma’naviy tarbiyaga ham asoslanadi. Chunki vatanparvarlik o‘zi axloqiylikning belgisi hisoblanadi. “Vatanparvarlik fuqarolarning milliy o‘zligini anglashining elementi bo‘lib, u o‘z Vataniga, uning tarixi, madaniyati, an’analari va turmush tarziga muhabbat, g‘urur va unga sodiqlik, uni himoya qilishga qaratilgan axloqiy burch tuyg‘ulari orqali hamda boshqa xalqlarning o‘ziga xosligini va o‘zgacha qadriyatligini tan olish, ularning o‘zgachalik huquqini va o‘zaro konfrontatsiyasiz yashash huquqini anglash orqali ifoda etadi” [3. 314].

Ko‘rinib turibdiki, vatanparvarlik milliy axloqiy qadriyatlarning elementi sifatida boshqa millatlar va ularning madaniyatiga nisbatan tolerantlik va baynalminallik bilan yonma-yon borishi zarur ekan.

Vatanparvarlik tarixiy taraqqiyotning murakkab davrlarida, jumladan, urush yillarida, qiyinchilik davrlarida yaratuvchilik potensiali bo‘lib xizmat qiladi, jamiyat a’zolarini birlashtiradi. Vatanparvarlik “... shunday ma’naviy kuchki, u jamiyat birligini: til, milliy madaniyat, tarixiy an’analar tuyg‘usi va vorisiylik, dinning milliy jihatlarini, hududlarning butunligi va daxlsizligini qo‘llab-quvvatlaydigan potensial va omillarni harakatga keltiradi. Shunga ko‘ra vatanparvarlikning susayishi – jamiyat turg‘unligining ishonchli belgisi, uning sun’iy buzilishi esa xalqning yo‘qolib ketishiga olib keluvchi yo‘ldir” [3.114].

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘smirlarda vatanparvarlik qadriyatini shakllantirish faqat tarbiyaviy ahamiyatgagina emas, balki jamiyatimiz kelajak taraqqiyotiga molik bo‘lgan strategik ahamiyatga ega muammolardan biridir. Bu muammoni to‘g‘ri hal etish mamlakatimiz progressiv taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (aksiologiya).- T.: Faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004.

2. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. // Xalq so‘zi.-2017/- 22 dekabr.

3. Kondratenko Ye.V. Grajdanskoye vospitaniye v sovremennoy gimnazii: lichnostno-oriyentirovanniy podxod.- Yoshkar-Ola: MarGU, 2009.

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. T-2020.;

5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch T-2008.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA MA'NAVIY-SIYOSIY VA PSIXOLOGIK FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

I.O.XAYDAROV
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

Hozirgi kunda yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlashda, vatanparvarlik tarbiyasining mazmuniy va tashkiliy – uslubiy tomonlaridan to'laroq foydalanishni talab qiladi.

Agar biz yoshlarni o'quv faoliyati davomida harbiy soha hayoti bilan yaqindan tanishtirmasak, tinchlikni mustaxkamlash, mamlakat mudofa qudratini kuchaytirish kabi oliy maqsaddari bilan ruhlantirmasak, oddiy tadbirlar va ma'ruzalar orqali tushuntirish va to'ldirish samara bermasligi mumkin.

Vatatanparvarlik faqatgina keng doirada fikr yuritadigan yetuk vatanparvar fuqaro bo'lib yetishishi mumkin.

Vatanparvarlik bu qo'lida qurol bilan o'z Vatani himoyasiga tayyor bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda ta'lim maskanlari pedagogik jamoasining faoliyati beqiyosligini ko'rsatishdir.

O'quv yurtlarida harbiy vatanparvarlik tarbiyasi quyidagi maqsadlarda o'tkazilishi lozim:

- Halqiga sadoqat, Vatan tarixiga va an'analariga chuqur hurmatda bo'lishni shakllantirish;
- Prezident Farmonlari, Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi hukumati qonun va qarorlarini so'zsiz bajarish lozimligi ruhida tarbiyalash;
- O'zbekiston xalqlari jangovar vatanparvarlik an'analarini targ'ibot qilish, yoshlarda harbiy xizmatga va armiyaga muhabbat, yuksak ma'naviy - jangovar xislatlar, harbiy Qasamyod va harbiy Nizomlarni bajarishda shaxsiy javobgarlik hamda jasurlik, intizomlilik, zukkolik, o'z Vatani himoyasiga doimo tayyor bo'lishni tarbiyalash.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy mazmuni:

- Vatanini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitusion burchini tushuntirish;
- O'zbekiston Respublika mudofaasini kelgusida kuchaytirish masalalari bo'yicha xukumat qarorlari bilan tanishish;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan hal qilinadigan masalalar va ularning vazifasi va xususiyatlarini tushuntirish;
- O'zbekiston Respublikasi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat

to‘g‘risi»gi qonuni, harbiy Qasamyod va harbiy Nizomlarning asosiy talablarini o‘rganish va o‘zlashtirish;

- yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashning maqsad va vazifalarini tushuntirish;

- ajdodlar merosi, buyuk va jasur ota - bobolarimizning jangovar an’ana udumlarini targ‘ibot qilish.

Hozirgi paytda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va jarayoni Respublikamizning o‘quv muassasa ta’lim tizimi bilan yangilanishi, mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi jadallashuvi, Vatan himoyasidagi insoniy omillar o‘rnining o‘sib borishi va jangovar mehnat fonidagi keskin o‘zgarishlari bilan yuzaga kelgan an’analar bilan boyishi kerak.

Bu borada ma’naviy-siyosiy va psixologik fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan yo‘nalishlar birinchi o‘ringa chiqishi lozim.

Ma’naviy-siyosiy fazilatlar.

Har qanday tajovuzkorliklarni qaytara oladigan, Vatanimiz harbiy qudrati har bir odam mehnati bilan yaratilishi va o‘zining kelgusi rivojlanishi uchun chuqur bilimlarni talab qilishi,

ijodiy faoliyat, yuqori ish qobiliyatligi, tashkilotchilik va intizomlilikka yordam berishiga o‘quvchining ishonchi;

Xalqning jangovar va mehnat an’analarini emotsional qabul qilish;

O‘quvchilarda fuqarolik va harbiy burchning bajarilishini tartibga soladigan umumlashtirilgan Vatan himoyachisi namunasining mavjudligi;

Ijtimoiy xissiyotlarning mavjudligi (burch, vatanparvarlik, dushmanga nafrat, Vatan himoyasi uchun shaxsiy mas’uliyat, yuqori xushyorlik);

Yoshlarga «Vatanparvar», «Vatan», «Harbiy burch», «Mardlik», „Qahramonlik», «Jasurlik», «Botirlik» va boshqa tushuncha va mezonlarni chuqur o‘zlashtirishga ko‘maklashish bilan amalga oshiriladi.

Psixologik xislatlar.

Irodaviy (qat’iylik, botirlik, mardlik, maqsad sari erishuvchanlik, turli xavf-xatarga qarshi bormoq va jonini fido qilmoq), emotsional (Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat va b.), ijtimoiy – psixologik (jamoatchilik, birodarlik, o‘zaro yordam, o‘zaro bir – birini qutqarish) xislatlarini rivojlantirish;

Yadro urushi xususiyati, yangi qurol kuchi, zararlantiruvchi omillardan himoyalanishning turli vositalari samaradorligini bilish, real jangovar vaziyatda duch kelishi mumkin bo‘lgan sinovlarni anglab yetish;

Harbiy faoliyat va jangovar jamoa shart-sharoitlariga moslashish;

O‘zini tutishni nazorat qila olish, har xil salbiy his – tuyg‘ularga yo‘l qo‘ymaslik (qo‘rquv, o‘zini yo‘qotib qo‘yish, taxlika) va boshqa jihatlarini kuchaytirish (Vatanga muhabbat, burch, dushmanga nafrat) qobiliyati.

Xulosa qilib aytganda yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash – inson butun

hayoti davomida amalga oshiriladigan o‘zoq jarayondir. Vatanparvarlik tarbiyasi oiladan boshlanadi va boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quv yurtida davom ettirilishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining D-7, D-16, D-17 ko‘rsatmalari. 2003y.Nasriddinov CH.R. Harbiy psixologiY. Toshkent. «Fan» nashriyoti 2004.

2. Sa’dulla Otamurodov, Sarvar Otamurodov. O‘zbekistonda ma’naviy – ruhiy tiklanish. Toshkent. «Yangi asr avlodi» nashriyoti 2003.

3. Harbiy - Vatanparvarlik tarbiyasi asoslari. «Ma’rifat» nashriyoti 1988.

4. E.Umarov, M.Abdullayev. Ma’naviyat asoslari. “Sharq” nashriyoti 2005y.

VATAN ULUG‘DIR UNI ASRASH MUQADDAS BURCH.

F.A.CHORIYEV
Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy
tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi
dotsenti

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgat qurolli mojoralar, ommaviy tartibbuzarliklar, axborot hurujlari va boshqa ko‘plab taxdidlar kuch tuzilmalarining barcha toifadagi harbiy xizmatchi va xodimlaridan yuksak vatanparvarlikni va qasamyodiga sodiqlikni talab etmoqda.

Vatanparvarlik - bu kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir.

Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham ko‘p uchraydi. Masalan, Abdulla Avloniy, u qatag‘on yillari paytida yashagan bo‘lsa ham so‘z erkinligi unda juda rivojlangan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, u o‘zining bolalarni o‘qitish kitoblari bilan Vatanimizda tanilgan. Uning bolalarga Chet tilini o‘rgatish, Savod chiqarish va boshqa o‘qitishga oid qilgan ishlari taqsimga loyiq.

Birinchi prezidentimizning «YUKSAK MA'NAVIYAT YENGILMAS KUCH asarida «ham ajdodlarimiz oz ona yurtlari uchun qoshgan hissalari haqida juda kop malumotlar keltirilgan masalan Chingizxon zulmiga qarshiliklar Amir Temur jasorati Jaloldin Manguberdi va boshqa buyuk sarkardalar haqida malumotlar berilgan .

Bugun xavfsiz dunyo sari intilayotgan XXI asrda xavfsizlik ham, taraqqiyot ham o‘z aniq kafolatiga ega emasligiga yana bir karra amin bo‘lishimiz mumkin. Zotan, xavfsizlik va taraqqiyot o‘zgalar tominidan taqdim etiladigan imkoniyat emas. Shunday ekan, tahlikali dunyo siyosatida O‘zbekiston o‘z pozitsiyasini qanday belgilaydi? Jahon va milliy maydonda davlatimizning yaqin va uzoq kelajakka qaratilgan insonparvarlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi qanday reja va strategiyalari mavjud? Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirish zarur.

Vatanimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni, uning tarixini, xalqning boy merosini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tub mohiyatini, respublikamiz imkoniyatlarini chuqur anglagan holda, yuksak istiqbolga erishish yo‘lida fidoyilik namunalari ko‘rsatmagan kishi haqiqiy vatanparvar bo‘lmaydi. Tarixiy madaniy meros insonda vatanparvarlik, milliy tuyg‘usini uyg‘otadi. Ajdodlarga munosib avlod bo‘lishga intilish hissini paydo qiladi. Tarixiy tafakkur orqali idrok qilingan madaniy meros o‘zida katta ma'naviy qudratni, boylikni, iste'dodni namoyon qiladi.

Milliy g‘urur tuyg‘ularini shakllantirish, xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan fidoiylarni yetishtirish zamonning talabidir.

Vatan mudofaasida, armiya tashkiliy ishlarida albatta Amir Temurning jangovor taktikasi asrlar osha o‘z kuchini yoqotgan emas.Ayniqsa, harbiy xizmatchilar va yosh avlodni ma'naviy -axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur va temuriylar davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarning faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ular qoldirgan ma'naviy meros necha avlodlarni ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib, yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelmoqda. Hozirda Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimiz ajdodlarimizning mana shunday boy ma'naviy merosidan oziqlanishsa, o‘zlarining ma'naviy, axloqiy va intellektual sifatlarini shakllantirishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Buyuk davlatga asos solgan Amir Temurning sarkardalik san'atini, lashkarboshilarni qanday tanlagani va rag‘batlantirganini o‘rganish, muhim masaladir. Chunki, ulug‘ amirning «Davlat-u saltanat uch narsa - mulk, xazina va lashkar bilan tikdir», deb aytgan hikmatli so‘zlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sohibqironni ta'kidlashicha: «Cherik tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan - yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan -qilichni o‘ynata olishiga, uchinchidan aql-zakovati-yu, kamolotiga

e'tibor berdim. Shu uch sifat jamuljam bo‘lgandagina navkarlik xizmatiga oldim. Negaki, kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo‘ladi, qilich o‘ynata oladigan kishi raqibini mag‘lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog‘i mumkin».

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz: «Askarlari botir el qudratli bo‘lur», deganlarida aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan edilar. Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug lashkarboshilarimiz o‘gitlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak, deb qayta-qayta ta'kidlab kelaman. Bu o‘lmas va bebaho meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimizga cheksiz g‘urur baxsh etadi, muqaddas tuprog‘imizga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytiradi».

O‘zbek xalqining milliy-ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarida harbiy vatanparvarlik yurt tarixi, taqdiriga chuqur hurmat bilan qarash, Vatan himoyasi yo‘lida jasorat namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan shaxslarga xos fazilat sifatida qadrlanadi. Bu tuyg‘u «ishonch», «sadoqat» kabi ma'naviy va axloqiy tushunchalar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin olganligi uchun ham davrlar mobaynida o‘z mavqeini yo‘qotmagan.

Vatanparvarlik o‘zida birlashtirish, yo‘naltirish, jipslashtirish, kabi axloqiy sifatlarni mujassam etgani uchun o‘zbek xalqi ma'naviy merosiga taalluqli barcha manbalarda ulug‘lanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, teran fikrli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq.

Vatanimiz oldida turgan eng dolzarb vazifamiz bu mustaqillikni asrash, xalqimiz tinchligini, osoyishtaligini saqlashdir. Bu vazifa esa kuch tuzilmalari harbiy xizmatchilari va xodimlar yelkasidagi muqaddas burch hisoblanadi. O‘tmishda Sharq mutafakkirlari o‘z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, ma'naviyatimiz sarchashmasi bo‘lgan ta'lim-tarbiya, shaxs kamoloti haqida boy tarixiy tajribani meros qilib qoldirgan.

Ushbu mavzuda «Sharqiy» harbiy maktablarda o‘qitish jihatlarini hisobga olgan holda, Shimoliy Atlantika blokiga (NATO) a’zo mamlakatlarning harbiy tarbiya muassasalari o‘rtasida ofitser kadrlarni tayyorlash va kasbiy javobgarlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish mumkin. Ushbu mamlakatlarni tanlashning asosiy sababi shundaki, asosan yaqin xorij mamlakatlarida (Belorusiya, Qozog‘iston, Ukraina va boshqalar.), shu jumladan ilgari SSSR tarkibida bo‘lganlar, Qurolli kuchlar uchun ofitserlarni tayyorlash tizimi sovet harbiy pedagogikasi tamoyillariga asoslangan yedi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi o‘n yilliklar davomida ushbu mamlakatlarda ofitserlarni tayyorlashda keskin o‘zgarishlar bo‘lmagan va u hozirda Rossiya Federatsiyasida mavjud bo‘lgan o‘quv tizimiga juda

o‘xshash. Shuning uchun xorijiy mamlakatlarning o‘qitilgan harbiy tarbiya muassasalari o‘rtasida kasbiy mas’uliyatni shakllantirish xususiyatlari katta qiziqish uyg‘otadi deb taxmin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiya” Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) – soni, 2018 yil 2 mart.

2. Mirziyoyev SH.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir // www.prezident.uz.

3. Sistema vospitaniya VS SSHA: sovremenniye tendensii eye razvitiya // Informatsionno-pedagogicheskiy sbornik. - M.: VSSPLI, 1993. - № 4 (7). S.88-96.

4. *Filkov S.* Podgotovka ofitserov zapasa v stranax Zapadnoy Evropi // Zarubejnoye voyennoye obozreniye. -1996. - № 6.

MILLIY ALLOMARIMIZ ASARLARIDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MUAMMO SIFATIDA YORITILISHI.

E.N.SIRLIYEV
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi dotsenti

Muqaddas zaminimizda ulg‘ayib, voyaga yetgan buyuk ajdodlarimiz Vatan erki va ozodligi yo‘lida mislsiz qahramonliklari bilan dunyo afkor ommasini hanuz lol qoldiryapti. Shuningdek, ona Vatanidan olis o‘lkalarda armon bilan dunyodan ko‘z yumgan allomalarimiz ozmunchami? Bunga Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Pahlovon Mahmud, Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Xoja Ahror Valiy, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Zokirjon Furqat singari buyuk bobokalonlarimiz qismati misoldir. Vatanni sevish, vatanparvar bo‘lish, uni ardoqlab, sog‘inib yashash inson tabiatiga xos hislardir.

Bugungi kunda harbiylashtirilgan oliy ta’lim muassasalari kursantlarini vatanparvarlik tuyg‘usi bilan tarbiyalash, ularni Vatan ma’nosini teran anglab yetishga o‘rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Odob-axloq, hayo-ibo, or-nomus va diyonat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz ma’naviyatining ajralmas qismiga aylangan. Aslini olganda, vatanparvarlik tuyg‘usi bizga begona emas. Muqaddas zaminimiz Alp Er To‘nga[4][4; 6-b], To‘maris[5] [5; 6-b], Shiroq[6] [6; 4-9-b], Jaloliddin Manguberdi[7] [7; 6-

b], Amir Temurdek[8] [8; 58-b] ko‘plab buyuk vatanparvar farzandlari bilan tarix sahnida o‘z o‘rnini topgani bunga bir misoldir.

Vatanparvarlik to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin Vatan tushinchasini aniqroq his qilish va uni dildan anglash lozim bo‘ladi.

Vatan (arabcha “Vatan” – ona yurt) deganda – kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti va o‘z mamlakati tushiniladi. Vatan eng avalo, ob’ektiv muhit va borliqning ona zamin bilan bog‘liq bo‘lganni uchun kishi ongida aniq tasvir, qiyofa, siymolar tarzida shaklanadi. Vatanparvarlik aniq muhitda mavjud ma’naviy-ahloqiy qadiryatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi bolaga ona suti va allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg‘u bir umr unitilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tuyg‘usi hamma zamonlarda ham ulug‘langan.[9] [9; 52-b]

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.[10] [10; 65-b]

Vatanni himoya qilish uni ko‘z qora-chig‘iday asrab-avaylash hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi halqimizning azaliy etnik qadiryati bo‘lib, milliy allomalarimiz asarlarida ham diniy va dunyoviy jihatdan talqin qilingan. Jumladan, Avestoda shaxs kamolati, ma’naviy axloqiy yetukligi hamda vatanparvarligi to‘g‘risida juda ko‘p ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Avesto etikasi O‘rta Osiy halqlari yuksak ma’naviy qadiryati bo‘lib, unda inson ahloqining quyida keltirilgan qator asosiy tamoyilllari qo‘nuniylashtirilgan: vatanga sadoqatni ifodalovchi ona yerga muhabbat; insonning ma’naviy-ahloqiy burchi sifatida yer, suv, olov va havoni asrab-avaylash; mehnatni ahloq va go‘zallik manbai sifatida tasavvur qilish; ayollar va taqvodor hayotning davomchisi bo‘lgan farzandlarga nisbatan o‘ziga xos munosabat; nafaqat moddiy dunyo balki, ma’naviy-ahloqning sofligini asrash.

Ahloqiy-estetik g‘oyalar Avestoda dualistik shaklda Ezgulikning Yovuzlikka, Go‘zallikning Xuniklikka qarshi kurashishida namoyon bo‘ladi.ular ajralmas birlikda

---

[5] Mirkarim Osim. To‘maris./ Tarixiy qissalar. – T.: Yangi asr avlodi. 2014., 140 b.
[6] Ergashev F. Qalqon qo‘shig‘i. – T.: 2019., 212 b.
[7] Shahodat Ulug‘. Jayxun epkinlari yoxud Jaloliddin Manguberdi qissasi. – T.: Yangi asr avlodi. 2014., 356 b.
[8] Ahmedov B. Chingizxon yasog‘i va Temur tuziklari. – T.: 2020., 192 b.
[9] Abdullayeva SH.A. Pedagogika. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. – 456 b.
[10] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “V” – harfi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2021. – 395 b.

mavjuddir. Yuksak ahloqqa tayangan holda amalga oshirilgan xatti-harakatlar natijasida ajoyib yutuqlarga erishiladi, yaxshi amallar va maqsadlar esa insonning ma'naviy-ahloqiy, kasbiy-madaniy yuksakligini namoyon etish bilan birgalikda insonning sadoqatlilik hamda vatanparvarlik fazilatini ifodalaydi.[11] [11; 82-b]

Ajdodlarimizning Avestodan keyingi din sifatida qabul qilgan Islom dini ta'limotida ham odamzot o'zi isteqomat qilayotgan hududini, oila-ahlini, yoru-birodarlari hamda ojizlarni himoya qilishi eng ulug' amallardan biri hisoblangan. Vatan himoyasi uchun harbiylik xizmatida turish ham Islom dinda ulkan savob amal sanaladi. Imom Muslim rivoyatida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.): "Biri kecha-kunduz "ribot" (ya'ni dushman qarshisida turish), bir oy tutilgan nafl ro'za va o'qilgan tungi namozdan yaxshidur"[12] [12; 111-b], deya – ta'kidlagan.

Bundan tashqari Islom dinining muqqaddas kitobi hisoblangan Qur'oniy Karimda insonning hulq-atvori, fazilatlari, kasbi-korini ardoqlash, vatanparvarligi kabi sifatlarini takomillashtirda avvalo ilmli bo'lishi kerakligi to'g'risida ham bir qator oyatlarda keltirib o'tilgan. Jumladan, "Mujodala" surasining 11-oyatida Ey mo'minlar, qachon sizlarga (majlis-suhbatlarda do'st-birodarlaringiz kelib: "Bizlarga ham shu majlisdan) joy beringlar", deyilsa, darhol joy beringlar, Alloh sizlarga ham (O'z jannatidan joy berur. Va Qachon: "(O'rinlaringizdan) turinglar", deyilsa, darhol turinglar, Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja-martabalarga ko'tarur. Alloh qilayotgan amallaringizdan Xabardordir.

Izoh: Bu oyati karimadi mo'minlarga majlis odoblari ta'lim berildi va ularni bog'rikenglikka, ya'ni, majlislariga kelib qo'shilmoqni istagan do'stlariga yonlaridan joy berishga va agar hamma joylar band bo'lsa, keyin kelganlirga o'z o'rinlarini bo'shatib berishga da'vat etildi. Yana bu oyatda ilmning fazilati alohida ta'kidlab o'tilganki, bu borada Payg'ambar alayhissalom tomonlaridin ham ko'pdin-ko'p hadislar rivoyat qilngan bo'lib, ulardan biri mana bu hadisi sharifdir: "Olimning obid ustidagi fazilati xuddi to'lin oyning boshqa yulduzlar ustidagi fazilati kabidir". Hukamolardan birining quyidagi so'zlari ham ibratlidir: "Men ilm topa olmagan odam nima topganini, ilm topgan odam esa nima yo'qotganini bilsam edi".[13] [13; 518-b]

Shaxs vatanparvarligini takomillashtirish uchun ilm va tarbiyaning o'rni naqadar muhimligi hamda asosiy mezon ekanligi Hadisi-Shaiflarda ham keltirib o'tilgan:

Muhammad (s.a.v) – "Ilm egallang! – derdi izdoshlariga. – Ilm – sahroda do'st, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, bahtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga

[11] Mahmudova G.T., Arifxonova S.M. Zardo'shtiylik falsafasi: ilmiy-metodik qo'llanma. – T., 2014. – 148 b.

[12] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome' as—Sahih (1-jild). Arabchadan Zokirjon Ismoil tarjimasi. – T.: Qomuslar bosh tahririyati., 1991. – 403 b.

[13] Alovuddin Mansur. Quroniy karim. / O'zbekcha izohli tarjima Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – 2001., 634 b.

qarshi kurashda – quroldir" [14; 43-b]; Ilmu hunarni Xitoydan borib bo‘lsa ham o‘rganingiz[14; 60-b]; Olim bo‘l (ilm beruvchi bo‘l), yoki ilm o‘rganuvchi bo‘l, yoki tinglovchi bo‘l, yoki ilmga va ilm ahliga muhabbatli bo‘l. Beshinchisi bo‘lma halok bo‘lasan [14; 61-b]; Har bir musulmonga talabi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham. Bir soat ilm o‘rganish kechasi bilan namoz o‘qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o‘rganish uch oy ro‘za tutishdan yaxshiroqdir[14; 93-b]; Ilm – ibodatdan afzal va u taqvo dinning ustunidir. Ilm ikki hildir, biri qalbda bo‘ladi –uni ilmi nofe(foydali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo‘ladi – u odam bolasiga yuborgan Alloh taolloning hujjatidir[14; 95-b]; Kimki halol risq istab mehnat qilib, charchab uxlasa, shu kechani mag‘firat qilingan holda o‘tkazibti.[14] [11; 111-b]

Yuqorida keltirilgan Qur’oniy Karimdagi oyatlar hamda Hadisu-Shariflarda keltirilgan hadislar izohi orqali shuni alohida ta’kidlashimiz mumkinki, bizning halqimiz diniy va dunyoviy qarashlari, ongi va etnopsixologik xususiyatlarida ham vatanni sevish va ardoqlash kabi tushinchalar qon-qoniga singib ketgan deyishimizga zamin yaratadi. So‘zimiz isboti o‘laroq, allomalarimiz tomonidan yozilgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asarlarda vatanparvarlik tuyg‘usi tushinchasi to‘g‘risida qisqacha to‘htalib o‘tsak:

Buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrad”(“Odob-axloq haqida yagona kitob”) asari hayotimizda juda zarur bo‘ladigan odob-axloqqa doir hadislar to‘plamidir. “Al-Adab al-mufrad” kitobining nomidan bilinib turibdiki bu kitobning o‘zi odob-axloq, ta’lim-tarbiya haqidadir. Asarda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Asarda keltirilgan hadislarda insonning kamolga yetishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, sahiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, hurmat, faqir-bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘st, tinch-totuv bo‘lish va boshqalardan iboratdir. Bundan tashqari, insonning o‘zini qanday bo‘lmasin yomon illatlardan tiyish, har qanday yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur’oni karim ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi.[15] [15; 25-b]

O‘rta osiyoning bir necha ming yillik tarixi mobaynida ajdodlar tomonidan vatanparvarlik, fidoyilik, xalqparvarlik fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirishga alohida e’tibor berib kelingan. Bunga qadimgi yozma yodgorliklar, bitiktoshlar, halq

[14] Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. – T., Kamalak 1991. 304 bet.

[15] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adabu-l-mufrad. Bayrut. Doru-l-bashoiri-l-islomiya, 1989. 442-hadis. B.158

og‘haki ijodi namunalari, dostonlar, rivoyatlar hamda buyuk qomusiy allomalar va sarkardalar tomonidan yozilgan asarlarda aks ettirilgan obrazlar fikrimizning dalilidir.

Shunday buyuk sarkardalardan biri Sohibqiron Amir Temur bo‘lib, o‘z qo‘shinida xizma qilayotgan har bir askardan Vatanga sadoqat talabini yuqori qo‘ygan. Chunonchi, “Qaysi bir askar tuz haqqi va vafodorlikni unitib, xizmat vaqtida o‘z egasidan yuz o‘girib, mening oldimga kelgan bo‘lsa, unday odamni o‘zimga eng yomon dushman deb bildim. O‘zimcha, “Bular o‘z sohibiga vafo qilmagach, menga qilarmidi?” deb o‘yladim”[16] [16; 77-80-b] deya bildirgan fikri barcha zamonlar uchun tarixiy saboq vazifasini o‘taydi.

Shu bilan birga, Amir Temur “Temur tuziklari”da tarbiya bobida ibratli hikmatlar va hayotiy xulosalar keltirgan. Harbiy xizmatchilar qalbida Vatan oldidagi burchga sodiqlik, do‘st va dushmanni anglash, matonat, axloqiy poklik sigari xislatlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Tabiiyki, Amir Temur siymosi ham harbiy xizmatchilar tarbiyasida vatanparvarlik , do‘stlik, yurtga sadoqatlik timsoli sifatida ko‘z o‘ngimizda har qachon gavdalanib turadi. Xususan, “Askarni eng quyi martabadan oliy martabagacha tarbiyalab ko‘tarish tuziki”da quyidagilarni bayon qilgan: “Amr qildimki, bahodirlardan kimki, qilich chopishda o‘zini ko‘rsatsa, birinchi marotaba bo‘lsa – o‘nboshi, ikkinchi marta botirlik qilsa – yuzboshi, uchinchi martasida esa mingboshi qilib tayinlansinlar. [16; 79-b]

Yana shunday buyuk sarkardalardan biri Zaxiriddin Muhammad Boburdir. Uning bebaho adabiy, ilmiy-nazariy asarlari qatoridan joy olgan “Boburnoma” asaridagi ta’lim va tarbiyaga oid tomonlarini bugungi avlodga yetkazish o‘tmishdagi qadiryatlarimizni tiklash, undan bahramand bo‘lish, kursantlarda yuksak vatanparvarlik ruhiyatini tarbiyalash kabi dolzarb masalalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Boburning muhoraba maydonidagi g‘alabalarini ta’minlagan omillardan biri bo‘lib, uning xarbiy xizmatchilardan kerakli joyda foydalana olish qobiliyatidir. Aynan shu mahorat minglab lashakarlarni o‘lim balosidan asrashda, urushni o‘z foydasiga hal qilishda, qolaversa, atrofdagi kishilar ruhiyati va shaxsiyatini yanada yaxshiroq anglashida va eng asosiysisi lashkarlarning kasbiy tayyorgarligi yuzasidan qilingan amaliy ishlar o‘z aksini topgan.[17] [17; 79-b]

Forobiyning fikricha, mavjudotning eng buyuk va eng yetuk mahsuli - bu odamdir. Inson o‘zining ongi, aqli, sezish qobiliyatiga egadir. Inson uz aqli yordamida o‘zini o‘rab olgan mavjudot mohiyatini tushunadi. Forobiyning shaxsni tarbiyalash borasidagi pedagogik ta’limotlari o‘z davri uchun, ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo‘lib, vatanparvarlik hamda insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Forobiy vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini takomillashtirishda

[16] Amir Temur. Temur tuziklari. /Tahrir hay’ati: B.Abduhalimov va boshq. Forscha matndan A.Sog‘uniy, H.Karomatov tarj. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. 289 b.

[17] Zaxriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” .

pedagogik va psixologik ta'lim-tarbiyanig o'rni benihoya ekanligini o'z asarlarida ta'kidalab o'tgan. Bu esa bugungi zamonaviy pedagogikaning metadologik asoslarini yaratishga zamin yaratadi. Uning fikriga ko'ra, insonni tarbiyalash ikki usul bilan olib borilishi mumkin, bular: ixtiyoriy va majburiy. Agar tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda aqliy va axloqiy hislatlarni egallashga intilmasa uni tarbiyachi bu fazilatlarga o'rgatishi kerak bo'ladi. Farobiy inson tafakkuri va nutqining rivojlanishini ta'lim va tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon deb xisoblaydi. Shunga ko'ra, u o'z asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zarurligini aytadi. U insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki tomoniga: aql va axloqiga e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim va tarbiya insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham etuk, mukammal qilib etishtirishga qaratilishi lozim.

Farobiy ta'lim va tarbiya berishni bir-biridan farqlaydi. Ta'lim so'z bilan, bir narsani uqtirish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar nazariy bilimlarni ta'lim yordamida egallaydilar. Tarbiya esa amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi, yoshlarga ish-xarakat, odob orqali singdiriladi.

Farobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi bo'lib ta'rif bergan olim hisoblanadi: Ta'lim - degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; Tarbiya - nazariy fazilatlarni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. [17; 79-b]

Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan. Buyuk pedagog olim tarbiyaning maqsadi, vazifalari, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari insonparvarlik asosida qurilgan.

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh hususiyatlarini hisobga olish zarurligini uqtirdi. U o'qitish jarayonida bolalarga tushunarli bo'lmagan so'zlarni quruq yodlashga qurilgan ta'limni qattiq qoralaydi. U "Tushunish yodlashdan afzaldir, ko'z atishning ko'pligi ko'rilgan narsalarni eslab qolish qobiliyatini yaratadi" deb yozadi. Beruniyning pedagogik g'oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. Tarbiyashunos olim o'quvchiga murojaat qilib deydi: "Biliming shunday bo'lishi kerakki, u har qanday sharoitda ham o'zingda qolsin". U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish muhitni alohida ta'kidlaydi. Bilim olishda tushunib o'rganish, jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Chunki, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqiylikdir. Olimning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning uzaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy ham axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda ta'rif beradi. Ya'ni ahloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi deb ta'lim

beradi. Insonning axloqiy kamolga etishi muammosi butun ta'lim-tarbiya tizimida markaziy masala bo'lib kelgan. Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Inson ham ichki, ham tashqi tomondan guzal bo'lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi. U ozodalik va orastalikni oliyjanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta'kidlaydi. [17; 79-b]

Buyuk tabib, mutafakkir Ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma'rifatni egallashga chaqiradi. Chunki, ilm-fan insonga xizmat qilishi lozimligi, ma'rifatli kishi jasur, faqat haqiqatni bilishi uchun bilimga ega bo'lishi kerakligini, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiyligini bilish uchun mantiqni ham bilishi zarurligini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning ta'lim usullari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy tajribaga tayanish kerak degan g'oya yotadi. Ibn Sino ta'limotida bilishda qaysi usullardan foydalanilmasin og'zakimi, tushuntirishmi, suhbatmi, talabada haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan. Ibn Sino insonning kamolga etishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. U axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Insondagi ijobiy axloqiy sifatlarga: saxiylik, kamtarlik, aqllilik, qat'iyatlilik va boshqalarni kiritadi. Insondagi salbiy xislatlar sifatida: nodonlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi deb ta'lim berdi. Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga etadi. [17; 79-b]

O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar faylasuf, davlat arbobi Alisher Navoiy ta'lim tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor bergan. U inson tafakkuri, aqli, bilimini yuksak qadrlagan. A. Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani "Hayot chirog'i" deb ta'kidlaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Alisher Navoiy bolalarga kichik yoshidanoq bilim ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachi muallimga berish lozimligini aytadi. Bolalar ilk yoshligidanoq fanlarni, xunarni egallab olmoqligi zarurligini ta'kidladi.

U ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berarkan, tarbiya jarayonining vositalarini, talablarini ko'rsatadi u ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. U o'qituvchi haqida gapirar ekan, muallim o'z shogirdlarini ham, o'zi ta'lim berayotgan fanni ham sevgan bo'lishi zarur deydi. o'ziga ham, o'quvchiga ham talabchan bo'lishini uqtiradi. Navoiy o'qituvchini

jamiyatdagi obro‘li va hurmatga loyiq inson deb bilib, shogirdlar muallimni Vatandek hurmat qilishlarini, e’zozlashlarini uqtiradi. Uning asarlarida axloqiy va mehnat tarbiyasiga doir qarashlari asosiy o‘rinni tashkil etadi. [17; 79-b]

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida va pedagogik fikrlarning rivojida Avloniy alohida o‘rin tutadi. U butun faoliyati davrida o‘z xalqiga hizmat qiladigan komil insonni etishtirish uning ma’naviyatini shakllantirishga alohida e’tibor berdi. Avloniy milliy madaniyatni, halq ta’lim ishlarini yo‘lga qo‘yishda katta hizmatlar qilgan adib, iste’dodli pedagogdir. Avloniy ijodining bosh masalasi barkamol insonni tarbiyalashdan iborat bo‘lgan. Tarbiya bola tug‘ilganidan boshlanadi va umrining oxirigacha davom etadi. Avloniyning ta’kidlashicha, tarbiya hususiy ish emas, milliy-ijtimoiy ishdir. Har bir halqning taraqqiy qilish, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga bog‘liqdir. Avloniyning ijodiy faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, uning falsafiy-ijtimoiy dunyoqarashida millat istiqloli, kelajakdagi ma’naviy hayot alohida o‘rin egallaydi. Avloniy tashkil etgan maktab o‘zbek millatiga hos yangi usul edi. Bu maktablar erkin va insonparvarlik asosida tuzilganligini, dunyoviy ilmlarni bolalarga o‘rgatish, ta’lim mazmunini ilmiylashtirib tovush metodidan keng foydalanilganligi bilan eski maktablardan ajralib turardi. Avloniy tarbiyani quydagi qismlarga bo‘lgan edi: fikr tarbiyasi, badan, axloq va inson tarbiyasi. U o‘zining “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida barkamol insonning axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor berdi. Axloq “Insonni yahshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi hulqlarning yaxshiligini, yomon hulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq” deydilar.

Avloniy axloqiy tarbiyaning bosh masalasi insonning vatanga muhabbatidir deb hisoblaydi va har bir yosh qalbni Vatanida yashashga, uning baxtidan quvonishga o‘rgatmoq lozimligini ta’kidlaydi. Avloniy aytganidek ilm olish sog‘lomlikni talab etadi. “Badanning salomat va quvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir, chunki o‘qimoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga sog‘lom vujud lozimdir”, deb ta’kidlaydi. [17; 79-b]

Vatan ravnaqi — milliy g‘oyamizning yuksak tushunchalaridan biri bo‘lib, u fuqarolarimizning bilimi va kamoliga bog‘liq. Har bir yurtdoshimiz, qaysi sohada xizmat qilishidan qat’i nazar, bu haqiqatni to‘liq anglagan holda, o‘zining ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi va o‘sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.

YOSHLARDA HARBIY-VATANPARLIK TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUM MOHIYATI

S.B.JO‘RAYEV
Mirobod tumani hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati bosh mutaxassisi

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘n bir millionga yaqin yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa — 18 million nafarni yoki 64 foizini tashkil etadi. Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning hayotda o‘z o‘rinini topishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlatimiz siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish, ushbu yoshlarni islohotlardagi faol ishtirokini ta’minlash orqali ularning demokratik yangilanish jarayonlarining ishtirokchisi sifatidagi roli yanada ortdi. Bu quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangi asrga kelib, yoshlarga munosabat masalasida dunyo taraqqiyoti uchun umumiy bo‘lgan qonuniyatning mavjudligi ayon bo‘ldi, ya’ni, yoshlar endi nisbatan ustuvor ahamiyatga ega shaxsdan jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan, uni amalga oshiradigan yetakchi kuchga aylanmoqda;
- yoshlarning intellektual qobiliyatlari, kasbiy malakasi, ma’nan va ruhan barkamollik kabi ijtimoiy sifatlari butun jamiyatning rivojlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday tendensiyalar yoshlarning alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida siyosatning faol sub’ektiga aylanib borayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, yoshlarga doir siyosat yo‘nalishi bir qancha rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-70-yillarida mustaqil soha sifatida shakllandi. Biroq 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan «Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to‘g‘risida» rezolyusiya qabul qilinganidan so‘ng bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik davlat siyosatining xarakteri, maqsad va vazifalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan o‘ziga xos milliy yoshlar siyosatini belgilab olish va amalga oshirish uchun mustahkam zamin tug‘diradi. Ushbu nazariyadan kelib-chiqib, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi davlatning yoshlarga doir siyosatida muhim bosqich hisoblanib, siyosatda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratish uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi. Bugun mustaqillik tufayli yangicha dunyoqarash, demokratik tafakkurga ega bo‘lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanmoqda. Ular respublikamiz kelajagining mustahkam tayanchi bo‘la olishi shubhasizdir. Zero, yoshlarning huquqlari va faoliyat kafolatlari bosh qomusimizda belgilab qo‘yilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarga taalluqli

meyorlardan tashqari, aynan yoshlarga tegishli bo‘lgan qoidalar ham mavjud. Jumladan,

41-moddada: «har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir»;

45-moddada: «Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir»;

64-moddada: «Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar»;

66-modda: «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar»;

117-moddada: «O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar» kabi meyorlar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda, eng avvalo, mustaqillikka erishgan sobiq SSSR respublikalari ichida birinchilardan bo‘lib, 1991 yilning 20 noyabrida «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinganini alohida qayd etib o‘tish joiz. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik yo‘nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llarini beglilab berdi.

Ushbu qonunda quyidagilar ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yildi:

❖ Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni tashkiliy-moddiy jihatdan ta’minlash;

❖ Yoshlarga doir qonunchilikda va hukumat tomonidan belgilangan chora-tadbirlarni yangilanish va islohotlar jarayoniga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish;

❖ Yoshlar siyosatini yurituvchi nodavlat tuzilmalari tarmog‘ini kengaytirish va takomillashtirish, ularning yoshlar tarbiyasidagi faoliyatini kuchaytirish;

❖ Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash:

❖ O‘zbekistonning buyuk kelajagini qurish yo‘lida yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini to‘laroq namoyon etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

❖ Yoshlar muammolarini hal etishga ularning o‘zlarini ko‘proq jalb etish, ularda tashkilotchilik va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini shakllantirish;

❖ Yoshlarni siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Ushbu qonunga ko‘ra, davlat yoshlar siyosatini amalga oshirar ekan, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’iy nazar, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an’analarning avloddan avlodga o‘tishi, avlodlarning ma’naviy aloqalarini ta’minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida

o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishlarini kafolatlash, jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta’minlashni o‘ziga vazifa qilib olishi belgilab qo‘yilgan.

Jamiyatni tubdan isloh etish sharoitida yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash davlat institutlari faoliyatining ustuvor yo‘nalashlaridan biri hisoblanadi.

Vatanparvarlik –bu ona zaminga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e‘zozlash. Uning ravnaqiga har bir fuqaroning o‘z hissasini qo‘shishga erishish. Vatanparvarlik -bu ona-Vatan, mustaqil O‘zbekiston tushunchalarini o‘z ongiga singdirish va unga sodiq bo‘lishga erishish. Vatanparvarlik -bu Vatanimiz xalqiga, uning an’analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o‘z xissasini qo‘shish, uning haqiqiy jonkuyari bo‘lish. Vatanparvarlik –bu o‘zbek xalqiningqadim-qadimlardan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko‘xna zaminning tarixini bilishga erishish. Vatanparvarlik –bu o‘zbek xalqining madaniy meroslari hisoblangan madaniyat, san’at, me’morchilik yodgorliklarini asrab –avaylash va ularning tarixi hamda bugungi kundagi axamiyatni bilish. Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o‘sib, kamol topib boradigan zamindir. “Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan allomalar, fozilu-fuzalolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari ana shu zaminda yaratilgan”[1,82].

Darhaqiqat, Vatanga nisbatan chinakam sadoqat uni himoya qilishga ham qodir bo‘lishni talab etadi.Kursantlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barcha turdagi faoliyat ko‘rsatayotgan oliy harbiy ta’lim muassasalarining asosiy o‘rin egallashi darkordir.

Vatan, yerga bo‘lgan muhabbat –xalqimiz qalbiga singib ketgan, azaliy milliy xususiyatga ega bo‘lgan xislatdir.

Har bir g‘oya va mafkura asosida Vatan yotadi. Vatan – har bir o‘zligini anglagan, avlod va ajdodlarini qadrlagan kishining eng muqaddas joyidir. Inson o‘zining ma’naviy kamolotini yuksaltirish uchun yuksak mas’uliyatni his etishi, o‘z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi asosida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi. Vatanparvarlik kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan muhabbatini, munosabatini ifoda etadigan ma’naviy axloqiy fazilatdir[2,153].

Vatanparvarlik insonda tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo‘lib, tashqi muhit va davrlar ta’sirida shakllanib: “Ma’naviyat, mafkura borasida chetdan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirib, biron natijaga erishib bo‘lmaydi. Chunki, bizningdunyoqarashimiz,

xalqimizning tafakkuri, turmush-tarzi nihoyatda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Barpo etayotgan davlatimiz kelajagimiz ildizi teran tariximizga, betakror madaniyatimizga, yuksak maqsadlarimizga monand bo‘lishi lozim”[3,471].

Vatanparvarlik tuyg‘usi xalqning o‘z tarixini chuqur bilishi va undan g‘ururlanishida, buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘idek asrab, kelgusi avlodlarga yetkazishda, ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarni, meroslarni o‘rganib, uning qadriyatiga aylangan qismini davom ettirishda, ayniqsa, davlatimiz kelajagi, istiqlolining barqarorligi, kelajagining buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko‘maklashish kabi yuzlab fazilatlarda o‘z aksini topadi. Zero, barcha zamonlarda har qanday millatning taqdiri uning kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasi bilan belgilanadi. Inson, jamiyat hayotida tarbiyaning o‘rni qanchalik muhimligiga jadid mutafakkirlari ham e’tibor qaratishgan. Xususan, Abdulla Avloniy “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”, deganda tarbiyaning nafaqat alohida shaxs, balki jamiyat taraqqiyotida ham naqadar katta rol o‘ynashini ta’kidlagan edi[4,44].

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat organlari, jamoa tashkilotlari va birlashmalarining yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashidagi maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Bundan asosiy maqsad — yoshlar ongida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarni va konstitutsion burchlariga nisbatan sadoqat hissini shakllantirishdir.

Xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlarni qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan zamonda yashamoqda. Bugungi kunda o‘zbek xalqi o‘z taqdirimizni o‘zimiz belgilab, azaliy qadriyatlarimizga tayanib, rivojlangan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, istiqbolli, olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, barcha imkoniyatlarimiz va bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olganligi - aynan, mustaqillikning sharofati ekanligini anglayapmiz.

Harbiy vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yoshlarga xos fazilatdir. Vatanga, xalqga bo‘lgan xurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyaiga ta’sir qilib, ularni ma’suliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi. Demak, aytish mumkinki, vatanparvarlik – o‘z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog‘lagan barcha kishilarga xos fazilatdir.

Harbiy vatanparvarlik ayni paytda barchaning o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarashi, vatanning boyliklarini ko‘z qorachig‘iday asrash, boyliklariga boylik qo‘shishga o‘z ulushimizni qo‘shish, ilm-fan cho‘qqilari sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik bir so‘z bilan aytilganda o‘z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo‘shish: ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir; vatanparvarlik - xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishdir.

Tarixga nazar solsak, Amir Temur adolatli hukmdor sifatida xalqni zulmdan ozod qilishni muqaddas burch deb bilgan. “Movarounnahr aholisi, —deb yozadi u o‘z «tuzuk»larida, - mening bu ishimdan xabar topishi bilanoq, tezda bosqinchilarga qarshi hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim mo‘g‘ullar toifasidan butunlay bezgan edi. Aholining kattayu kichigi menga ergashdi. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari ham mo‘g‘ullar toifasini yo‘q qilish haqida fatvo chiqazib berdilar. Ulusamirlari va qo‘shin boshliqlarining ba’zilari ham bu ishga qo‘shilib bizga birlashdilar”.

“Saltanat jig‘asini taqqach, —deydi Amir Temur, - tinchligu, halovatim ketdi. O‘z o‘rnimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim. Hayotim davomida turli diyorlarni kezdim, ranju alamlar ham tortdim. Har xil tadbirlar qo‘llab, dushman hujumlarini qaytardim. Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko‘rdim. Ulardan achchiq dashnomlar ham eshitdim. Lekin sabr-bardosh bilan o‘zimni eshitmaganga, ko‘rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich yalang‘ochlab, jang maydoniga otildim va shul tariqa dunyoga nom chiqardim”. Qadimda odamzot ezgulikka intilib, bog‘-rog‘lar, shaharlar, beqiyos me’moriy obidalarni bunyod etgani, yovuzlik yo‘lini Iskandar devori singari vositalar bilan to‘sgani ma’lum. Tarixiy taraqqiyot davomida yaxlit jahon turli iqlim va mintaqalarga, qit’a va davlatlarga ajraldi[6,2].

Xulosa qilib aytganda, Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining bosh vazifasi mustaqil, o‘z yo‘lidan rivojlanayotgan Vatanimiz uchun, g‘urur, Qurolli Kuchlarga nisbatan muhabbat, jangovar va mehnat urf - odtlarimizga sadoqat, harbiy mehnatga hurmat hissini har taraflama rivojlantirish, ozodlik va mustaqilligimizni, qo‘limizdagi qurol bilan muhofaza qilishga doimiy tayyorlikni shakllantirish, o‘z fuqarolik burchini ado etishdir. Bugungi kunda o‘sib borayotgan yosh avlodni Vatan va uning kelajagi haqidagi uy fikrlari, Vatanparvarlik tuyg‘usini sezishlari eng avvalo o‘z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan bog‘lay olishlarida, o‘z Vatandoshlarini qadr qimmatini bilishlari va shu yo‘lda mehnatlarini ayamay Vatan taraqqiyoti uchun faolik ko‘rsatishlarida ko‘rish mumkin.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 82 b.

2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Fan, 2001 – 153 b.

3. Karimov.I.A Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2000. – 471 b.

4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Adolat, 1992. – 44 b.

5. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992. -76 b.

6. Nabiyev M. (2020). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asarida globallashuv davrida milliy taraqqiyotni ta’minlashning usul va vositalar tahlili. Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI, 1(74). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6497 View publication

YOSHLARDA HARBIY-VATANPARLIK TUYG‘USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

D.R.JO‘RAYEVA
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedogogika universiteti 5-bosqich PP-502 guruh talabasi

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2022-yilning 24-fevral kuni Qoraqalpog„istonning Beruniy tumanida faollar bilan uchrashuvda “dunyo kun sayin emas, soat sayin tahlikali bo„lib borayotganini” ta‘‘kidladi. Bugun biz insoniyat taraqqiyot sari, xavfsiz dunyo sari intilayotgan XXI asrda ham na xavfsizlik, na taraqqiyot o„z mukammal kafolatiga ega emasligiga yana bir karra amin bo„layapmiz. Zero, xavfsizlik va taraqqiyot o„zgalar tominidan taqdim etiladigan “tuhfa” emas. Shunday ekan, tahlikali dunyo siyosatida O„zbekiston o„z pozitsiyasini qanday belgilaydi? Jahon va milliy maydonda davlatimizning yaqin va uzoq kelajakka qaratilgan insonparvarlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi qanday taktika va strategiyalari mavjud?

Javob bitta, ya’ni yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirish zarur.

Vatanparvarlik haqida fikr yuritadigan bo‘lsak - bu Vatanga muhabbat, o‘z vataniga sadoqat, uning manfaati va xizmatiga tayyorlik, kezi kelganda o‘zini qurbon qilish, uni turli yovuz kuchlardan himoya qilish kabi hislar asosida mujassamlanadi.

Erkka intilish, ozod yashashga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos bo‘lgan tuyg‘udir. Inson o‘z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh mavzusi bo‘lib kelgan. Chunonchi, Hadisi Sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta’kidlanadi. Alisher Navoiy quyidagi misralarda vatandan ayrilish inson uchun og‘ir judolik ekanligiga urug‘ beradi: Abdulla Avloniy

o‘z asarlarida “vatan” tushunchasiga ta’rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligi quyidagicha qayd etadi: “Har bir kishining tug‘ulub o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sg‘on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi – tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagi kabi rohatda yashamas. Biz turkustonliklar vz vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi. Arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskumular shamol taraflarini, eng sovuq va muzlik yerlarini boshqa yerdlardan ziyod suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilur edi”. Inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan vatanda orzu-umidlari, niyatlari, hayotiy intilishlari bilan o‘ziga yaqin bo‘lgan kishilar davrasida bo‘ladi, o‘zi ko‘nikkan turmush tarzi bo‘yicha kun kechiradi, bolalikdan o‘zi ko‘nikkan ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etadi, hayotining bir qismiga aylangan tilda so‘zlashadi va u shu muhitdagina o‘zini erkin his qiladi. Begona yurtlarda u o‘ziga tanish bo‘lgan, o‘zi ko‘nikkan muhitni topa olmaydi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha mamlakatimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sababi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ro‘hida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborotkommunikasiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal yetish yo‘llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23- fevraldagi 140-son qaroriga binoan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib ushbu konsepsiyaning 2 bobida Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitusiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

“O‘zbekiston fuqarosining vatanparvarligi – bu qayta o‘zgarish yo‘lini ko‘rsatuvchi, ko‘zlagan maqsadidan chetga chiqmaydigan yo‘lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O‘zbekistonga, uning yeriga, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o‘lkaning tarixi, madaniyati, an’analarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan fahrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg‘urish ko,,p millatli o‘zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi”[4,76]. Shu nuqtai-nazardan qaraganda,

vatanimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni, uning tarixini, xalqning boy merosini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tub mohiyatini, respublikamiz imkoniyatlarini chuqur anglagan holda, yuksak istiqbolga erishish yo‘lida fidoyilik namunalari ko„rsatmagan kishi haqiqiy vatanparvar bo„lmaydi. Tarixiy madaniy meros insonda vatanparvarlik, milliy tuyg„usini uyg„otadi. Ajdodlarga munosib avlod bo„lishga intilish hissini paydo qiladi. Tarixiy tafakkur orqali idrok qilingan madaniy meros o‘zida katta ma‘naviy qudratni, boylikni, iste‘dodni namoyon qiladi.

“Uchinchi Renesans” poydevori bo„lmish Yangi O‘zbekiston rivojiga har daqiqada ulush qo‘shmoq, vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko„rinishidir. Vatanga munosib farzand bo‘lish, uning yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog‘liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko‘rinishi, qirrasidir.

Harbiy vatanparvarlik ona yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoiylik namunalarini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan yoshlarga xos fazilatdir. Vatanga, xalqga bo‘lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg‘usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilarning qalbidan chuqur o‘rin oladi, faoliyaiga ta’sir qilib, ularni ma’suliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etib turadi.

Muzeylar, san'at maktablari va madaniyat markazlari kabi muassasalarda uzil-kesil yoshlarni vatanparvarlikda tarbiyalash mumkin emas. Umumta'lim maktablari vatanparvarlik ta'lim dasturlari doirasida ular bilan hamkorlik qilib, yoshlarni o‘z mamlakatining madaniy va tarixiy merosiga jalb qilishadi.

Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasiga qaratilgan chora-tadbirlar:

- ko‘rgazmalar;
- musobaqalarni o‘tkazish;
- ijodiy faoliyat;
- ijodkorlik festivali;
- mahalliy tarixga, tarixiy muzeylarga va san'at galereyalariga tashrif buyurish;
- tarixiy yodgorliklarni takomillashtirish;
- suhbat va dars soatlari;
- mudofaa va sport o‘yinlari;
- mintaqaviy va mintaqaviy tematik musobaqalar va boshqalar.

Zamonaviy doirada fuqarolik-vatanparvarlik ta'limi yosh avlodni ularning yurish-turishi va fuqarolik pozitsiyasi uchun javobgarlik uchun tayyorlanishini nazarda tutadi.

To‘g‘ri va malakali bilim olgan yoshlar bugungi demokratik jamiyatda erkin muloqot qilishi mumkin. Yoshlar ular ishtirok etadigan jamoat ishlarining ahamiyatini va ularga o‘z hissasini qo‘shish muhimligini biladilar. Yoshlar tashabbusni olishga, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishga va o‘zlari kabi nafaqat

o‘zlariga, balki boshqalarga ham, butun mamlakatga foyda keltiradigan inson sifatida o‘sishga tayyor bo‘ladi.

Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlar o‘rtasida shaxslararo va millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantiradi.

Vatanparvarlik ta'limining barcha ta'lim tizimida ahamiyati yo‘q, chunki u Vatan himoyachilarini tayyorlaydi. Ushbu yo‘nalish doirasida yosh erkaklarga ishonchlilik va qat'iyatlilik, jismoniy chidamlilik va jasorat kabi fazilatlar yetishtiriladi. Bu xususiyatlar nafaqat armiyada xizmat qilish, o‘z mamlakatini himoya qilish, balki oddiy kasblar, masalan, shifokorlar uchun ham ajralib turadi.

Ta'lim maktabdagi darslar doirasida amalga oshiriladi, masalan OBJ mavzusi. Ushbu fanning bir qator bo‘limlarida «Harbiy tayyorgarlikning xususiyatlari» maxsus kurslari mavjud. Bundan tashqari, yoshlar Vatan uchun kurashganlarning sharafiga bag‘ishlangan xotira tadbirlariga qo‘shilish orqali tarbiyalanmoqda.

Zamonaviy jamiyatda vatanparvarlik ta'limining asosiy muammolari quyidagilardir:

- yoshlarning qadriyatlarini o‘zgartirish;
- yoshlarning ta'lim darajasini pasaytirish.

Ayni paytda, zamonaviy yoshlar orasida kasb-hunar maktablari, internatlar va mehribonlik uylari bitiruvchilarining ko‘pligi kuzatilmoqda. Yoshlarning ushbu toifasi, xususan, ichkilikbozlik va giyohvandlar sonining yuqori darajasi yuqori bo‘lgan yoshlarga qaraganda ancha yuqori. Shuningdek, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy maqsadi albatta, vatanparvarlik va tuyg‘ularini, Vatanga sadoqatnishakllantirishda yotadi. Shuningdek, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bolalarda o‘z Vatani, vatandoshi bilan faxrlanish, o‘z davlati tarixiga hurmat hissini uyg‘otadi.Harbiy psixolog lavozimda ishlaydigan xodim harbiy yoshlarning vatanga ruhida tarbiyalashbilan birga harbiy xizmatda ishlaydiganlarning psixologik holatini baholab unga maslahat berish,ulardan tez tez suitsid holatlari kuzatilmasligi uchun test, metodika, seminar va treninglar o‘tishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, oldimizda turgan asosiy vazifa – yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g‘urur kabi g‘oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o‘zligini anglashga erishishdir.

Yoshlarga har sohada o‘zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma’naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an’analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g‘oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda.

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni oiladan boshlamoq kerak. Chunki oila jamiyatning bir bo‘g‘inidir. Shunday ekan, jamiyatga kerakli kadrlarni oila yetkazib beradi. Oilada bola ulg‘ayadi, o‘sadi. Ana shu voyaga yetish jarayonida oila maktabining o‘rni beqiyos. Oilaga, ota-onaga, yaqinlarga bo‘lgan muhabbat,

hurmat keyinchalik bir butunlik sifatida Vatan so‘zida mujassamlashadi. Shunday ekan, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarni ma’naviy yuksalishiga zamin yasaydi. Oilada bolalarimizga ertaklar aytayotganimizda ham milliy ertaklardan, afsonalardan, rivoyatlardan foydalanishimiz u yerdagi qahramonlarning mardlik, jasurlik, o‘z vatanini hech narsaga alishtirmaslik, uni bir parcha tuprog‘ini ham muqaddas bilish lozimligini ajdodlarimiz ma’naviy meroslaridan foydalangan holda uzviy olib borishimiz vatanimiz kelajagini mevasini yaratadi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 82 b.

2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Fan, 2001 – 153 b.

3. Karimov.I.A Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O‘zbekiston. 2000. – 471 b.

4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Adolat, 1992. – 44 b.

5. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. –Toshkent: O‘zbekiston, 1992. -76 b.

6. Nabiyev, M. (2020). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch asarida globallashuv davrida milliy taraqqiyotni ta’minlashning usul va vositalar tahlili. Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI, 1(74). izvlecheno ot https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6497 View publication

VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH HAR BIR MILLATNING O‘TMISHI, QADRIYATLARI VA KELAJAGINI NAMOYON ETUVCHI KO‘ZGU SIFATIDA

E.N.SIRLIYEV
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Harbiy vatanparvarlik ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi dotsenti

Aytish joizki, milliy qadriyatlar ajdodlarning ilmiy-ma’naviy merosi asosida shakllanadi va davrlar osha takomillashib boradi. Xususan, asrlar davomida ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi asosida shakllangan milliy qadriyatlarimiz barcha umuminsoniy axloqiy fazilatlarni o‘zida aks ettirgan. Bugungi tezkor globallashuv sharoitida ham o‘z milliy qadriyatlariga mustahkam suyanib kelayotgan xalqimiz beqiyos ma’naviy boyligi, ajdodlar xotirasiga sadoqat, o‘zidan kattalarga ehtirom, o‘zidan kichiklarga izzat-ikrom, ayniqsa ota-onaga hurmat, qarindoshlik rishtalarini mustahkamlash, mehmonni ulug‘lash, birovning haqiga, ayniqsa,

yetimlarning, qo‘ni-qo‘shnilarning haqqiga hiyonat qilmaslik, ehtiyojmand kishilarga xayr-ehson qilish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, oilani asrab-avaylash singari ezgu umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos an’analari, urf-odatlari bilan boshqa xalqlardan o‘ziga xos tarzda ajralib turadi. Xalqimizning asrlar osha o‘zining yuksak qadrini bir lahzaga bo‘lsada yo‘qotmay kelayotgan ezgu insoniy fazilatlaridan biri o‘zi tug‘ilib o‘sgan ona yurtiga – Vatanga muhabbat, vatanparvarlik fazilatidir. Bu kabi yuksak insoniy fazilat va bunday mukqaddas tuyg‘u xalqimizning qon-qoniga singib ketgani ayni haqiqatdir. Shu o‘rinda tarixga nazar solsak, yurtimiz sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgani bois ushbu jannatmakon zaminga egalik qilishni ko‘plab imperiyalar, hukmdorlar istagan. Afsonalarga aylanib ketgan Shiroq, To‘maris, Spitamen kabi shaxslar vatanni himoya qilish, uni dushmandan ko‘z qorachig‘idek asrash yo‘lida bor kuch imkoniyatini safarbar etib, bu yo‘lda moli-yu jonini, sha’nini, hayoti va oilasini ham ayamagan. Shuning uchun ham bunday vatanparvar insonlarning vatan oldidagi buyuk xizmatlari tarix zarvaraqlarida o‘chmas iz qoldirgan.



SHIROQ. Qadim zamonlarda Eron shohi Doro Turon hududlariga hujum qilibdi. Uning asl maqsadi Turon zaminni egallash va barcha boyliklarini talon-taroj qilish edi. O‘sha paytlarda bu yerda qadimgi massaget, sak va so‘g‘d qabilalari yashar edi. Qabila boshliqlari dushmanni yengish to‘g‘risida maslahatga to‘planishibdi. Shunda ularning huzuriga oddiy Turon zamin o‘g‘loni cho‘pon Shiroq kelibdi va dushman jangchilari oldidida mamlakatni qanday qilib bosib olish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatishini va maqsadini aytibdi. U Eron shohining lashkarlari ko‘pligi, ularni jangda yengib bo‘lmasligini, ulardan faqat hiyla bilan qutulish mumkinligini bilardi.



Shiroq xanjari bilan o‘z quloqlarini, burnini kesibdi va dushman tomonga yo‘l olibdi. – shohim, men qulingiz Shiroq bo‘laman. Qabila yig‘ilig‘iga sizga taslim bo‘lishni aytgan edim, quloq-burnimni kesib, shu ahvolga solishdi. Ulardan o‘chimni olmoqchiman. Ularni qaerdaligini bilasanmi? – Ha, albatta – Bizni o‘sha yerga boshlab bora olasanmi? – Jonim bilan. Sizlarni faqat podachilar biladigan so‘qmoqlar bilan olib boraman. Yetti kunlik oziq-ovqat, suv g‘amlang. Ushbu gaplarga ishongan dushman qo‘shinlari yetti kunlik oziq-ovqatlarini g‘amlab olib yo‘lga tushibdi. Doro Shiroqning so‘zlariga ishonibdi va uni o‘z qo‘shiniga yo‘lboshlovchi qilib tayinlabdi. Cho‘pon yigit ularni sahroga boshlab boribdi. Eron lashkarlari yo‘lboshlovchining maslahati bilan yetti kunga g‘amlagan suv, oziq-ovqat, yem-xashaklari tugabdi. Sakkizinchi kun ochlik, to‘qqizinchi kuni tashnalik boshlanibdi. Shunda Doro aldanganini tushunibdi.



Bizni qaerga olib kelding? Qani saklar? – so‘rabdi u Shiroqdan. – Men yengdim. Doroning qo‘shinini bir o‘zim yengdim! – deb javob beradi cho‘pon. – Sizlarni aldab sahroning qoq o‘rtasiga olib keldim. Shiroq qo‘li bilan kun chiqish va kun botish tomonini ko‘rsatib yana shunday debdi: – Bu yog‘i ham yetti kunlik yo‘l, u yog‘i ham. Istagan tomonga boravering! Baribir barchangiz halok bo‘lasiz.



Ilojsiz qolgan dushman: – Agar sen sahro quduqlari va chashmalarni bizga ko‘rsatsang gunohingdan kechib, So‘g‘diyonada istagan qishloqlaringdan birini senga in’om qilar edik, – debdi. O‘z elimning dushmanlariga yordam uchun cho‘zadigan qo‘limni kesib tashlaganim ma’qul, – deb javob beradi Shiroq. Halokat yoqasida qolgan eroniylar chiday olmay, fidoyi cho‘ponni azoblab o‘ldirdilar va o‘zlari ham suvsizlikdan halok bo‘ldilar.

Oddiy cho‘pon Shiroqning o‘z elini qullikdan qutqarib qolish uchun o‘z jonidan kechgani, ming turli azob-uqubatni bo‘yniga olgani yuksak vatanparvarlik timsoli edi.



TO‘MARIS (mil. av. VI-asr.) – Turon xalqlarining axomaniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» (mil. av. V-asr) asarida yozilishicha, Axomaniylar davlati asoschisi Kir II mil. av. 530-yilda Turonga bostirib kirganida, To‘maris massagetlar qabilasining malikasi bo‘lgan. Massagetlar bu paytda Amudaryo (Araks) bo‘ylari va Qizilqumda yashashgan. To‘maris massagetlar podshosining xotini bo‘lib, u erining vafotidan so‘ng davlatni boshqargan. Erondan kelgan bosqinchilar qo‘shini bilan massagetlar o‘rtasida shiddatli janglar bo‘lgan. Dastlabki jangda To‘marisning o‘g‘li Spargalis (Siparangiz) boshchiligidagi massagetlar g‘olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo‘li bilan Spargalis va ayrim massagetlarni asir olishganda, or-nomusga chiday olmagan Spargalis o‘zini o‘ldirgan.

To‘maris o‘g‘lining halokatidan esankirab qolmay, o‘z xalqining manfaatini o‘ylab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so‘raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o‘rtada ayovsiz jang bo‘lgan. Gerodot massagetlar va forslar o‘rtasidagi jang tafsilotlarini o‘z asarida quyidagicha tasvirlaydi: «Mening bilishimcha, bu jang varvarlar o‘rtasidagi barcha janglardan ham dahshatli bo‘lgan. Avval har ikkala qo‘shin bir-birini uzoq masofadan turib, kamondan o‘qqa tutdilar.

Kamon o‘qlari tugagach, ular nayza va qilich bn kurashdilar. Jang uzoq, vaqt davom etdi. Ko‘p qon to‘kildi. Nihoyat, massagetlar g‘alaba qozondilar. Fors qo‘shinlarining asosiy qismi, jumladan, Kir II ham jang maydonida halok bo‘lgan. U to‘liq 29 yil shohlik qilgan edi. Kir II ning jasadi topilgach, malika To‘marisning buyrug‘i bn uning kesilgan boshi inson qoni bn to‘lg‘azilgan meshga solingan». To‘marisning jasorati va harbiysiyosiy faoliyati to‘g‘risida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar to‘qildi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan Hodi Zarifov yozib olgan «Oysuluv» dostonida Turon mamlakatining podshosi Oysuluv obrazida To‘maris faoliyati o‘zining badiiy talqinini topgan. Yozuvchi Mirkarim Osim «To‘maris» qissasida uning jasoratini ulug‘laydi. Ibrohim Yusupov «To‘maris» (1974 yil) dostonini yozgan, kompozitor Ulug‘bek Musaev shu nomli balet (1982yol)ni sahnalashtirgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda ayollar o‘rtasida «To‘maris o‘yinlari» festivali o‘tkazilmoqda. Birs o‘z bilan aytganda To‘maris haqiqiy vatanparvar inson bo‘lgan. U tashqi dushmanni bitta qo‘ymay qirib, o‘z ona Vatanini bosqinchilardan butkul halos qiladi. Ushbu tarixiy voqealar ajdodalarimizning naqadar vatanparvar bo‘lganligidan darak beradi.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA VATANPARVARLIK G‘OYASI

Z.E.PARDAYEV., S.V.ALIMOVA
O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar
vazirligi Akademiyasi xizmatchilari

O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali ta’sir ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan biri — bu Alisher Navoiy bobomizdir. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir.

Ona tiliga muhabbat, uni ulug‘lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu tafakkurimizga, yuragimizga, avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kelganligi ayni haqiqat. Navoiy hazratlarining tom ma’noda xalqparvar shaxs bo‘lgani, uning o‘lmas g‘oyalari bugungi kunimiz uchun ham bag‘oyat hamohang va ibratli ekani, ayniqsa ahamiyatlidir.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan yangi besh yillik uchun “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi. 100 maqsaddan iborat mazkur hujjatning 70-maqsadi - “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” - Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va

qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash mustahkamlab qo‘yilgan. Shu nuqtai nazardan hazrat Navoiyning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joizdir:

Odami ersang, demagil odami,

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Mazkur satrlari bugungi kunda Prezidentimizning xalqimiz dardiga darmon bo‘laylik, xalq dard-u g‘ami bilan yashaylik degan talablariga aynan hamohangdir.

Menga qilsa, ming jafo bir qatla faryod aylamam,

Elga qilsa, bir jafo ming qatla faryod aylaram.

Prezidentimiz bugungi rahbarning ish natijasiga faqat va faqat xalqni qay darajada rozi qilayotganligi bilan baho berayaptilar. Zero, bundan oliy vazifa ham, mukofot ham yo‘q.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni chuqur ilmiy-falsafiy, ma’naviy-axloqiy nuqtai nazardan bayon etganlar. Jumladan;

Besha sherin gar zabun qilsang shijoatdin emas,

Nafs itin qilsang zabun olamda yo‘q sendek shujo.

Haqiqatan ham nafs itini bo‘ysundirish hayotiy zaruratdan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki nafs insonni o‘zi tasavvur ham qila olmaydigan razolat va yovuzliklarga yetaklaydi. Nafsni tarbiyalashda insondan juda katta sabr va matonat talab qiladi. Bunday ish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Shu sababli Alisher Navoiy “O‘z nafsini yenggan inson shijoatlidir. Changalzor sherini yengish shijoatdan emas”, deb bejiz yozib qoldirmaganlar.

Navoiy bobomiz o‘z ijodlarida, avvalo, yoshlar tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor qaratganlar. Alloma yosh avlodni ilm-hunar, mehnatni sevishga undab, o‘rganilgan ilm va hunarni xalq, Vatan yo‘lida sarf qilish zarurligini uqtirgan. Alisher Navoiy ilm, ma’rifat haqida ajoyib fikrlarni olg‘a suradi. U aql, ilm insonning eng go‘zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisoblaydi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni, tarbiyani egallash uchun yoshlikdanoq astoydil o‘qib-o‘rganish kerak. “Yoshligingda yig‘gil bilimni, qarigach sarf qilg‘il ani”, degan fikrlari e’tiborga molikdir. Buyuk bobokalonimiz mashhur asari “Xamsa” tarkibidagi birinchi doston “Hayrat-ul abror” (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta’limiy dostonida o‘zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari haqida to‘xtalar ekan, kishilarga ta’lim-tarbiya va pand-nasihat berish masalalariga katta e’tibor beradi. Asarning bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Jumladan, dostonning oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolatida bola tarbiyasi, uni voyaga yetkazish, o‘qitish va komil shaxs qilib tarbiyalashda ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shu o‘rinda yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lishga da’vat etuvchi satrlarini keltirish joizdir. Bunda ota-ona Oy va Quyosh deb ta’riflanadi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kunungga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh…

Ayni jihatdan shoir merosi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning kuchli qurollaridan biri. Inson tarbiyasi, kamoloti masalalarini o‘zbek adabiyotida hech kim Navoiy kabi a’lo darajada kuylamagan. Shoir orzu qilgan komillik yo‘li bu - yetuk odob-axloq sohibi bo‘lish, jami insoniy ezgu fazilatlarni egallash, zamonasining barcha ilmu hunarlarini o‘zlashtirish, ilm va hunarni bir-biridan ajratmaslik, nafaqat ma’naviy, balki jismoniy jihatdan ham barkamollikka intilish, hamisha elu yurt xizmatiga shay turish, Vatanga sodiq farzand bo‘lish, burch va mas’uliyat tuyg‘usini barcha narsadan ustun qo‘yish kabilardir.

Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho‘qqisidir. Navoiy turkiy til asosida betakror bog‘ yaratib, dunyo ahlini hayratga soldi. Turkiy nazm gulshanidagi bepoyon bog‘ni chin ma’noda bo‘stonga aylantirgan ijodkorlar rahnamosi bo‘lgan.

Alisher Navoiy ijodi o‘ziga xos hikmat bo‘stonidir.

Yuksak salohiyatli, ma’naviy uyg‘oq, or-nomusli, uyat va andishali, sharmu hayoli, iboli va iffatli, sobitqadam, shijoatli, diniy, dunyoviy qadriyatlarga amal qiluvchi, doim savob ishlarni bajaradigan, tariximiz, madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur biluvchi, Vatanga sodiq, milliy g‘ururli, yuksak ma’naviyatli, yangicha fikrlovchi, ilm cho‘qqilarini zabt etuvchi, odob-axloqli kishilarni biz komil inson deya ataymiz. Alisher Navoiy talqinida esa komil inson jamiyatning bir toifasigagina mansub bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy hayotdagi turli toifalar vakllariga ham dahldordir. Shoir komil insonni komil jamiyatning, ya’ni ajdodlar tomonidan obod, ozod makon, farovon, tinch osuda turmush, hamjihatlik va hamfikrlik, adolat, baxt-saodat, qonun hukmron bo‘lgan ijtimoiy tuzumning negizini tashkil etuvchi asosiy omil deb biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lex.uz. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.

2. Navoiyni anglash yo‘lida ilmiy-metodik maqolalar to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi T-2021. – 14 b.

3. Alisher Navoiy. MAT. VII jild. “Hayrat ul-abror”. – T.: Fan, 1991. – 392 b.

4. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Nasriy bayoni bilan. Mas’ul muharrir Vahob Rahmonov. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1989. – 352 b.

5. Navoiy Alisher. MAT. XIV jild. “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya”. – T.: Fan, 1998. – 304 b.

YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG‘USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Z.X.KAMALOVA., D.E.ABDUQODIROVA
AIFU Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent v.b., AIFU
Psixologiya yo‘nalishi magistranti

Globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar har bir davlatning kelajagini hal qilinishga bog‘liq bo‘lgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi paytlarda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va rolini qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi o‘z Vatanini sevadigan, Vatanga sodiq, o‘z mehnati bilan unga xizmat qilishga va uning manfaatlarini himoya qilishga tayyor bo‘lgan ishonchli vatanparvarni tarbiyalashdir.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-iyun kuni “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Hukumat qarori (267-son) qabul qilindi. Shunga asosan 2023-2027 yillarda «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash» samaradorligini oshirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.Uni amalga oshirish boyicha esa «Yo‘l xaritasi « ham belgilab olingan. Qaror bilan 2023-2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish kontseptsiyasi hamda uni amalga oshirish bo’yicha “yo’l xaritasi” tasdiqlandi. [18]

Davlatning eng muhim qadriyatlari va mafkuraviy asoslaridan biri bu vatanparvarlikdir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi deganda talabalar o‘rtasida har tomonlama rivojlangan shaxsning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbat va hurmatning bosqichma-bosqich va barqaror shakllanishi tushuniladi. Vatanparvarlik tushunchasi asrlar davomidagi chuqur nazariy an’anaga ega. Bu konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor shakllarini amalda qo‘llash yoritib o‘tilgan. «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi»da yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usullari: ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag‘batlantirish; o‘rnak ko‘rsatish va shaxsiy namuna deb ko‘rsatilgan. Shunga muvofiq ravishda tegishli yo‘l-yo‘riqlar belgilab berilgan. «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash» konsepsiyasining 14 bandida ta’kidlanganidek, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan iborat.[19]

---

[18] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiya" Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) – soni, 2018 yil 2 mart.

[19] Розимова Ё.Ю. СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Vatanparvarlik deganda yurtga muhabbat va sadoqat, yurt uchun xizmat qilish, bu yo‘lda butun umr va salohiyatingizni, kerak bo‘lsa, joningizni fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha xalqlar, millatlar va elatlarga xos umuminsoniy tuyg‘ular va ma’naviy qadriyatlardan biri bo‘lib, asrlar osha sayqallanib kelgan. Tarixiy nuqtai nazardan, vatanparvarlik – odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti jarayonida o‘z Vatani taqdiri, xalqlarning o‘zi yashayotgan hududning yaxlitligi va mustaqilligi uchun kurashi bilan bog‘liq bo‘lgan tuyg‘ular majmui.

Y.A.Komenskiyning fikriga ko‘ra, odamlarda vatanparvarlik ularning shakllanishining dastlabki bosqichlarida tarbiyalanishini ta'kidlaydi: avval bu ota – onalarga, keyin uning uyiga, tug‘ilgan joyiga, keyin esa Vatanga bo‘lgan muhabbat hisoblanadi.

G.Gegel vatanparvarlikni davlatning umumiy maqsadlari va manfaatlariga intilish deb tushunadi, bu, albatta, har qanday kishiga, xoh u shaxs, xoh odamlar guruhi yoki umuman jamiyat manfaatlariga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega.

G.N.Bulgakov vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish milliy ijodkorlikni o‘rganish orqali amalga oshirishi mumkin deb hisoblagan.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni va tahlil qilish bizga vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga ta'sir qiluvchi eng muhim omillarni aniqlashga imkon berdi:

1. Makrofaktorlar: davlat tizimi, jamiyatdagi psixologik muhit, fuqarolik jamiyati holati, mamlakat tarixi.

2. Mezofaktorlar: ma'lum bir mintaqaning an'analari va madaniyati, milliy xususiyatlari, tabiiy-iqlim va ijtimoiy-demografik sharoitlar; turmush tarzi.

3. Mikrofaktorlar: tengdoshlar guruhlari, ta'lim va madaniy-ommaviy muassasalar, oila, maktabning ta'lim tizimi, shaxsiy hayot tajribasi va boshqalar.

4. Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-axloqiy tarkibiy qismi o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga doimiy qiziqishni shakllantirishdan iborat

Psixologik bilimlarni hisobga olgan holda vatanparvarlik ijtimoiy-psixologik ta'lim sifatida ta'riflanishi mumkin, Vatan, xalq ishlariga shaxsiy daxldorlikda namoyon bo‘ladigan inson psixikasining protsessual mexanizmlari (sezgi, idrok, tasavvur va boshqalar), shuningdek, individual psixologik xususiyatlar (yo‘nalganlik, qiziqishlar, e'tiqodlar va boshqalar) kiradi.

Vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirish uchun inson va uning xalqi, inson va uning Vatani, inson va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy tuyg‘ularni “o‘ziga xos tarzda” tarbiyalash, milliy madaniyat va yuksak muloqot ko‘nikmalarini singdirish zarur.

Zamonaviy tadqiqotchilar (S.T.Aliyeva, E.A.Kazaeva, L.V.Kokueva, L.E.Nikonova, L.V.Filatova, N.Y.Yaseva) vatanparvarlik va vatanparvarlik tarbiyasi muammosini uchta tarkibiy komponentning birligida ko‘rib chiqadilar: kognitiv (intellektual), hissiy (hissiy-emotsional) va faoliyat (samarali-amaliy).

Kognitiv komponent insonning bilimlari, qarashlari, e'tiqodlarini tavsiflaydi. G‘oyalar vatanparvarlik ongini shakllantiradi va u o‘z navbatida shaxsning qarashlari va e’tiqodlarini, jumladan, axloqiy bilim va tuyg‘ularni shakllantiradi.

Hissiy tarkibiy qism shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlari, Vatanga muhabbat, Vatan uchun g‘urur bilan tavsiflanadi, insonning ma'naviy va axloqiy salohiyati uchun javobgardir.

Bilim faqat faoliyat jarayonida shaxsning shaxsiy e'tiqodiga aylanganligi sababli vatanparvarlik tarbiyasi mazmunida faoliyatga asoslangan tarkibiy komponent alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar Vatan farovonligi, Vatanga xizmat qilish uchun amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladigan vatanparvarlikning faol xususiyatini ta'kidlaydilar.[20]

Shunday qilib, hozirgi vaqtda oliy ta'lim oldida qiyin, ammo ayni paytda muhim vazifa turibdi – Vatanning ma'naviy-axloqiy, madaniy, tarixiy qadriyatlarini saqlash va ko‘paytirish, yoshlar ongini shakllantirish, o‘z mamlakatining faol, ijodiy, tashabbuskor fuqarolarini tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontsepsiya” Vatanparvar gazetasining № 9 (2760) – soni, 2018 yil 2 mart.

2. Rozimova YO.Y. Sovremenniye trebovaniya k voyenno-patrioticheskomu vospitaniyu molodeji v Uzbekistane

3. Butirskaya YE.V. Smolenskiy gosudarstvenniy universitet Teoreticheskiye podxodi k formirovaniyu patriotizma

VATAN RAVNAQI YOSHLARIMIZ BILIMIGA BOG‘LIQ

M.BADALBAYEVA
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
katta o‘qituvchisi
R.BADALBAYEVA
1-sonli Toshkent shahar IIV akademik litseyi
tarix fani o‘qituvchisi

“Bilimli yoshlar – kelajak poydevori. ... Yoshlarning yo‘lini ochib bersak, ularga yelkadosh bo‘lsak, yanada ulkan natijalarga erishamiz”
Sh.M.Mirziyoyev.

O‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga intilayotgan Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorining bunyodkorlari bo‘lgan yoshlarning ilm olishi va

[20] Е.В. Бутырская, Смоленский государственный университет Теоретические подходы к формированию патриотизма

har tomonlama yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta’lim sohasida bugun amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi ham yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari orqali ko‘zga tashlanadi.

Oliy ta’lim tizimi oldiga yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdek mas’uliyatli vazifa qo‘yilayotgan bugungi kunda talaba-yoshlarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Eng asosiysi, farzandlarimiz sifatli ta’lim olishni davom ettirishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratishimiz lozim. Farzandlarimizning sifatli ta’lim olishi va yetuk kadrlar bo‘lib yetishishi uchun barchamiz birday mas’uldirmiz.

Yuksaklikka intilishning ijtimoiy-ruhiy o‘n ikki modulini inobatga olmoq lozim. Jumladan, o‘z maqsad qo‘yish va unga erishishga intilish, xotirani kuchaytirish, ilm olish sirlarini puxta egallash, odob doirasida kiyinish madaniyatini va o‘ziga xos imidjini saqlash, notiqlik va muzokara san’atini egallash, liderlik qobiliyatini aniqlash, tanqidiy fikrlash (critical thinking), moliyaviy savodxonlikka ega bo‘lishi, zamonaviy kasblarni puxta egallash kabi.

“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi hamda “SmartChain” MCHJ bilan hamkorlikda «NazzAR» loyihasi doirasida Samarqanddagi yodgorliklar, muzeylar va madaniy meros obektlari bo‘yicha virtual ekskursiyalar ishlab chiqildi.

Bu esa o‘z o‘rnida Samarqandning asosiy diqqatga sazovor joylarini barcha aholiga uydan chiqmasdan ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Har bir inson Mirzo Ulug‘bek rasadxonasini, Samarqand viloyat o‘lkashunoslik muzeyi, Amir Temur maqbarasi va Samarqand shahrining boshqa muhim madaniy obektlari bo‘ylab shaxsiy smartfonlari va kompyuterlari orqali xonadonidan chiqmasdan ekskursiya qilishlari mumkin. Shuningdek, ushbu tur virtual haqiqat ko‘zoynaklaridan (VR ko‘zoynaklar) foydalanib amalga oshirilishi mumkin, bu esa tanlangan joyning muhitiga virtual sho‘ng‘ish hissini uyg‘otishda, yoshlar zamonaviy texnologiyalar vositasi yordamida Vatanimiz tarixini o‘rganishga va imkoniyati cheklangan odamlarda ularga nisbatan qiziqish uyg‘otishlari mumkin.

Yoshlarning bandligini ta’minlash eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Jumladan, bir yil davomida tadbirkorlik dasturlariga 4 trillion so‘m yo‘naltirish orqali 220 ming nafar yoshlarning bandligi ta’minlanadi. Shuningdek, yoshlarning tadbirkorlik loyihalariga 250 milliard so‘m subsidiya va kompensatsiyalar beriladi. Ayni paytda, ularning qishloq xo‘jaligi sohasidagi faoliyatini ham tizimli ravishda rag‘batlantirib boramiz. Masalan, Oltiariq uzumchilik klasteri namunasi asosida, respublikamizdagi 70 ta tumanda “Yoshlar agroklasteri”ni tashkil etib, 400 ming nafar yoshlarni ish bilan ta’minlaymiz.

Endi har yili o‘quv yili yakunlanishi bilan yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha har bir hudud alohida dastur qabul qilishi belgilab qo‘yildi.

Ayni vaqtda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholini kasb-hunarga o‘qitish va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Joriy yilda kollej va texnikumlarning 15 mingga yaqin o‘quvchilari kontrakt pulini to‘lash imkoniyati yo‘qligi bois, o‘qishni davom ettira olmagan.

Eng muhimi, kollej va texnikumlardagi kasblar ish beruvchilar talabiga mos emas. Oqibatda ular ishga olgan yoshlarni qaytadan o‘qitishga majbur bo‘lmoqda.

Shu bois kasb-hunar ta’limini zamon talablariga moslashtirish bo‘yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilandi.

Zamonaviy ta’limda “STesting” haqida alohida to‘xtalish kerak:

“STesting” elektron platformasi bu – xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o‘z ichiga olgan innovatsion platformadir.

Elektron platforma orqali har kim Xalqaro baholash dasturlarining topshiriqlarini o‘zida mujassam etgan elektron test tizimida o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik doirasida o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalarga mo‘ljallangan video mahsulotlar bilan tanishib chiqishlari, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishlari, ularning egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini hamda tahlil va talqin qila olish, ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyani ta’minlashda elektron platforma materiallarini bepul yuklab olishlari, o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalari (funksional savodxonlik, muammolarni hal qilish, shaxsiy fazilatlar)ni shaklllantirish bo‘yicha metodik yordam olishlari mumkin.

“STesting” elektron platformasi – o‘quvchilarni ilm-fan yutuqlaridan boxabar bo‘lishlari, atrof-muhit va inson salomatligi bilan bog‘liq muammolarni hal etuvchi qarorlarni mustaqil qabul qila olishlari, tabiiy boyliklarni asrash, egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish, tabiat va jamiyat hodisalariga nisbatan munosabat bildira olish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni hayotga tayyorlash va zamonaviy kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ko‘makchi vazifasini o‘taydi.

“STesting” elektron tizimida o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish orqali mantiqiy, tanqidiy va ijodiy (kreativ) fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash mumkin.

“STesting” elektron tizimi – o‘quvchi-yoshlarning faol fuqaro sifatida jamiyatda o‘z o‘rinlarini egallashida vositachi sifatida muhim ahamiyat kasb etishiga ishonchimiz komil.

Qishloq hududlaridagi yoshlarni kasbga yo‘naltirishdagi dolzarb masalalar doimiy muhokama qilinadi.

O‘zbekistonda yoshlarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ularni har tomonlama

rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratilgan. Uzoqni ko‘zlagan holda qabul qilingan kadrlar tayyorlash, maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturlari, yoshlarga oid davlat siyosati, o‘g‘il-qizlarimiz uchun turli yo‘nalishlar bo‘yicha ta’sis etilgan davlat mukofotlari, bunyod etilgan ta’lim maskanlari, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlar. Bularning hammasi barkamol avlodni, demakki, ertangi kunimizning munosib davomchilarini, yurt kelajagi jonkuyarlarini tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi.

Quvonarlisi, yuqoridagi ezgu g‘oya, maqsadlarni amalga oshirish – yoshlarni ona Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘g‘il-qizlarimizning orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi intilishlarini bugun barcha jabhalarda har bir sohada ko‘rishimiz mumkin.

Aslida, yoshlarning mustaqil dunyoqarash va faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishlari uchun har birimiz mas’ulmiz. Ulardagi ma’naviy va axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, vatanparvarlik, mamlakat taqdiri uchun mas’uliyat hissi bilan yashash, yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash tuyg‘usini yanada kuchaytirishga, o‘g‘il-qizlarimizni har tomonlama bilimdon qilishga muvaffaq bo‘la olsakkina marra bizniki. Vatanimizning salohiyati, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari nechog‘li ulkan ekanligi, yurtimizning qadimiy va boy tarixi, ulug‘ ajdodlarimiz va ular qoldirgan madaniy meros bashariyat madaniyati va rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi haqida yoshlarni ongiga singdirib borish zarur. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”, deb alohida ta’kidlangan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida.

Eng katta marralar ham birinchi qadamdan boshlanganidek, yoshlikda ulkan maqsadlar sari qo‘yilgan birinchi qadam insonni muvaffaqiyat sari yetaklab boraveradi. Bugun yurtimizda siz azizlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratilmoqda.

Ulardan munosib foydalansangiz bas. Yosh yigit-qizlarimiz o‘z bilimi, qadryatlari bilan yo‘g‘irilgan va foydali kasb egallashlari bilan yurtimizga shon-sharaf keltiradi.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T:. -“Ma’naviyat”. 2008.

2. M.Ismoiljonova. Bilimli yoshlar – kelajak poydevori. “Research Focus” jurnali. Volume 2, 2023.

3. F.Muhiddinova. Yangi O‘zbekistonning kelajak yoshlari: imkoniyat va huquqiy kafolat. “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DUK. 2020.

BOBUR JANG SAN’ATIDA O‘ZBEK ARMIYASINING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI VA JANGOVAR RUHINI OSHIRISH MASALALARI

M.BADALBAYEVA
Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi
katta o‘qituvchisi
R.BADALBAYEVA
1-sonli Toshkent shahar IIV akademik litseyi
tarix fani o‘qituvchisi

Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg‘ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonningqizi edi. Boburning onasi o‘qimishli va oqila ayol bo‘lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko‘mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamrohlik qilgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta’lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o‘rganadi, ko‘plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she’riyatga qiziqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan “Bobur” (“Sher”) laqabini oladi.

Naql qilishlaricha, Bobur podshoh kunlardan bir kun o‘z mulozimlari bilan ulkan daryo bo‘ylab sayr qilib yurardi. Podshohdan norozi bo‘lgan ba’zi bir guruhlar uni qatl qilish uchun mohir xanjarboz hinduni yollashadi. Mazkur hindu uzoqdan turib o‘z raqibiga xanjar otishda shunchalik chapdast ekanki, otilgan xanjar raqibning tomog‘iga bexato sanchilib, til tortmay o‘ldirar ekan. Hindu xanjarini eng ichiga berkitib asta-sekin yurib Bobur podshohga yaqinlasha boshlaydi. Shu payt qirg‘oqda yugurishib o‘ynab yurgan norasida bolalardan biri – olti yoshlik hindu bolasi nogoh daryoga tushib ketadi va qudratli daryo mavjlari uni o‘rab, oqizib ketaboshlaydi. Bu fojiali voqeani ko‘rgan Bobur podshoh atrofidagi mulozimlarga hech narsa demay, darhol o‘zini daryoga otib, hindu bolasini halokatdan qutqarib olib chiqadi. Podshoh tomonidan sodir bo‘lgan ajoyib insonparvarlik, mehr-shafqat va oliy fazilatni ko‘rgan haligi hindu hang-mang bo‘lib qoladi-da, bir ozdan so‘ng es-hushini yig‘ib olgach, podshoh huzuriga borib ta’zim qilgach, xanjarini podshohga uzatib, “Ey olampanoh! Mana bu xanjarni qo‘lingga olda, mening ko‘ksimni pora-pora qilib tashla. Chunki men sening oldingda gunohkormen. Zero, shirin joningga qasd qilmoqchi edim. Ammo sening insonga bo‘lgan mehr-shafqating, muruvvating va bahodirliging qarshisida boshimni egib, taslim bo‘laman. Hamda sening qatlingga meni

oyoqlantirgan mal'unlarga la'natlar o'qiyman! Ey olijanob podshohim, olampanohim! Agar istasang o'la-o'lgunimcha huzuringda qolib, sadoqat kamarini belga bog'lab xizmatingda bo'lay", - deydi. Darhaqiqat, Zahiriddin Muhammad Bobur podshohning hayot tarzini ifodalovchi tarixiy asarlar, rivoyatlar va naqllarda uning adolatli, imoni barkamol va oq ko'ngilli pok inson ekanligi haqida yozilgan.

1501-yil aprel oyida Zarafshon yaqinidagi Saripul qishlog'ida Bobur va Shayboniyxon o'rtasidagi jangda Bobur mag'lubiyatga uchraydi. Bobur bu jangdagi mag'lubiyatning asosiy sababini yordamchi mo'g'ul askarlarining xiyonatlarida ko'rsa-da, bundan boshqa sabablar ham borligini inkor qilib bo'lmaydi. Bularning birinchisi, Boburning munajjimlar bashoratiga quloq solishi bo'ldi.

Voqea tavsifi shuki, har ikki tomon 5-6 kun davomida bir-biri qarshisida jangsiz holatda, turli harbiy taktikalar tuzish rejasi bilan turgan. Bobur esa ataylab jangni kechiktirishga uringan. Bunga sabab, Hirotdan Husayn Boyqaro tomonidan yuborilgan Qanbar Ali boshchiligidagi ikki ming atrofidagi yordamchi kuchlar Keshga yetib kelgan bo'lib, ikki kunda Boburga qo'shilishi kerak edi. Boburning tog'asi Sulton Mahmudxonning Sayyid Muhammad boshchiligida yuborgan bir ming besh yuz atrofidagi yordamchi kuchlari ham ertasi kuni tongda yetib kelishi kerak edi. Shunday vaziyatda masalaga munajjimlar aralashib, shu kunda sakkiz yulduz oraliqda turganligini, agar bir kun o'tsa, ikki hafta davomida sakkiz yulduz dushmanning orqasida bo'lishi, bu esa kechiktirmay jangga kirish va g'alaba qozonish lozimligini anglatadi, deb bashorat qilib, Boburni yordamchi kuchlarni kutmasdan, jangga kirishga da'vat etganlar.

Ikkinchisi esa, harbiy strategiyadagi xatosi va bu borada Muhammad Shayboniyning ustamonligidir. Bunda jang oldidan Bobur qo'shinni odatdagidek safga tizib, eng sara sarkardalari, ichkilar (Odatda ichkilar deb saroyning hukmdorga yaqin amaldorlari aytiladi. "Boburnoma"ning ba'zi o'rinlarida xos soqchilar, tan qo'riqchilar (chuhralar, xosa tobin) ham ichkilar deb ta'riflangan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bu o'rinda ham ichkilar xos soqchilar bo'lgan bo'lishi, ehtimol) va mohir jangchilarni qo'shinning irovul (qorovul, markazda, qo'shinning oldi qismida boruvchi bo'linma) qismida joylashtiradi. Shayboniyxon esa qo'shin qanotlariga tajribali sarkardalar bo'lgan Mahmud sulton, Hamza sulton va Mahdi sulton rahbarligidagi kuchli otliqlarni joylashtirgan. Shayboniyxonning harbiy razvedkasi Boburning harbiy kengashi sirlaridan voqif bo'lgan bo'lishi ehtimol. Chunki, Muhammad Shayboniy asosiy e'tiborni qanotlarga qaratib, to'lg'amani qo'llaganligi, dushmanning harbiy taktikasini oldindan bilganligidan va harbiy razvedkasi yaxshi ishlaganligidan dalolat beradi. Muhammad Shayboniyning boshqa yirik janglari tahlil qilinganda, ularning hammasida ham to'lg'ama usuli ishlatilavermaganligini, dushmanning kuchi, imkoniyati va jang usullariga qarab o'z taktikalarini o'zgartirib turganligini ko'rish mumkin. Jang boshlanishi bilan,

Shayboniyxonning qanot qismlari Bobur jangchilarining barong‘or va javong‘orini ortga surib tashlab, markaz qismning orqasidan yorib kirgan. Natijada, qo‘shinning chindovul (oqa qism – arergard) qismida turgan Bobur asosiy qismdan ajralib qolgan va qurshovga tushib qolmaslik uchun, chekinishga majbur bo‘lgan.

Temuriylar davlatining poytaxti hisoblangan Samarqandda XIV asrning ikkinchi yarmida qurol-yarog‘ yasash ishlari sezilarli darajada rivojlangan. XVI asrning ikkinchi choragida xonlik poytaxtining Buxoroga ko‘chirilishi munosabati bilan qurol-aslaha ishlab chiqaruvchi ustalar ham shu yerga to‘plangan. Bu yerda xon qo‘shinini qurollantirish uchun lozim bo‘lgan qurol-aslahaning asosiy qismi ishlab chiqarila boshlangan. Lekin bu davrning asosiy qurollari bo‘lgan o‘t ochar qurollarning aksariyati Turkiya va Erondan olib kelingan bo‘lsa, ba’zi to‘plar mahalliy sharoitda yasalgan.

XV-XVI asrlardan boshlab Movarounnahr hududida to‘fang, ra’d, arroda (to‘rt g‘ildirakli aravaga o‘rnatilgan kichik to‘p, zarbzan), farangiy (yevropacha to‘p, ular Husayn Boyqaro va Bobur, keyinchalik, shayboniylar qo‘shinida bo‘lgan) singari o‘t oochar qurollar keng tarqalgan va ular O‘rta Osiyoga Eron va Turkiya hududlaridan keltirilgan. “To‘fang”/”to‘fak” (miltiq) turkiy so‘z bo‘lib, to‘p-zambarak, “ak” kichik ma’nosida keladi va bu atama “kichik to‘p” ma’nosini anglatadi. Ko‘pchilik adabiyotlarda u miltiq nomi bilan uchrayda va forscha ikki so‘z - “mil” - “quvurcha”, “ichi g‘ovak tayoqcha” hamda “tiq” - “qo‘ymoq”, “solmoq” so‘zlaridan tashkil topgan.Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida Shayboniyxon qo‘shinlari Samarqandni uzoq muddat qamal qilgan paytda (1501) shaharni himoya qilib turgan Bobur askarlarida to‘fang (to‘fak, miltiq) va ra’d (arabcha “ra’d” momaqaldiroq) bo‘lganligi yoziladi. Ammo “Boburnoma”da bu qurol ilk bor 1518-yil voqealari tasvirlanganda tilga olinadi. Ma’lumki, 1508-1518-yillardagi voqealar “Boburnoma”dan joy olmagan. Shunday ekan, to‘fangning Bobur qo‘shinida ilgariroq bo‘lganligini ta’kidlovchi Muhammad Solih so‘ziga ishonsa bo‘ladi.“Mir’otul mamolik” (mamlakatlar ko‘zgusi) asari muallifining ma’lumot berishicha, Toshkent xoni Navro‘z Ahmadxonga Turk sultoni 300 ta miltiq bilan qurollangan yanicher (yangi qo‘shin)larni yuborganligi haqida ma’lumot beradi. Uning ta’kidlashicha, Buxoro qo‘shinlaridagi miltiqlar misdan quyilgan bo‘lib, asar qahramonidan 40 ta temir miltiq olib qo‘yilganligi aytiladi. Usmonlilar imperiyasi sultonlari bilan shartnomaga ko‘ra, yollanma turk mashshoq (harbiy muhandis)lari Abdullaxon II (1557-1598) va ashtarxoniylar davrigacha zamonaviy usulda qo‘shinlarni jangga tayyorlash mashqlari bilan shug‘ullangan, qurollar esa Turkiyadan keltirilgan.

Buxoro xonligida XVI asr birinchi choragidagi ko‘plab harbiy to‘qnashuvlarning ishtirokchisi va qahramoni Zahiriddin Boburning ma’lumotlariga qaraganda, o‘t ochar qurol – to‘fang o‘sha paytda Bajavr (Afg‘oniston) aholisiga

ma’lum bo‘lmagan. Ular bunday qurolni hech qachon ko‘rishmagan va jang boshlanganda, to‘fang ovozini eshitib ham parvo qilmay, o‘qning ro‘parasida turishda davom etganlar. Faqat to‘fangandozlar to‘fangdan o‘q otib, o‘nga yaqin bajavrliklarni yer tishlatgandan keyingina, boshqalar dushman ochayotgan o‘tdan o‘z boshlarini qutqarish payiga tushadilar. Afg‘onistonning ba’zi bir joylarida to‘fang faqat 1519-yilda Bobur qo‘shini bilan birga paydo bo‘lganligidan kelib chiqsak, mazkur o‘q otar qurol bu yerda keng tarqalmaganligi ma’lum bo‘ladi. 1526-yilda aprel oyida Bobur va Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diy o‘rtasida mashhur Panipat jangi bo‘lib o‘tadi. Bobur qo‘shini 12 000 kishi, Ibrohim Lo‘diy qo‘shini esa 100 000 kishi va jangovor fillardan iborat edi. Katta qo‘shiniga ishongan Ibrohim Lo‘diy hech qanday taktikasiz, shunchaki Boburning qo‘shinini yanchib tashlamoqchi edi, lekin jangda Boburning mohir sarkardaligi o‘z so‘zini aytadi. Bu jangda Bobur to‘lg‘ama usulini qo‘llab, g‘animning orqa tomoniga o‘tib, unga kuchli zarbalar beradi. Bundan tashqari Bobur yana bir taktika qo‘llaydi, ya’ni xo‘kizlarning xom terisidan eshilgan arqon bilan 700 ta aravani bir-biriga bog‘lattiradi va ularning orasiga o‘sha davr uchun yangilik bo‘lgan, tufakandoz (o‘tochar qurol) va zambaraklar bilan qurollanib, qalqon bilan himoyalangan askarlarni joylaydi. Tufakandoz va zambarak o‘qlaridan ovozidan vahimaga tushgan fillar orqaga qarab qocha boshlaydi. Lo‘diy qo‘shini orqaga qochgan fillar oyoqlari ostida qolib, katta yo‘qotishga uchraydi. Jangda Lo‘diy qo‘shinidan 50 000 kishi halok bo‘lgani aytiladi. Jangda Ibrohim Lo‘diyning o‘zi ham halok bo‘ladi va Bobur Dehli va Agrani zabt etadi. Shu yerda ham musulmon fotihlarining oliyjanobligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni Bobur jangdan so‘ng Ibrohim Lo‘diyning onasi Baydaga hurmat-ehtirom ko‘rsatib, unga o‘z saroyidan joy bergan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, salohiyatli hukmdorning malaka va mahorati jasorat va birdamlikka aoslanib, g‘alaba keltirishi muqarrarligini Bobur jang san’atida ko‘rish mumkin.

Temuriy hukmdorlar tomiridagi qon jo‘sh urgan Bobur bobosining “Kuch – adolatda” so‘zlariga amal qilib, doimo o‘zi bosib olgan davlatlar xalqlarining mehrini qozonib kelgan. Chunki, u keng mushohada yuritib, jang tadbiridan boshlab to davlat boshqaruvi ishlarida adolatli chora-tadbirlar qo‘llab, bag‘rikenglik tamoyilini amalga oshirgan. Hatto zurriyodi Akbarshohning ham ajdodlar o‘gitiga qat’iy amal qilib, adolatni toj qilganligini hindlarning juzya solig‘iga qarshi Avrangezibga yo‘llagan maktubida “adolatga ziddir, yaxshi siyosatga ham xuddi shunday qarshidir, chunki mamlakatning qashshoqlanishiga sabab bo‘ladi, ustiga-ustak bu yangi tadbir Hindiston qonunlarini buzish, demakdir”, deb yozilgan jumlalaridan anglash qiyin emas. Zahiriddin Muhammad Bobur adolatli boshqaruv usuli orqali o‘z armiyasining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini, jangovar ruhini oshirishda muhim o‘rin tutganligi bilan

qudratli edi. Shu sababdan ham Bobur avlodlar qalbi shuurida hamisha buyuk va barhayotligicha qolaveradi!

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. EnsiklopediY. 2014.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. 2002.
3. Bobur asarlarida vatan tuyg‘usi. To‘plovchi O.Baxronova. 2016.
4. Javohirla’l Neru. Dunyo tarixiga bir nazar. II jild. 1975.

QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDAGI MA’RIFIY ISLOHOTLAR

XAITOV DJAHONGIR ERKINOVICH
O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi “Gumanitar fanlar sikli” boshligi, dotsent
ERKINOV ILXOM ERKIN O‘G‘LI
Samarqand Davlat Tibbyot universiteti “Ijtimoiy va
gumanitar fanlar” kafedrasi asistenti

Bugungi kunda ayrim mintaqalardagi xalqaro munosabatlarning tobora murakkablashib borayotgani, 200 dan ortiq davlatlarning muayan qismida turli xil milliy - etnik, diniy kelishmovchiliklar hamda xalqlar va davlatlar o`rtasida turli nizolarning tobora chuqurlashib, hattoki, yadroviy tahdidlarning xavfi tobora ortib borayotgan bir davrda mamlakatimiz siyosatining bosh omilida tinchlikparvarlik va barqarorlik printsiplari turganligini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlar ko`rsatib turibdi. O`zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyo mamlakatlari bilan ham strategik nuqtai nazardan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamkorlikni mustahkamlab bormoqda. Jamiyatimizda yashovchi insonlarning Vatanga bo`lgan muhabbati ona mehri va ota jasorati orqali namoyon bo`ladi. Vatan insonning kindik qoni to`kilgan tuproq, uni kamolga yetkazadigan, hayotiga ma’no-mazmun bahsh etadigan tabarruk maskandir. Ajdodlardan avlodlarga qoldirilgan buyuk meros va unitilmas xotira orqali Vatanni ulug`laymiz. Ayni Vatan tuyg`usi bilan yashaydigan insonning g`urur iftihori yuksak, maqsad – muddaolari aniq bo`ladi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi bebaho ne’matdir. Insoniyat kishilik taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik va totuvlikka intilib kelgan. O`zbek xalqi tinchlik va barqarorlikni yuksak qadrlaydi. O`z orzu-intilishlarining ro`yobga chiqishikafolati, deb biladi. Shuning uchun ham ozod va obod yashash huquqini shu Vatanda yashayotgan har bir fuqaro ko`z qorachig`idek asraydi. Vatanga sadoqat, ajdodlar merosiga hurmat va umumbashariyatga munosib bo`lish orqali inson zimmasidagi har bir katta-kichik vazifaga mas’uliyat bilan yondoshadi. Shu bilan mamlakat sarhadlarini mustahkamlash, chegaralarimiz dahlsizligini kuchaytirish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurash har doim insonni

ogohlikka da'vat etib turadi. Shu bois, O`zbekiston hukumati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o`z armiyasiga ega bo`ldi. Bugungi kunda Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning tinchligini ko`z qorachig`idek asrash, barqaror rivojlanishini ta'minlash shu vatanda yashayotgan har bir insonning burchi hisoblanadi. Bu borada yoshlar masalasi yuqori o`rinda turadi. Sababi bugungi zamonaviy sharoitlarda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ustuvor masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Boisi harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlar, eng avvalo, yurtining tinchligi – osoyishtaligi uchun o`z jonini kamarbasta qilishgada tayyor turadi. Agar insonlar yuragida vatanparvarlik tuyg`usi ustun bo`lmasa, ularga hech bir sohada ishonib bo`lmaydi. Milliy armiyamizni yoshlarning mardlik, matonat va jasorat maktabiga aylantirish, Vatanga xizmat - oliy saodat ekanligini fuqarolar ongi – shuuriga singdirish va shu orqali Vatan tuprog`idagi oddiy xas ham, oddiy tosh ham muqaddas. Vatan yodi bilan nafas olgan ajdodlarimizga munosib bo`lish eng buyuk saodatdir, degan tushuncha bizning asosiy g`oyamizga aylanishi shart. Shu sababli 1993-yil 22–noyabrda "O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar harbiy qismining jangovor bayrog`i to`g`risidagi" Prezident farmoni imzolanib, Qurolli Kuchlar jangovor bayrog`ining yagona namunasi belgilandi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 29 – dekabrdagi O`zbekiston Respublikasining "Vatan himoyachilar kunini belgilash to`g`risida"gi qonuniga binoan, "14 – yanvar – Vatan himoyachilar kuni", deb e'lon qilindi. 1995-yilning avgust oyida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi harbiy doktrinasi esa mustaqilligiga endigina 4 yilgina bo`lgan mamlakatning harbiy sohadagi siyosatini belgilab berdi. Mintaqadagi harbiy siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda 2000-yil 3 – fevralda O`zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilindi. 2018-yil 9 – yanvarda esa yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to`g`risidagi qonun imzolandi. Doktrina 4 bo`lim, 40 banddan iborat bo`lib, unda umumiy qoidalar, harbiy siyosiy, jihatlar, harbiy strategik jihatlar qamrab olingan.

Harbiy doktrina O`zbekiston Respublikasining Mudofaa siyosatining negizini tashkil etadi. Milliy xavfsizlik umumdavlat kontseptsiyasining tarkibiy qismi bo`lib, tashqi siyosat, davlatlararo munosabat masalalariga, urush va tinchlik muammolariga mutlaqo yangicha yondoshuvlarga asoslanadi. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasining ishonchli Mudofaa qobiliyati va Qurolli Kuchlarning yuksak jangovarlik qobiliyati iqtisodiy, siyosiy, strategik hamda harbiy-texnikaviy va ilmiy kuch qudratni rivojlantirish, O`zbekiston xalqining jipsligi va har bir fuqaroni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim printsipdir.

Shuningdek, 2018-yil 23-fevralda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi qarori qabul qilindi [1].

Sharq donishmandlari aytganidek “ **Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir**!”

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat ekgasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanish kerak. [2].

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz yoshlarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Buyuk o`tmishimizda yashab o`tgan ajdodlarimiz, xalqimiz tinchligini saqlash maqsadida yurtimizni bosqinchilardan munosib himoya qilgan, Vatan ozodligi yo`lida dushmanga qarshi mardonavor kurashgan buyuk vatandoshlarimiz - Shiroq, To`maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Amir Temur kabi milliy qahramonlarimizning ko`rsatgan jasoratini harbiy xizmatchilarimizga doimo namuna sifatida ko`rsatishdan biz doimo faxrlanamiz. Hozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy va tarkibiy jihatdan ancha takomillashdi. Tuzilmalarning harakatchanligi, jangovar qobiliyati, harbiylarning jismoniy va ma’naviy tayyorgarligi oshdi. Harbiy qism va bo`linmalar zamonaviy qurol-yarog` va jangovar texnika bilan ta’minlandi. Milliy armiyamizni professional kadrlar bilan to`ldirish, harbiy xizmatchilarning tayyorgarligini, bilim va ko`nikmalarini yanada yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo`mondoni Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 12–yanvar kuni Xavfsizlik kengashining navbatdagi yig`ilishida berilgan vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar va harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy holatiga e’tibor qaratishni ta’kidladi [3].

Davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga doimo e’tibor qaratishni vazifa qilib belgilab berdi. Mudofaa vazirligi qo`shinlarida o`zbek xalqining buyuk mutafakkirlari misolida harbiy xizmatchilarning o`z milliy va madaniy merosi bilan faxrlanish tuyg`usini oshirishga qaratilgan harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish to`g`risida olib borilayotgan ishlar ko`lamini kun tartibidan tushirmaslikni ta’kidlab, “Harbiy ilmsiz harbiy bilim bo`lmaydi”, degan fikrni bildirdi.

Harbiy xizmatchilarni ijtiimoiy himoyalash, oilaviy shart-sharoitlarini to`g`rilash, uy-joy bilan ta’minlash masalalari bosqichma-bosqich rejali amalga oshmoqda.

Xulosa sifatida aytadigan bo`lsak, vatanparvarlik tuyg`usi harbiy sohani anglash, his qilish va idrok orqali yanada mustahkamlanadi. Shuning uchun ham harbiy sohaga oid o`qitiladigan biror bir fan uzluksiz ta’limning uch bosqichida haftada bir marta o`qitilishi zarur deb hisoblaymiz. Bular maktab, o`rta-maxsus va oliy o`quv yurtlarida...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko`lamdagi islohotlar mohiyati odamlarning hayotdagi insoniy omilkorligini va ichki imkoniyatlarni yanada teranroq anglashga, his etishga hamda inonib-ishonib doimo mehnatdan qochmaslikka chorlamoqda. Fuqarolarning, ayniqsa, mamlakat yoshlarining ma'naviy va jismoniy kamoloti Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi g`oyasi orqali yuksak fuqarolik mas'uliyatini his qilish, anglash, uqish va tushunish hamda bevosita jamiyatga dahldorlik tuyg`usi bilan uyg`unlashuvi buyuk maqsadlarimizning amalga oshishida mustahakam poydevor bo`ladi. Shuningdek, yangi O`zbekiston islohotlarida harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasi sari odimlaymiz. Milliy iftixor, jasorat va burchga sadoqat bugungi kunnig talabidir.

Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi qarori. Xalq sozi gazetasi, 2018-yil, 24-fevral

2. Muhammedov N. Markaziy osiyo mutafakkirlarning ilmiy-ma'rifiy merosi. T.: "Mafkuraviy immunitetni mustahkamlash asoslari" O'quv qo'llanma. 2020

3. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan o`tkazilgan navbatdagi Xavfsizlik Kengashining yig`ilishidagi ma'ruzasi. Vatanparvar gazetasi, 2021-yil, 15-yanvar.

MILLIY MANFAATLARNI BELGILASHDA YANGI XAVFSIZLIK KONSEPSIYALARI

J.A.SABUROVA
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

So'nggi yillarda atrof-muhit va milliy manfaatlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Mamlakatlar atrof-muhitni muhofaza qilish va asrab-avaylash ularning uzoq muddatli milliy manfaatlari uchun muhim ekanligini anglay boshladilar. Atrof-muhitning buzilishi nafaqat ekologik xavflarni, balki iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Bugungi kunda davlatlar sog'lom muhit barqaror rivojlanish, resurslar bilan ta'minlash va hatto, milliy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini tan olishmoqda. Iqlim o'zgarishi, o'rmonlarning kesilishi va ifloslanishi endi alohida muammolar emas, balki jamoaviy harakatlarni talab qiladigan o'zaro bog'liq muammolardir. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilishga ustuvor ahamiyat berish orqali mamlakatlar o'zlarining global mavqeini oshirishlari, diplomatik aloqalarni mustahkamlashlari va yumshoq kuchni rivojlantirishlari mumkin. Ushbu o'zaro bog'liqlik davrida atrof-muhit mamlakatlarni bir-biriga bog'laydigan,

chegaralarni kesib o‘tadigan va ularni barqaror kelajakka intilishda birlashtiradigan umumiy ip sifatida paydo bo‘ldi.

Xavfsizlik deganda ko‘pchilik tinchlikni, bezovtalikni keltirib chiqarmaydigan va ishonch mustahkamlanadigan barcha holatlarni tushunadi. Har bir tirik mavjudot unga sog‘lom ko‘payish va rivojlanishini ta’minlaydigan, o‘z hayoti xavfsizligiga javob beradigan muhitda rivojlanishga intiladi. Bu bizning yashash, ish, dam olish, ruhan va jismonan rivojlanish, o‘zaro insoniy aloqalar va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan juda keng atama.

Xavfsizlik haqida gap ketganda deyarli barcha uni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan baholashga o‘rganib qolgan. Xo‘sh milliy manfaat va xavfsizlik o‘zaro qanday aloqada? Qanday xavfsizlik milliy manfaatlarimizga javob beradi? Xavfsizlikni tushunishning qayta ko‘rib chiqilishi deganda nima tushuniladi? Shu va unga bog‘liq bo‘lgan qator masalalar milliy manfaatlarning xavfsizlikni belgilashdagi ahamiyati to‘g‘risidagi savolni o‘rtaga tashlaydi.

Bu to‘g‘risida rossiyalik siyosatshunos Mixail Troitskiy shunday yozadi: “Milliy manfaatlar – bu mavjud vaziyatni baholash asosidagi mamlakat ehtiyojlari va niyatlarining ommaviy deklaratsiyasidir [4]. Bunday deklaratsiya, uning fikricha, quyidagi bir nechta asosiy funktsiyalarni bajaradi.

Birinchidan, u resurslardan samarasiz foydalanish va haddan tashqari kengayishning oldini olish uchun tashqi siyosat ustuvorliklari ierarxiyasini o‘rnatadi.

Ikkinchidan, milliy manfaatlarning rasmiy yoki yarim rasmiy bayonoti hukumatga oqilona cheklovlar qo‘yadi, bu ko‘pincha tashqi siyosatni muxolifatdan siyosiy ustunlikka erishish uchun ishlatadi. Bundan tashqari, aniq ko‘rsatilgan milliy manfaatlar jamiyatga tashqi siyosiy qarorlar qabul qiluvchilar tomonidan olib borilayotgan siyosatni baholashning qat’iy mezonlarini beradi.

Uchinchidan, milliy manfaatlar siyosatning asosiy jihatlarining uzluksizligini va o‘z vaqtida tuzatilishini ta’minlaydi. Rasmiy hujjatlardagi to‘g‘ri ta’riflar davlatning tashqi siyosatni ichki siyosatning davomiga aylantirishiga to‘sqinlik qilishi ayniqsa muhimdir. Demokratik institutlar qanchalik rivojlanganligidan qat’iy nazar, aksariyat mamlakatlarda shaxsiy manfaatlarga ega bo‘lgan ko‘plab aktorlar ularni milliy darajaga ko‘tarishga va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga intilishadi. Shu nuqtai nazardan, milliy manfaatlar ma’lum bir davrda ma’lum bir davlat uchun nima foydali bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida o‘zaro bog‘liq va mantiqiy izchil bayonotlar tizimidir [4].

Ushbu fikrlarga qo‘shimcha ravishda aytish mumkinki, davlat o‘z milliy manfaatlarini omma oldida e’lon qilish orqali nafaqat aholi o‘rtasida mamlakatning yashab qolishi va rivojlanishiga ishonch paydo qiladi, balki bu manfaatlarni himoya qilish niyati va imkoniyatlari haqida tashqi dunyoga aniq signallar beradi.

Ekologiya va atrof-muhit barcha mamlakatlarning milliy manfaatlariga daxldor hayotiy masaladir. Milliy manfaatlar - bu davlatning tashqi siyosatida xavfsizlik, farovonlik, ta'sir kuchi, obro'- e'tibor kabi maqsad va vazifalardir. Atrof-muhit turli mamlakatlarning geografik joylashuvi, iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy tizimi va madaniy qadriyatlariga qarab ularning milliy manfaatlariga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Milliy manfaatlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqasi bo'yicha shakllangan turli ziddiyatli qarashlarni quyidagi **to'rtta asosiy yondashuvlarga** birlashtirish mumkin:

- Ayrim davlatlar atrof-muhitga **imkoniyat va hamkorlik manbai** sifatida qaraydi. Bu davlatlar atrof-muhit ularning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy farovonligi va global obro'sini oshirishi mumkin bo'lgan qimmatli resurslar va xizmatlarni taqdim etishini tan olishadi. Ular, shuningdek, atrof-muhit jamoaviy harakatlar va keng qamrovli yechimlarni talab qiladigan umumiy tahdid va muammolarga duch kelayotganini tan oladilar. Misol uchun, Buyuk Britaniyaning integratsiyalashgan sharhi-2021 (Integrated Review 2021) da ta'kidlanishicha, Buyuk Britaniya savdo, innovatsiyalar va atrof-muhitni boshqarishning ustuvorligini belgilaydigan "ochiqlik kun tartibi"ga intiladi [5]. Buyuk Britaniya, shuningdek, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillik va toza energiya kabi masalalarda yetakchilik qilib, dunyoda «yaxshilik uchun kuch» bo'lish majburiyatini oladi, deyiladi hujjatda (Izoh: Integrativ sharh Buyuk Britaniyaning milliy xavfsizligi va xalqaro siyosatining keng qamrovli ifodasidir.).

- Ba'zi mamlakatlar atrof-muhitni **ziddiyat va raqobat manbai** deb bilishadi. Bu davlatlar atrof-muhit ularning milliy xavfsizligi, suvereniteti va rivojlanishi uchun jiddiy xavf va cheklovlar tug'dirishini anglaydilar. Ular, shuningdek, atrof-muhit boshqa mamlakatlar yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan aralashmasligi kerak bo'lgan "milliy manfaatlar va ixtiyoriylik masalasidir", deb ta'kidlaydilar. Masalan, Xitoy iqtisodiy o'sish va global ta'sirga erishish yo'lida issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish yoki inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiy majburiyatlar yoki javobgarlikni qabul qilishni istamaydi [2]. Xitoy, shuningdek, uning iqlim o'zgarishiga moslashishi tashqi nazorat yoki bosimga duchor bo'lmasligi kerak bo'lgan suveren masala ekanligini da'vo qiladi.

- Ayrim davlatlar atrof-muhitni **muvozanat va murosa manbai** deb biladi. Ular atrof-muhitning ijobiy va salbiy tomonlari borligini tushunishadi, ularni tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilishda "taroziga tortish" va muvozanatlash kerakligini biladilar. Shuningdek, bu davlatlar o'zlarining milliy manfaatlari va global ekologik manfaatlar o'rtasida o'rta yo'lni yoki o'zaro kelishuvni topishga intilishadi. Masalan, Kanada qazib olinadigan yoqilg'iga iqtisodiy qaramligini Parij kelishuvi bo'yicha ekologik majburiyatlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qildi. Kanada, shuningdek,

atrof-muhit siyosatida mahalliy xalqlar, jamoalar va hayvonlarning huquqlari va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

- Atrof-muhit milliy davlatlar uchun **o‘ziga xoslik (identiklik) va xilma-xillik omilidir**, chunki ular tabiat va boshqa tirik mavjudotlar bilan munosabatlarini shakllantiradigan turli madaniyat va qadriyatlarga ega. Masalan, AQSh Davlat departamenti o‘zining ekologik siyosatida mahalliy xalqlar, jamoalar va hayvonlarning huquq va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlaydi [6].

Yuqoridagi yondashuv milliy manfaatlarni belgilashda atrof-muhitning o‘zaro ta’sirini va aloqasini tushuntiribgina qolmay, atrof-muhit va milliy davlatninng o‘zaro bog‘langanini ko‘rsatadi.

Milliy manfaatlarni belgilashda xavfsizlik konsepsiyasining o‘zgarishlariga duch kelgani, xalqaro munosabatlar nazariyalarida yangi yondashuvlarning paydo bo‘lgani bilan izohlanadi. Jumladan, realizm maktabi ta’sirida shakllangan Kopengagen xavfsizlik maktabi asoschilaridan biri, britaniyalik-kanadalik siyosatshunos, xalqaro munosabatlar bo‘yicha mutaxassis, mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasini ishlab chiqqan siyosatshunos Barri Buzan tomonigan ilgari surilgan **xavfsizlik konseptsiyasi va “sekyuritizatsiya”** iborasi siyosiy fanlarda muqim o‘rnashdi. Sekyuritizatsiya atamasi (inglizcha “securitization” dan olingan, inglizcha “security” - xavfsizlik) xalqaro xavfsizlik sohasidagi masalalar siyosiy konstruktivizm va klassik realizm orqali ko‘rib chiqilishini anglatadi. Ushbu atama ilk marta Kopengagen Universiteti professori Ole Veyver tomonidan 1995 yilda qo‘llanilgan [6].

Ushbu tushunchaning bizning tahlilimiz uchun ham ahamiyati katta. Chunki sekyuritizatsiya kontseptsiyasi xavfsizlik muammolarini bo‘yicha tadqiqotlarning cheklovlari faqat xalqaro xavfsizlik sohasidagi harbiy tahdidlarga qaratilganligi sababli paydo bo‘ldi. Aslida professor B. Buzan ilgariroq 1983 yilda o‘zining «Odamlar, davlatlar va qo‘rquv» asarida xavfsizlik kontseptsiyasini yangicha o‘rganishga asos solgan. U muayyan obekt qanday qilib xavfsizlikka tahdid solayotganini, uning ma’lum bir kontekstda siyosiylashtirilishini va keyin sekyuritizatsiya qilinishini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Keyinchalik Ole Veyver bilan birgalikda ushbu xavfsizlik konsepsiyasining fundamental asosi bo‘lgan asar “Mintaqalar va Kuchlar: Xalqaro xavfsizlikning tuzilishi” (inglizcha “Regions and Powers: The Structure of International Security”) ni nashr ettirdi [1]. Rossiyalik politolog V.Morozov ta’kidlashicha “xavfsizlik muammolariga bunday yondashuv suhbatni tubdan yangi bosqichga olib chiqishga imkon beradi. Kopengagen maktabining istiqbolini hisobga olgan holda, ushbu maktab nuqtai nazarini qabul qilib, biz ma’lum bir tahdidning haqiqiyligi va ustuvorligini baholash, pirovardida, faqat ma’lum darajada ilmiy tahlilga asoslangan siyosiy tanlov masalasi ekanligini anglaymiz” [7; 25-26-b.].

Ushbu konseptsiyaning mohiyatini batafsil ko‘rib chiqamiz. Siyosatshunoslar B. Buzan, O. Veyver va Yap de Vilde sekyuritizatsiyaning quyidagi asosiy sohalarini ajratib ko‘rsatadi: harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik [1; 22-23-b.].

Harbiy sektorda referent obekt odatda davlat, shuningdek, alohida siyosiy shaxslar olinadi. An’anaviy xavfsizlik tadqiqotlari barcha harbiy masalalarni xavfsizlikka tahdid deb hisoblaydi. Biroq, bu har doim ham shunday bo‘lmaydi. Masalan, gumanitar harakatlarda qurolli kuchlar ham tinchlikparvarlik maqsadlarida, ham tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etishda foydalaniladi.

Siyosiy sektorda tahdidlar an’anaviy ravishda suverenitet printsipi nuqtai nazaridan belgilanadi. Suverenitetga uning qonuniyligi yoki hokimiyat hukmronligiga tajovuz qiladigan har qanday narsa tahdid solishi mumkin.

Iqtisodiy sektorda harbiy va siyosiy sektorlarga qaraganda referent obektlar va tahdidlarni tasvirlash ancha qiyin. Masalan, kompaniyalar ko‘pincha bankrotlik xavfi ostida qoladilar. Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida turli firmalarni (kompaniyalar) sekyuritizatsiya qilishga urinishlar kamdan-kam hollarda amalga oshiriladi.

Ijtimoiy sektorda referent obekt, asosan, jamoaviy o‘ziga xosliklardir (identiklik). Ijtimoiy ta’minot jamiyatning til, madaniyat, uyushmalar, diniy va milliy o‘ziga xoslikning an’anaviy shakllarini takrorlash qobiliyatini ifodalaydi. Bu qobiliyatni sekuritizatsiya qilish mumkin.

Ekologik sektorda mumkin bo‘lgan referent obektlari ro‘yxati juda keng: nisbatan aniq narsalardan, masalan, ayrim turlarning (yo‘lbarslar, kitlar, insoniyat) va yashash joylarining (tropik o‘rmonlar, ko‘llar) omon qolishidan tortib, Sayyora iqlimi va biosferani saqlash kabi noaniq va keng ko‘lamli muammolargacha qamrab olingan. Ushbu referent obektlarining aksariyati odamlar va biosfera o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi [1; 23-b.].

B.Buzan fikricha sekuritizatsiya akti (harakati) to‘rt tarkibiy qismni (komponent) o‘z ichiga oladi:

– *sekyuritizatsiya qiluvchi aktor/agent*: sekyuritizatsiya harakati/bayonotini amalga oshiruvchi tashkilot;

– *Ekzistentsial tahdid:* potentsial zararli deb aniqlangan obekt (yoki ideal);

– *Referent obekt:* tahdid ostida bo‘lgan va himoya qilinishi kerak bo‘lgan obekt (yoki ideal);

– *Auditoriya:* ishonch hosil qilish va muammoni xavfsizlikka tahdid sifatida qabul qilish kerak bo‘lgan sekyuritizatsiya aktining maqsadi.

Muvaffaqiyatli sekyuritizatsiya qilingan referent obektga ekologik muammolarni kiritishimiz mumkin. Hozirda milliy xavfsizlik va milliy manfaatlar ajralmas paradigmalar sifatida ko‘rilmoqda. Davlatlarning xavfsizlik manfaatlari

ekologik muammolarning hal etilishiga bog‘liq ravishda belgilanyotgani asta-sekinlik bilan ruyobga chiqmoqda.

Yuqorida biz bir nechta xavfsizlikka yangi yondashuvlar paydo bo‘lganini ko‘rsatib o‘tgan edik. Quyida ushbu yangi xavfsizlik konseptsiyalarning ba‘zilarini milliy manfaatlarni belgilashga ta’sirini qiyosiy jadvalga keltirishga harakat qildik.

1-jadval

Xavfsizlikning ba'zi yangi kontseptsiyalari va ularning milliy manfaatlar bilan bog‘liqligini qiyosiy tahlili

Yangi xavfsizlik konseptsiyalari	Ta’rifi	Milliy manfaatlarga ta’siri
Inson xavfsizligi	Inson qadr-qimmati va farovonligini qashshoqlik, kasallik, zo‘ravonlik va inson huquqlarining buzilishi kabi turli tahdidlardan himoya qilish.	Gumanitar (Inson) xavfsizlik milliy manfaatlar doirasini kengaytirib, mamlakat ichida va undan tashqarida shaxslar va jamoalarning ehtiyojlari va huquqlarini qamrab oladi. Bu, shuningdek, davlatga yo‘naltirilgan xavfsizlik siyosati va amaliyotidan insonlarga yo‘naltirilgan xavfsizlik siyosati va amaliyotiga o‘tishni qo‘llab-quvvatlaydi.
Ekologik xavfsizlik	Inson farovonligi va atrof-muhitni iqlim o‘zgarishi, ifloslanish va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi ekologik tahdidlardan himoya qilish.	Ekologik xavfsizlik milliy manfaatlarni barcha tirik mavjudotlarning yashashi va gullab-yashnashi uchun zarur bo‘lgan sayyoramizning salomatligi va barqarorligi bilan bog‘laydi. Shuningdek, u global ekologik inqirozni hal qilish uchun turli sub’ektlar va sektorlar o‘rtasida hamkorlik va harakatlarni muvofiqlashtirishni ilgari suradi.
Kiberxavfsizlik	Axborot-kommunikatsiya tizimlari va tarmoqlarini xakerlik, sabotaj, josuslik va kiberurush kabi turli tahdidlardan himoya qilish.	Kiberxavfsizlik muhim infratuzilma xavfsizligi, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, fuqarolarning shaxsiy hayoti va demokratiyaning yaxlitligi kabi turli jihatlardagi milliy manfaatlarga ta’sir qiladi. Shuningdek, u yangi xavfsizlik sohasi sifatida kiber makonni rivojlantirish va tartibga solish bilan bog‘liq.
Enegiya xavfsizligi	Iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi turli maqsadlar uchun energiya manbalari va xizmatlarining mavjudligi, foydalanish imkoniyati,	Energiya xavfsizligi milliy manfaatlarga turli yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi, masalan, xorijiy energiya ta’minotiga qaramlik, energiya portfellarini diversifikatsiya qilish, kam uglerodli energiya tizimlariga o‘tish, energiya mojarolari va hamkorlikni boshqarish.

Yangi xavfsizlik konseptsiyalari	Ta'rifi	Milliy manfaatlarga ta'siri
	arzonligi va barqarorligi.	
Salomatlik xavfsizligi	Yuqumli kasalliklar, bioterrorizm va pandemiya kabi aholi salomatligiga turli tahdidlarning oldini olish, aniqlash va ularga javob berish.	Sog'liqni saqlash xavfsizligi inson hayotini himoya qilish, Sog'liqni saqlash tizimlarining barqarorligi, ijtimoiy va iqtisodiy buzilishlarni yumshatish va global sog'liqni saqlash boshqaruvini rag'batlantirish kabi turli yo'llar bilan milliy manfaatlarga ta'sir qiladi.

XXI asr muammolarining murakkab relefida harakat qilishda ekologik xavfsizlikka qaratilgan milliy manfaatlarning o'rnatilishi global xavfsizlikning o'zaro bog'liqligini bildiradi. Davlatlar o'z ustuvorliklarini qayta belgilar ekan, ular ekologik barqarorlikka sodiqlik nafaqat ma'naviy shart, balki uzoq muddatli xavfsizlik va farovonlikni ta'minlash uchun strategik zarurat ekanligini tan olmoqdalar.

Adabiyotlar ruyxati:

1. Buzan B., Waever O. Security: A New Framework for Analysis. — Boulder: Lynne Rienner Publishers, 1998. URL: https: // www.academia.edu/ 35332225/ Security_a_New_Framework_for_Analysis. (Murojaat sanasi: 28.09.2023)

2. Countries must put aside national interests for climate crisis, UN says. URL: https://www.theguardian.com/environment/2023/jun/05/countries-must-put-aside-national-interests-for-climate-crisis-un-says. (murojaat sanasi: 02.10.2023)

3. Climate and Environment - United States Department of State. URL: https://www.state.gov/policy-issues/climate-and-environment/. Murojaat sanasi: 02.10.2023

4. Troitskiy M.A. Why Are National Interests Necessary? Russia in global affairs. No. 2 2015 April/June. URL: https://eng.globalaffairs.ru/articles/why-are-national-interests-necessary/. Murojaat sanasi: 30.09.2023

5. The Integrated Review 2021. URL: https: // www.gov.uk/ government /collections/ the-integrated-review-2021 (murojaat sanasi: 02.10.2023).

6. Waever O, "Securitization and Desecuritization," in International Security: Widening Security, vol. 3, edited by Barry Buzan and Lene Hansen, 4 vols. (Los Angeles: Sage Publications, 2007), 66–99. Sited in Securitization and Desecuritization by Ole Waever — A Summary. URL: https: // clueless political

scientist. wordpress. com/2020/08/05/securitization-desecuritization-ole-waever-a-summary/. Murojaat sanasi: 04.10.2023

7. Morozov V.YE. Bezopasnost kak forma politicheskogo: o sekyuritizatsii i politizatsii // Politicheskiye issledovaniY. — 2011. — № 3. — S. 24-35. URL: https://www.politstudies.ru/files/File/2011/3/3.pdf. Murojaat sanasi: 04.10.2023

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHNING INNOVATSION YECHIMLARI (TA'LIMDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH MISOLIDA)

I.M.HAYDAROV
Jamoat xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi,
Psixologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

Ma'lumki, zamonaviy psixologik xizmat ko'rsatishning bosh maqsadi ta'lim – tarbiya muhitidagi o'quvchilar hamda talabalarning individual imkoniyatlari o'rganish hamda o'quv faoliyatining intellektual, kognitiv, emotsional, motivatsion jihatlarini ilmiy jihatdan tekshirishdan iboratdir. Bundan tashqari, ta'lim tarbiyadagi buzilishlarning psixologik sabablarini aniqlash, shaxsdagi xulq-atvor buzilishlarni yo'qotish hamda uni oldini olishning psixologik chora-tadbirlarini ishlab chiqish masalalarini ham maqsad qiladi. Qoidaga ko'ra, psixologik xizmat tashkil etish yosh va pedagogik psixologiya, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixologik maslahat sohasida umum-psixologik va maxsus psixologik bilimlar olgan mutaxassislar (psixolog) tomonidan amalga oshiriladi.

Psixologik xizmatga jalb qilingan pedagoglar esa, bu mutaxassislikni olish uchun maxsus qayta tayyorgarlikdan o'tishlari lozim. Mohiyatan, psixologik xizmat bir necha bosqichli jarayon sanalib, unda psixologik maslahat, psixodiagnostika va psixokorreksiya kabi sohalar usullaridan samarali foydalaniladi. Quyida biz ta'lim har qanday ta'lim muhiti uchun qulay sanalgan psixologik xizmat va uning tarkibiy chora-tadbirlari haqida to'xtalib o'tamiz.

I.G.Kolesnikovaga ko'ra, ta'lim muhitida psixologik konsultatsiya ishlarini olib borishda psixolog mutaxassis quyidagi ishlarni olib boradi:

-Bolalar, o'qituvchilar, talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat, direktor, rektor, mudir, o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari, xodimlariga aniq, ilmiy asoslangan maslahatlar berish;

-Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga etmaganlar munosabati, masalan, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish;

-Ma'muriyatga, bolalar, o'quvchilar, talabalarga (yotoqxonada, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar boyicha bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik o'sishi xususiyatlariga oid ma'lumot berishi,o'g'il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni g'amxo'rlik va vasiylik to'g'risidagi qabul qilgan qarorga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr berishi lozim;

- Ota onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi boyicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi;

-yangi tipdagi maktablarga o'rta-maxsus va kasb-hunar kolleji o'quvchilari, akademik litsey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to'g'risida ilmiy – amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish: yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.

Mazkur ishlar ta'lim sub'ektlarini maktabda, litseylarda, universitetlarda o'qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini,ta'lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashga mo'ljallangandir. Diagnostik ishlar guruhiy yoki individual tarzda o'tkaziladi. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi. Maslahat berish ishlari-amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Maslahat berish ishlari o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruhiy bo'lishi mumkin. Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ko'pincha psixologga quyidagi muammolar boyicha murojaat qiladilar: turli fanlar boyicha o'quvchilarning o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, bolalarning o'qiy olmasligi va istamasligi, guruhda nizoli vaziyatlar, shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari oila muloqoti va bolalar jamoasining shakllanishi, kasbiy malakalarini oshirish yo'llari, o'quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llari, o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish.

Psixolog o'quvchi yoki talaba yoshlar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu to'g'ridan to'g'ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o'quvchilarga va ota-onalarga o'qituvchilarning u yoki bu muammolari boyicha maslahat beradi, bu bavosita maslahat berishdir, bunda ma'lum qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi. Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning o'zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o'zaro munosabatni o'rnatish yotadi. Bunda psixolog – maslahat beruvchi, o'qituvchi, ota-ona – maslahat beriluvchi, o'quvchi mijoz rolida bo'ladi.

Maslahat berish–psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Lekin psixologik maslahat o‘zi nimaligi haqida yagona tushuncha yo‘q. Kollejlardagi yoki akademik litseylardagi psixolog ishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Psixolog aniq o‘quv muassasasidagi o‘qituvchilar va o‘quvchilar orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlarining, rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo‘ladi. U har bir o‘quvchi yoki o‘qituvchining o‘zinigina emas, shaxslararo munosabatning murakkab sistemasini ham ko‘radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi. E.M.Lsenkoning aytishicha, o‘z sohasini yaxshi biluvchi psixolog mutaxassisning sifatlari quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- O‘quvchi muammolari boyicha ularning hamkorligi bilimlarining birikuviga imkon beradi va muammolarni hal qilish uchun keng ijodiy imkoniyatlar yaratadi. Maslahat berishning asosiy ahamiyati ana shunda; - Psixolog o‘quvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidori kabilarni o‘rganadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam ko‘rsatadi; - Maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘quvchilar, hunar bilim yurti tinglovchilari yangi tipdagi maktab, oliy o‘quv yurti talabalarida uchraydigan o‘quv malakalari va ko‘nikmalarini egallashdagi nuqsonlar xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlarni diagnostika qiladi; - Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi.

Assosial xulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomanlik, alkogolizm, o‘g‘rilik, daydilikning ijtimoiy psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarni tahlil qiladi; - Iqtidorli talabalar, yosh mutaxassislarni tanlashda ishtirok qilish ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish va unga asoslanib, ularga nafaqalar belgilashda ishtirok etadi va hokazo. Psixolog konsiliumda ishtirok etib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Pedagogik jamoa o‘quvchi psixik va shaxsiy xarakterlarini turli tomondan ko‘rsatish, bunda albatta ijobiy kuchli tomonlarni ta’kidlash joiz. Kuzatish, suhbat, psixodiagnostika natijalariga asoslanib, o‘quvchi muammolarining kelib chiqishi haqida isbotlangan farazlarni keltirish zarur;

2. Har bir o‘qituvchida o‘quvchiga nisbatan ustanovkasini o‘zgartirishga erishish zarur. Bu juda qiyin vazifa bo‘lib, uni ehtiyotkorlik bilan hal qilish zarur, konsilium o‘tkazguncha sekin-asta boshlash kerak. Ko‘pincha o‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan fikrini o‘zgartirgisi kelmaydi. O‘qituvchi bunda psixolog nima haqida gapirayotganini tushunmaganligi uchun emas, balki ongli ravishda o‘z hayotini murakkablashtirgisi kelmaganligi uchun shunday qiladi;

3. Barcha o‘qituvchilarning o‘quvchi muammolarini, uning shaxsi mohiyatini jamoa bo‘lib, tushunishlariga erishish. Faqat ana shu holda o‘quvchi foydasiga

o‘zaro harakat qilishlariga ishonish mumkin. Shunday qilib, psixologik-pedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Yuqori darajada tayyorlangan konsilium - o‘quvchilarning, o‘qituvchilarning va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi. Ta’lim muhitida psixologning profilaktik ishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kollej va lisey o‘quvchilarining mazkur muhitga moslashishlariga oid. Kollej, lisey, gimnaziyalarga o‘quvchilarni qabul qilishda ishtirok etish, o‘qituvchilar bilan hamkorlikda o‘quvchilar bilan individual ishlash dasturini ishlab chiqish. Lisey va kollejlarda bir sinfdan boshqa sinfga o‘tkazishni psixologik jihatdan tekshirish, o‘quvchilar, ota-onalar bilan hamkorlikda ta’limning yangi bosqichiga o‘quvchining tayyorgarligini hisobga olgan holda yakka hol ishlash dasturini yaratish, shuning bilan birga ota-onalarga farzandlari bilimlaridagi uzilishlarni kamaytirish uchun maxsus uslubiy yo‘l – yo‘riq berish. Ta’lim va tarbiya, yashash sharoiti bilan bog‘liq nevrotik holatlar, psixologik zo‘riqishning oldini olish uchun bolalar bilan ishlash. Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion ishi murakkab faoliyat turlaridan biri bo‘lib, maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Amaliyotchi psixologning diagnostik - korreksion faoliyati murakkab, javobgarlikni talab qilishi bilan birga, kam ishlagandir. Bu jarayon birinchi bo‘lib, tarbiyasi qiyin va normal bolalarni o‘rganishga bag‘ishlangan pedagogik tadqiqotlarda Tadqiqotchi T.I.Chirkova o‘zining “Psixologik xizmat nazariyasi va amaliyoti” nomli o‘quv qo‘llanmasida, muammoli shaxslar bilan ishlashda qo‘llaniladigan psixoprofilaktikaning uch bosqichini ajratib ko‘rsatadi:

Birinchi bosqich dastlabki profilaktika deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog‘ bolalar bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha o‘quvchilarni qamrab oladi. Ko‘pchilik mualliflarning ta’kidlashicha, maktab psixik sog‘liq profilaktikasiuchunqulay hisoblanadi. Ular maktab psixologlarini dastlabki profilaktikani o‘tkazadigan mutaxassislar deb tan oladilar.

Ikkinchi bosqich profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi - o‘qishdagi va xulq - atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erta aniqlab, ularni yo‘qotishdan iboratdir. Ikkinchi bosqichda ota-onalar va o‘qituvchilarga maslahatni ham o‘z ichiga oladi bolaning o‘qishi o‘zgarishi uchun ta’lim uslubini o‘zgartirish.

Uchinchi bosqich. Psixolog o‘qishdagi va xulq - atvordagi yaqqol ko‘rinib turadigan muammolari bor bolalarga o‘z diqqatini qaratadi. Profilaktikaning dastlabki maqsadi - jiddiy psixologik qiyinchiliklarni va muammolarni yo‘qotish va tuzatishdan iborat.

Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya’ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi va o‘quvchilarning asosiy qismi psixolog e’tiboridan chetda qolib ketadi. Hozirgi

amerika psixologlari maktablardagi psixologik xizmatni psixik sog‘liq xizmati sifatida faoliyat ko‘rsatishning tarafdori bo‘lib chiqmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, psixologik xizmatda so‘ngi bosqich sanalgan, psixoprofilaktik chora-tadbirlardan asosiy maqsad, har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi, aqlan barkamollikni ta’minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ravshanbek J. (2022). CREDIT-MODULE SYSTEM, ITS BASIC PRINCIPLES AND FEATURES. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(4), 304-309.
2. Yakubjonov I., Azizov M., Yakubjonova F. RAZVITIYE FIZICHESKOY PODGOTOVKI I SPORTA V FORMIROVANII ZDOROVOGO MOLODOGO POKOLENIY. Educational Research in Universal Sciences, 1(3), 170-173.
3. Akramjonovich Y.I., Azamovich A.M., Ilyasovich M.S. Developing human thinking and moving speed through table tennis. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 164-165.
4. Yakubjonov, I. A. (2021). Modern Requirements For Teaching Discipline “Sports” In Higher Education. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research, 3(02), 21-23.
5. Shodiyev E., Irmatov SH., Yakubjonova F. (2021). Jismoniy tarbiya darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Obshestvo i innovatsii, 2(2/S), 683-687.

YOSHLARDA HARBIY VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA KORRUPSIYAGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

F.M.BOYTURAYEV
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Hozirgi jahonda yuz berayotgan geosiyosiy voqealar va o‘zgarishlar yoshlarda harbiy vatanparlik tuyg‘usini shakllantirishda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish masalalari alohida dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

“Korrupsiya” so‘zi etimologik kelib chiqishi lotin tilidan olingan bo‘lib, *«correi»* (hamjihatlik) i *«rumpere»* (buzish, aynish, sindirish) ma’nolarini berib, har qanday jamiyatda fuqarolarning hamjihatligi va o‘zaro ishonchli hamkorligi muhitiga putur yetkazadi.

Jumladan, Rossiya[21] va Ukraina[22] o‘rtasidagi harbiy mojarolar ushbu mamlakatlar harbiy tuzilmalaridagi korrupsiyaning davlatning mudofaa qobiliyatiga, shuningdek harbiy xizmatchilarning kayfiyati va aholining milliy armiyaga bo‘lgan ishonch hissiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishini namoyon qildi. Xususan, Ukrainada harbiy xizmatga chaqiriluvchilarga soxta hujjatlar rasmiylashtirib berish, pora evaziga xorijga chiqishga ko‘maklashish orqali harbiy xizmatdan bo‘yin tovlashga ko‘maklashish bilan shug‘ullanib kelgan jinoiy guruh fosh etilgan. Bundan tashqari, yetkazib berilgan harbiy mol-mulk, gumanitar yordam, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi va uy-joy bilan ta’minlashga yo‘naltirishi lozim bo‘lgan mablag‘lar talon-toroj qilingan[23]. Natijada ushbu davlatlar harbiy tuzilmalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan bir qancha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishishdi[24].

Mazkur geosiyosiy voqealar fonidagi xorijiy mamlakatlardagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish davomida aniqlanishicha, ushbu yo‘nalishdagi quyidagi korrupsiya ko‘rinishlari yoshlarning armiyaga bo‘lgan ishonchi va harbiy vatanparvarlik ruhini qaror toptirishda salbiy rol o‘ynamoqda:

- yoshlarning safarbarlik yoki harbiy yig‘inlarda ishtirok etmasligi evaziga mudofaa ishlari bo‘limlari mansabdor shaxslariga pora berishi[25];

- harbiy tuzilmalar yoki ular tarkibidagi muassasalarga xizmatga qabul qilinish yoki lavozimga tayinlanish, moddiy rag‘batlantirish jarayonlarida pora berish va pora olish[26];

- harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish yoki harbiy xizmatchilarni davolash jarayonlarida harbiy tibbiyot komissiyasi a’zosi bo‘lgan tibbiyot xodimlariga pora berish va pora olish[27];

- harbiy ehtiyojlar uchun tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilishda (davlat xaridlarida) o‘zaro jinoiy til biriktirish, poraxo‘rlik, sun’iy oshirilgan qimmat narxlarda xaridlarni amalga oshirish, tegishli muvofiqlik talablariga to‘g‘ri

---

[21] Дело генералов: коррупция в Министерстве обороны // https://topwar.ru/191470-delo-generalov-korrupcija-v-ministerstve-oborony.html

[22] Коррупция в ВС Украины? Что известно на данный момент // https://www.dw.com/ru/korrupcia-v-verhovnom-sude-ukrainy-cto-izvestno-na-dannyj-moment/a-65650036

[23] Коррупция на Украине в условиях войны: основные схемы и технологии обогащения чиновников // https://colonelcassad.livejournal.com/8174791.html

[24] Война в Украине: Коррупция станет госизменой // https://aussiedlerbote.de/2023/08/voina-protiv-ukrainy-situatsiia-takova-45/

[25] Вручение взятки в военкомате для освобождения от армии // https://vfront.ru/armiya-drugoe/vzyatki-v-voenkomatah.html?utm_referrer=https%3A%2F%2Fyandex.ru%2F

[26] Врачей военного госпиталя в Приамурье оштрафовали за дачу взяток // https://dzen.ru/a/Y3NnwcYT93qW90V7

[27] Военные медики брали взятки у раненых и бывших военнослужащих за инвалидность // https://specnaz777.livejournal.com/6205841.html

kelmaydigan tovarlarni qabul qilib olish, hujjatlarni soxtalashtirish, harbiy mol-mulkni talon-taroj qilish[28].

O‘zbekistonda ham harbiy xizmatchilar yoki yoshlar bilan ishlovchi mudofaa bo‘limlari xodimlari tomonidan sodir etilayotgan korrupsiya holatlari ham yoshlarning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimiga salbiy ta’sir qilayotgan omillardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xususan, Toshkent shahrida mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i harbiy xizmatga majbur fuqaroga harbiy yig‘inlarda ishtirok etmasdan, harbiy guvohnoma rasmiylashtirib berishni va’da qilib, buning evaziga 600 AQSH dollarini olgan vaqtida jinoyat ustida ushlangan[29].

Yoki, Buxoro viloyati Qorako‘l tumani mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i fuqaroga viloyat mudofaa boshqarmasi safarbarlik rezerviga ishga qabul qilinishida yordam ko‘rsatishi evaziga 100 AQSH dollari va 12 bosh kurka bolalarini pora tariqasida olganida jinoyat ustida ushlangan[30].

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi tizimiga kiruvchi ayrim korxona, muassasa va tashkilotlarda davlat xaridlari sohasidagi turli qonun buzilishlari qayd qilingan[31].

Yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda korrupsiyaning ta’sirini o‘rganish maqsadida muallif tomonidan yoshlar vakillari bilan intervyu usulida bir qancha anonim so‘rov - suhbatlar o‘tkazildi va ijtimoiy tarmoqlardagi bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, korrupsiya holatlariga duch kelganligini tasdiqlagan yoshlar aksariyat holatlarda (29%) haydovchilik guvohnomasi olish yoki armiyaga xizmatga chaqirilish jarayonlarida korrupsiyaning shohidi bo‘lgan. Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shaklantirishda tashqi muhit – jamiyatning boshqa a’zolarining, ayniqsa ota-onalarning va pedagoglarning hulq-atvori ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, 27% yoshlarning oilasi vakillari yoki yaqinlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoki maktabda korrupsiya holatlariga duch kelganliklarini ma’lum qilishdi. 32% yoshlar korrupsiyaning shohidi bo‘lgan taqdirda, “o‘ziga muammo orttirmaslik uchun” huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaslikni eng maqbul yo‘l sifatida e’tirof etgan. Shuningdek, ba’zi yoshlarda (16%) salbiy tashqi muhit ta’siri ostida korrupsiyaga nisbatan shaxsiy muammolarini hal qilish vositasi sifatida yondashishda ifodalangan salbiy hulq-atvor shakllangan, ya’ni bunda yetarli bilim olmasdan, o‘qishga kirish, imtihonlarni

---

[28] Коррупция в сфере государственных закупок для нужд обороны страны: ответственность ужесточается // https://urfac.ru/?p=553

[29] Начальник районного военкомата в Ташкенте задержан при получении $600 // https://www.gazeta.uz/ru/2023/04/17/bribes/

[30] Мудофаа бўлими бошлиғи 100 АҚШ доллари ва 12 бош курка болаларини пора тариқасида олаётганда қўлга тушди // https://uza.uz/uz/posts/tamagir-rahbar-qolga-tushdi_304384

[31] Коррупцияга қарши курашиш агентлиги томонидан 2022 йил 6 ойи давомида давлат харидларига оид қонунчилик талабларига риоя қилиниши юзасидан баёнтот // https://t.me/antikor_uzb/1584

topshirish, haydovchilik guvohnomasi olish yoki ishga kirishga intilish namoyon bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etmaslikka chaqiriqlarning o‘zi yetarli emas. Ushbu jarayonlarda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf qilish ham muhim sanaladi.

Tizimli yondashuv asosidagi tahlillar ushbu yo‘nalishdagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilishiga olib kelayotgan bir qancha sabab va shart-sharoitlarning mavjudligini ko‘rsatmoqda:

- ayrim yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi huquqiy bilimlarining yetishmasligi, jumladan firibgarlar yoki ba’zi davlat xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga dalolat qilish holatlarida qanday harakat qilishi lozimligidan bexabarlik;

- yoshlarda korrupsiyaga qarshi toqatsiz munosabatda bo‘lishga qaratilgan targetli targ‘ibot-tushuntirish ishlarining, ayniqsa yoshlar uchun mo‘ljalangan badiiy adabiyotlarning yuqori saviyada emasligi;

- tashqi muhit, ayniqsa ba’zi yoshi katta avlod vakillarining salbiy urf-odatlari, tarbiyasi va mentaliteti bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlar;

- yoshlarning muammolari bilan ishlovchi va ushbu sohada davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi organlar faoliyati ustidan nazoratning yetarli darajada emasligi yoki ayrim tartib-taomillarning tartibiga solinishidagi huquqiy bo‘shliqlar, ortiqcha byurokratik to‘siqlar (ortiqcha hujjatlar talab qilish);

- ayrim yoshlarda turli hayotiy vaziyatlar, harbiy xizmatga chaqiruv bilan bog‘liq tibbiy ko‘rik, imtihonlar topshirish, haydovchilik guvohnomasi olish jarayonlarida nohalol usullardan foydalangan holda shaxsiy muammolarini hal qilishga bo‘lgan intilishida ifodalangan salbiy hulq-atvor;

- korrupsiya holatlari haqida xabar berganlik yuzasidan jamiyatning ba’zi boshqa a’zolarining salbiy munosabati;

- harbiy tuzilmalar yoki ular tarkibidagi tashkilotlar faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflikning yetarli darajada emasligi.

O‘z navbatida, yoshlarda korrupsiyaga qarshi toqatsiz munosabatni shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinadi:

- yoshlarda korrupsiyaga qarshi toqatsiz munosabatni shakllantirishda nafaqat yoshlar kontingenti, balki tashqi muhit - ota-onalar, pedagoglar orasida ma’naviy – ahloqiy tuzatish ishlarini olib borishga yo‘naltirilgan targetli ijtimoiy roliklar tayyorlash, bunda ayniqsa badiiy adabiyotlar va kino san’ati imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- o‘z bilimi va intilishi orqali yuqori maqsad va natijalarga erishgan yoshlarni ijtimoiy reklama qilish orqali yoshlarda nopok yo‘llar orqali shaxsiy muammolarni hal qilishga intilish darajasini kamaytirish;

- nopok yo‘llarni tanlash orqali o‘qishga, ishga kirish yoki haydovchilik guvohnomasi olishning salbiy oqibatlarini tushuntirish ishlari olib borish;

- ta’lim-tarbiya berishda Germaniya, Shveysariya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya ijobiy tajribasi jihatlarini qo‘llash, ya’ni bunda yosh avlodni juda kichik yoshligidan faol fuqarolik pozitsiyasida bo‘lishga qaratilgan tarbiya olib boriladi, ya’ni jamiyada sodir bo‘layotgan har qanday korrupsiya yoki jinoyat ko‘rinishlariga munosabat bildirish va tegishli organlarga xabar berish fuqarolik burchi sifatida uqtiriladi;

- yoshlar orasida o‘tkaziladigan musobaqalar va tanlovlar jarayonlarini nazorat ostiga olish va ushbu jarayonlarning ochiqligini ta’minlash orqali samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

- yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar, ayniqsa maktabgacha ta’lim va maktablarda korrupsiya holatlarining oldini olish, ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish bo‘yicha kopleks chora-tadbirlar ko‘rish, ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari va o‘qituvchilarga munosib ish haqi to‘lash.

Xulosa sifatida aytish mumkin, yoshlarda harbiy vatanparlik tuyg‘usini shakllantirishda korrupsiyaga qarshi masalalari ham alohida ustuvorlikka ega. Zeroki, kelgusidagi “Yangi O‘zbekiston” jamiyatining taqdiri va kelajagi yoshlar qo‘lidadir, yoshlar tarbiyasining darajasi ertangi kun taraqqiyotini belgilaydi.

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH DAVLATNING USTUVOR VAZIFASI SIVATIDA

H.G‘.SAIDOV
Urgansh davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya
va falsafa kafedrasi dotsenti, (PhD)

Jahonda roy berayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va mafkuraviy o‘zgarishlarning shiddati milliy davlatlar oldiga yangi-yangi vazifalar qoymoqda. Ular o‘z suverenitetini mustahkamlash, xalqi osoyishtaligini va milliy xavfsizligini ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning konstruktiv yo‘llarini topish, integratsiyani o‘zaro manfaatlar uyg‘unligiga qurish mexanizmlarini yaratishga intilmoqda. Globallashuv jarayonlari ko‘rsatmoqdaki, xalqaro integratsiya milliy davlatlarning faol ishtiroki, o‘z manfaatlarini o‘zlari himoya qilishi, buning ushun esa o‘z xavfsizligini ta’minlashi orqaligina konstruktiv voqelikka aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, aholida xususan, yoshlar milliy xavfsizlikka va ijtimoiy taraqqiyotga erishish, globallashuv vatanparvarlikka va milliy g‘ururga ijobiy ta’sir etmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohatlar, mamlakat xavfsiziligini, xalqning osoyishta va tinsh yashashini ta’minlash, harbiy xodimlarning harbiy texnik tayyorgarligi va jangovarligini kushaytirish, ulardagi vatanparvarlik va milliy g‘urur

tuyg‘usini yangi bosqishga ko‘tarishni ob’ektiv ehtiyojga aylantirdi. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek “Shuni alohida ta’kidlash kerakki, armiyamizda vatanparvarlik tarbiyasi, milliy ruhni yuksaltirish hamon dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Harbiy xizmatshilarning qalbi va ongida milliy g‘urur, ona yurtga sadoqat, vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg‘usini kushaytirish, barsha yoshlarimizni shu asosda tarbiyalash borasida jiddiy tizimli kamshiliklar mavjud”[32]. Harbiy vatanparvarlik va milliy g‘ururni shakllantirishni uyushgan ta’limiy tizim, davlat tamonidan yaratilgan maxsus o‘quv yurtlari, maktablari va davlat sheriklik tartibida shakllantirilgan o‘quv markazlari orqali olib borish samarali natijalar beradi. Buni Toshkent, Andijon, Samarqand va Nukus shaharlarida tashkil etilgan “Temurbeklar” maktablari ham tasdiqlaydi. Buyuk ajdodimizning davomchilarini kamol toptirish maqsadida Urganchda Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey tashkil etdik. Bu mardlik maktabi joriy yil ilk bor o‘quvchilarni o‘z bag‘riga qabul qilmoqda. Ularning barchasiga omad va zafarlar tilab, kelgusida bu navqiron avlod orasidan ulug‘ sarkardaning munosib izdoshlari bo‘lgan haqiqiy vatanparvar o‘g‘lonlar, jasur ofitserlar chiqishiga ishonaman.[33] O‘zbekiston bu borada biror mamlakatda uchramaydigan, o‘ziga xos tizimni yaratishga intilayapti. Unda bir tomondan, siyosiy-harbiy va tarixiy tajribalarga asoslanish (masalan, “Temurbeklar” maktablari va “Manguberdi izdoshlari” kabi tadbirlar), ikkinshi tomondan, zamonaviy bilimlar, harbiy texnik taktikalar va axborot texnologiyalardan foydalanish orqali yoshlarni harbiy xizmatlarga tayyorlash, uchinchi tomondan, “Armiya xalq bilan birga” kontseptsiyasiga muvofiq joylarda, aholi o‘rtasida harbiy vatanparvarlik va milliy g‘ururga oid ommaviy tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o‘tkazib borish nazarda tutiladi.

Sh.Mirziyoyevning Amir Temur siyosiy-harbiy va tarixiy merosiga murojaat etishi behuda emas. Uning ko‘rsatmasiga muvofiq mamlakatlarimizdagi barcha harbiy litseylarga “Temurbeklar maktablari” deb nom berildi. “Temurbeklar maktablari” harbiy vatanparvarlik ta’limi, tarbiyasi tizimining ilk bosqichi hisoblanadi. Ularda yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temurning mahorati, fazilatlari, askarlarni ushlab turish, o‘z atrofiga birlashtirish va g‘alabaga ilhomlantirishda to‘plagan amaliy tajribalari bilan tanishtirish nazarda tutiladi. Natijada harbiy mutaxassislar tayyorlash tizimida ikki bosqich yuzaga keldi: birinchisi “Temurbeklar maktablari” kabi ilk bosqich va ikkinchisi, maxsus harbiy ta’lim maskanlari. Shu o‘rinda yoshlar kasbiy va jismoniy tayyorgarligi, ma’naviyati va umumnazariy bilimlariga qarab imtihonlardan o‘tadilar. O‘qishga qabul qilingan yoshlar shartnoma

[32] Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. 4-Jild. Toshkent.: O’zbekiston, 2020. – B. 130-131

[33] Mirziyoyev SH.M. Jaloliddin Manguberdi yodgorligi ochilishidagi nutqi. Yangi

boyisha harbiy xizmatchilar axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan o‘quv xonalari, o‘quv laborotoriyasi, kompyuterlashttirilgan tranajyorlar hamda dala o‘quv maydonlarida kasb-kor, professiogrammaga oid sirlarni, ko‘nikmalarni egallaydilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, ta’lim muassasalari o‘quvchi va talaba yoshlari, mahallalardagi uyushmagan, profilaktik hisobda turuvchi hamda tarbiyasi og‘ir yoshlar, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari, Qurolli Kuchlar safida xizmat o‘tayotgan yosh harbiy xizmatshilar (xodimlar) harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarining asosiy ob’ektlari hisoblanadi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko‘nikma, mahorat va mustahkam irodani, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan omillardan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy-amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, oyinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular ma’naviy-ma’rifiy ishlarning rang-barangligini ta’minlaydi, pirovard natijada jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bunda quyidagi shakllar ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi:

ma’ruza o‘qish, savol-javob keshalari, yakka va jamoaviy suhbatlar;

boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan harbiy xizmatshi va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g‘olib bo‘lgan shaxslar bilan ushrashuvlar;

ilmiy-nazariy va amaliy konferentsiyalar, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag‘ishlangan kechalar, bahs-munozaralar, viktorinalar, davra suhbatlari;

to‘plangan ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish;

jamoatchilik fikri va harbiy jamoalardagi ma’naviy-ruhiy muhitni o‘rganish;

urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar qatnashchilari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari bilan ushrashuvlar tashkil etish;

harbiy xizmatga chaqiriluvchilar kuni, mardlik saboqlarini o‘tkazish va ekskursiyalar uyushtirish.

O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining umumharbiy nizomlarida askarlarda Vatan himoyasiga axloqan va ruhan shaylikni shakllantirish asosiy vazifalardan biri ekani qayd etiladi. Vatan himoyasi - milliy g‘urur ifodasi. Milliy g‘ururga ega, vatanparvar shaxsgina vatan himoyasini o‘zining muqaddas burchi deb biladi. Vatanparvarlik, - deb yozadi falsafa fanlari doktori, professor, akademik E.Yusupov, - so‘zda emas, balki amaliy ishlarda, vatan himoyasida namoyon

bo‘lganidagina taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylanishi mumkin[34]. Insonda hech qashon tugallangan vatanparvarlik e’tiqodi bo‘lmaydi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanparvarlikning, ona-yurtga bo‘lgan mehr-muhabbatning yangi-yangi qirralarini keltirib chiqara beradi. Binobarin, har bir shaxsda Vatan tushunchasining shakllanishi uning ma’naviy kamoloti va jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga E.Yusupov Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo‘llari quydagilar: Vatan- betakror ona diyordir, O‘zbekistonning istiqlol va istiqbolini chuqur o‘rganish, Mustaqil O‘zbekistonda hozir shakllanayotgan vatanparvarlikning o‘ziga xos mohiyat va xususiyatlari, Ona yurt tarixini bilish va u bilan faxrlanish, Turkiston xalqlarining jaxon fani va madaniyati taraqiyotiga qo‘shgan hissasini bilish, Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish va hurmat qilish, Xuquqiy, axloqiy burch va mas’uliyat tuyg‘usi birligi, Bozor munosabarlari sharoitida vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanishi va rivojlanishi, Ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish, Halol, ijodiy fidokorona mehnat qilish va vatan boyligiga boylik, qudratiga qudrat qo‘shish, Xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfatlarini birinshi o‘ringa qoyish, Harbiy vatanparvarlik an’analariga sodiq qolish, yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, O‘zbekistonning davlat ramzlariga hurmat. Ammo bu borada qilinayotgan ishlar hali etarli emas. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning keng qamrovli ilmiy, uslubiy tizimi hanuz etarli o‘rganilmagan. Demak, vatan himoyasi, vatanparvarlik amaliy faoliyat ifodasi sifatida inson hayoti-harakatlarida o‘z aksini topadi. Ushbu tamoyil, talab vatan himoyasi va vatanparvarlikni sxolastika, safsata bo‘lib qolishdan asraydi, harbiy xodimlar faoliyatiga aniq mohiyat, ijtimoiy xususiyat baxsh etadi. To‘g‘ri, hech bir tuyg‘u va g‘oya sub’ektiv omil ta’sirisiz shakllanmaydi. Biroq harbiy xodimlardagi sub’ektiv omil har doim aniq ko‘rinish, xatti-harakat turi sifatida kelishi zarur.

Xalq, millat manfaatlarini har narsadan, hatto jonidan ham ustun qoyish harbiy xodimlar oldiga qoyiladigan odatiy talabdir. Busiz milliy g‘urur quruq tilak, kerak bo‘lib qoladi. Tarixiy xotira esa xalq, millat manfaatlariga xizmat qilgan, hayotini, borini umummilliy maqsadga sarflagan kishilarni ideal, ibrat, namuna qilib ko‘rsatadi. Ular o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik tarixiy faktni, ya’ni ijtimoiy-tarixiy hayotda sezilarli iz qoldirgan ideal obrazni mavjud borliqqa tadbiq etish tarzida ko‘zga tashlanadi. Biz ular o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni goho payqamasligimiz ham mumkin, chunki har bir xodimlar faoliyatida amaliyot, xatti-harakat ustuvorlik qiladi. Ammo xalq, millat manfaatlariga xizmat qilishi ijtimoiy-tarixiy faktdan, ideal obraz hayot tarzidan unib shiqqanini inkor etish qiyin. Qanday bo‘lmasin, biz xalq, millat manfaatlariga xizmat qilish ota-bobolarimizdan qolgan meros ekanidan ko‘z

[34] Erkin Yusupov . Inson kamolatining ma’naviy asoslari . Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 1998. 151 b.

yumolmaymiz. “Ona Vatan tarixini holisona bilish, o‘tmishni to‘g‘ri anglash bilan birga, ajdodlar tajribasini himoyaga olib, mustaqil rivojlanishning yangi imkoniyatlarini topishga yo‘l ochishga, vatanni yanada chuqurroq e’tiqod bilan sevishga olib keladi. O‘zbekiston Qurolli Kuchlari davlat muzeyida Mudofaa vazirligining harbiy-tarixiy muzeylari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida harbiy okruglar, harbiy qismlar, oliy harbiy ta’lim muassasalari harbiy-tarixiy muzeylari ishining mazmuni va asosiy shakllari, faoliyatini yanada takomillashtirishga katta e’tibor qaratmoqda. Zero, bunday say-harakatlar aholi, xususan, yoshlarni qadimgi noyob yodgorliklar bilan tanishtirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim omildir.

Yoshlarda vatanparvarlik va milliy g‘ururni shakllantirish kompaniyabozlik bilan hal etiladigan vazifa emas, u tinmay izlanishni, yangi-yangi ish usullarini, vositalarini topishni, jamiyat potentsialidan, ma’naviy-axloqiy tarbiya borasidagi tajribalaridan samarali foydanishni taqozo etadi. Ijtimoiy borliqning dinamik xususiyati, modernizatsiyaga moyilligi va hayotga yangi avlodlarning kirib kelishi kabi jarayonlar vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usini tarbiyalashga ham uzluksiz, permanent voqelik sifatida yondashishga undaydi. Yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy ongidagi o‘zgarishlarning ziddiyatli xarakteri, ular qiziqishlarining u yoki bu tomonga evrilib, transformatsiyaga uchrab turishi muammolarni dolzarblashtiradi va yangi yondashuvlarni toqazo etadi. A.G.Maslouning yozishicha, ta’lim-tarbiyaning bosh vazifasi yoshlarni “kreativ shaxs” qilib shakllantirish, bu fazilat esa ularga “tabiat tomonidan berilgan mohiyat emas”[35]. Kreativ shaxsni shakllantirish esa shu zahoti “inson tabiatini, xarakterini transformatsiya qilish, insondagi, uning dunyoqarashi, hayotiy falsafasi, hayot yo‘li, axloqiy kodeksi, ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq barcha insoniy narsalarni to‘la royobga chiqarish masalasini kun tartibiga qoyadi”. Vatanparvarlik va milliy g‘urur faqat vatanga sodiqlik haqidagi *qasam ichish*, hatto harbiy xizmatni intizomli bajarishgina emas, ular insondan, yoshlardan ijtimoiy borliq uchun mas’ullikni o‘z boyniga olgan ijodkor, kreativ faol shaxs bo‘lishni ham talab etadi. Aslida barcha ijtimoiy-tarbiyaviy ishlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar yoshlarda kreativ faollikni shakllantirishga qaratilgandir.

Xulosa shuki vatanparvarlik va milliy g‘urur shaxsni “Vatan” va “millat” deb atalgan, ular dialektik bog‘liq jamiyat, davlat, bilan bog‘liqligini ifodalovchi, inson ekzistentsial borlig‘ining mohiyatini belgilab keluvchi yuksak, oliyjanob tuyg‘udir. Ammo ularning yuksak, oliyjanobligi dinamik rivojlanish va o‘zgarishga moyil insonni, jamiyatni maxsus chora-tadbirlar, ma’naviy-axloqiy ta’sir komplekslari, tarbiya o‘choqlari, institutlar zarurligini rad qilmaydi. Bugungi jamiyatlar, inson hayoti globallashuv ta’sirida shunday bir xaotik tarzda o‘zgarib bormoqdaki, ularga

qarshi yanada kuchli tartiblashtirilgan, ratsional va samarali vositalar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan, individlar bilan ijtimoiy borliq o‘rtasidagi garmonizmni ta’minlaydigan imperativlar zarur.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA JAMIYATNING ROLI

T.Normetov
CHOTQMBYU Gumanitar fanlar kafedrasi
katta o‘qituvchisi dotsent
M.Jurabayeva
CHOTQMBYU tillar kafedrasi katta
o‘qituvchisi

Vatan himoyasda toblangan mard o‘g‘lonlarimio‘ o‘zining mardlik va jasurlk fazilatlari, yuksak vatanparvarlik tuyg‘usi bilan obru-e’tibor qozongan harbiy xizmatchilarimiz yushlarga har tomonlama ibrat va o‘rnak namunasi bo‘lishi mumkin.

M.M.Mirziyoyev

Biz xalqimizni dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizni bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta bahtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos kasb etadi.[4.,-111-b]

Yoshlarda vatanparvarlik albatta o‘z o‘zidan tarbiyalanmaydi**.** Balki ta’lim-tarbiyaviy shlarning samarali shakl va metodlaridan har bir o‘quv dargohining o‘ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanmoq zarur.

Vatan arabcha – ona yurt kishilarning yashab turgan. Ularning valod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti mamlakati demakdir.

Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o‘tmishi buguni va kelajagi mujassam bo‘lgan tushunchadir. Vatan ostonadan, o‘zi tug‘ilib o‘sgan go‘shadan boshlanadi. Shuning uchun u yashab, nafas olib turgan xonadonda, ulg‘ayib voyaga yetishishida muhtasham va qdratli makon bo‘lgan ona zaminga mehr-muhabbat va sadoqat abadiy bo‘lmog‘i zarur. Har bir insonning Vatanga bo‘lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilan uning vujudiga singib boradi. O‘z ota-onasi, avlod-ajdodlari. Ularning an’analari, urf-odatlari, kasb- korini sevmaydigan sevmaydigan farzand o‘zgalarni ham sevmaydi. Shuningdek, millati, xalqi, adabiyoti, san’ati, dini va madaniyatidan g‘ururlanib, o‘zi o‘sgan yurt tabiatidan ilxomlanib, uning muqaddas tuprog‘i qadrini anglab yetmaydi. Bu esa

manqurtlikdan o‘zga narsa emas. Zero, hech bir inson Vatandan tashqarida baxt-soadat topa olmaydi.[3.,-3-b].

O‘z yurtida obru-e’tibori bo‘lmagan inson o‘zga yurtda ham qadrlanmaydi. Shuning uchun ham xlqimida “O‘zga yurtd sulton bo‘lguncha. O‘z yurtingda cho‘pon bo‘l”, “O‘lsang o‘l, Vatanigda bo‘l!” kabi naqllar bejiz aytilmagan. Har kimning o‘z xonodoni, uy-joyi, o‘z ona yurti naqadar qadr- qimmatli ekanligini o‘zga yurtga safarga, yashashga borgan inson biladi.

Yosh avlod qalbida Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish har bir ota – onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchidir. Yoshlar ongida vatanparvarlikni shakllantirish bilan bog‘liq ishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilsa, ijobiy natija berishi tabiiydir.

mahallalar, oilalar va o‘quv muassasalari hamkorligida amalga oshiriladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlar;

maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta’lim maktablari, oliy va uo‘rt maxsus ta’lim o‘quvchi, talabalar,. yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolar o‘rtasida olib borilayotgan tadbirlar;

ommaviy axborot vositalari, matbuot muassasasida amlga oshirilayotgan vatanparvarlik g‘oyasi bilan yo‘g‘irilgan tadbirlar;

harbiy vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiruvchi tadbirlar;

madaniy –ma’rifiy ishlarni takomillashtirish ,samaradorligini oshirish bilan bog‘liq ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik yo‘nalishlarida tadqiqot ishlari olib borish, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish;

xalqlar, millatlar, do‘stlik, birodorlik, axillik, totuvlikni ta’minlashga qaratilgan tadbirlar;

madaniy va ma’rifiy, ijodiy tashkilotlar tomonidan axolining ma’naviy madaniyatlilik darajasini oshirish, ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar.

Ushbu yo‘nalishdagi tadbirlarni amalga oshirish uchun avvalo har bir ta’lim muassasasining matasaddi jamoat va davlat tashkilotlari bilan hamkorlik dasturi ishlab chiqilmog‘i va uni amalga oshirishning mehanizimi yaratilmog‘i zarur.

Milliy g‘urur va milliy ong vatanparvarlik mezonlaridan hisoblanadi. Shuning uchun jamiyatimizning har bir fuqarosi, ota-ona, davlat va jamoat tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri- vatanparvarlik milliy g‘urur va milliy ongni yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir.Vatanparvarlik tuyg‘usi juda keng va qamrovli e’tiqod mazmuniga ega bo‘lib u quyidaglarni mujassam etadi.

Vatanparvarlik o‘zi tug‘ilib o‘sgan oilasi, joyi, Vatanga hurmat, e’zoz e’tiqod va muhabbat demakdir. Vatanparvarlik ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, do‘sti-birodorlari, xalqi, millati, Vataniga muhabbat va sadoqatdir. Vatanparvarlik-oila shajarasi, avlodlar an’analari, urf-odatlari, kasb-korlari, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini

mohiyatan chuqur bilash va ularga nisbatan hurmat, avlod-ajdodlardan faxrlanish tuyg‘usi majmuidir.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi U mehr- oqibat, Vatan taqdiri uchun qayg‘urish, tashvish va falokatlarga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas bo‘lagidir. Harbiy vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar qalbiga singdirish O‘zbekiston respublikasining davlat siyosatida yana ham muhim axamiyat kasb etadi. [2.,-2-b].

Vatan kelajagi, xalqining baxt- saodati uchun milliy g‘ururi yuksak inson kurashadi. Milliy g‘urur esa milliy o‘zlikni anglash bilan bevosita bog‘liqdir. Milliy o‘zlikni anglash, o‘zi dunyoga kelib o‘sgan oilasi, mahallasi, Vatanini sevish, ota-onasi, qarindosh-urug‘lari, birodorlari, xalqi, millatiga chuqur hurmat va ehtiromdir. Ularning shajarasi, o‘tmish avlod-ajdodlar, kasb-kori, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini mukammal bilish va ulardan fahrlanish xissi demakdir.

Halq ichida ona deganda-Vatan, Vatan deganda ona tasavvur etilishida ham majoziy ma’no bor. Ba’zi bir sabablarga ko‘ra, o‘zga yurtlarda yashayotgan vatandoshlarimiz ham “ona yurtim”, “kindik qonim” to‘kilgan yurt, deb sog‘inch va faxr bilan gaprishlarda ham olam-olam ma’no mujassam. Ularning uylari to‘riga bir xovuch Vatan tuprog‘ini muqaddas kitob bilan yonma-yon osib qo‘yishlari, xonadonlarida dutor yoki tanburni saqlashlari. O‘zbek xonandalari kuy va qo‘shiqlarini doimo tinglashlari, o‘zbek urf-odatlari, tilini unutmaslik uchun qilgan say harakatlari Vatanga bo‘lgan cheksiz e’tiqodlarining cheksiz namunasidir.

Yoshlarda milliy qadryatimiz, urf-odatlarimiz, milliy odob-axloqimiz,milliy madaniyatimizga sodiqlik kabi insoniy fazilatlarni xosil qilmasdan turib vatanparvarlik tuyg‘usini ham shakllantirib bo‘lmaydi. Darhaqiqat bugun mustaqillik taraqqiyotining tarixiy rivojlanish yo‘liga vijdonan bir nazar tashlasak, shu ezgu maqsadni ruyobga chiqarish sog‘lom va barkamol, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun juda keng ko‘lamli va ulug‘vor ishlar amalga oshirilganini guvohi bo‘lamiz.

Bugungi kunda demokratik mustaqil O‘zbekiston Respublikasining yoshlari jahon maydonlarida javlon urib, nufuzli anjuman va chimpionatlarda, keskin kurashlarda tengsiz, g‘alabaga erishib, ulug‘ ajdodlarimizga munosib vorislar ekanini qayta-qayta namoyon etmoqdalar.

Azamat barkamol avlodimizning niyatlari pok, maqsadlari ulug‘ va olijanob.Ular o‘z iqtidorlari bilan ona yurtimizning ulug‘lashga, Vatanimizning qudratini , shon-shavkatini yuksak cho‘qqilarga ko‘tari kelmoqdalarY. Zero hamisha yaxshilikdan yaxshilik, buyuklikdan-buyuklik tug‘ilib kelgan va shunday bo‘lib qolaveradi.

Vatanimizning asl farzandlari har doim Vataniga iqbol tilaydi, uning kelajagi yo‘lida butun kuch g‘ayratini, shijoatini baxsh etishga tayyor turadi. Vatanparvarlik vatanga mehr qo‘yish, u bilan g‘ururlanish tuyg‘ularini o‘zida shakllantirish bilangina cheklanmaydi. Haqiqiy vatanpavr inson jahon madaniyati, ilm-fani, zamonaviy texnika va texnologiya, tarixiy soboq va tajribalardan, iqtisodiy imkoniyatlardan ijobiy foydalanib, Vatanning ravnaqiga o‘z xissasini qo‘shmog‘i kerak. Bunday fazilat va tuyg‘ularni faqat yoshlarda emas, balki mamlakatimizning har bir fuqarosida shakllantirish lozim. Jamiyatimizning asosiy maqsadi ham Vatanga, xalqiga, millatiga fidokor mustaqil fikrlaydigan, har bir masalani ongli ravishda mas’uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchan, ma’naviyatli barkamol farzandlar o‘stirish, ularni jismoniy, ham ma’naviy-axloqiy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash va bilimli, ma’rifatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iborat. Demak, ana shunday asl farzandlar, ma’naviyatli yoshlargina yurtimizning tayanchi bo‘lishi va porloq kelajakni yaratishi mumkin. Hozirda o‘sib borayotgan yosh avlodni Vatan va uning kelajagi haqidagi uy fikrlari, Vatan manfaatlari bilan bog‘lay olishlarida o‘z vatandoshlarini qadr-qimmatini bilishlari va shu yo‘lda mehnatlarini ayamay Vatan taraqqiyoti uchun faollik ko‘rsatishlarida ko‘rish mumkin.

O‘z vatani, o‘z xalqi tarixidan, madaniy merosi, milliy urf-odatlari, an’alari, udumlaridan haqli ravishda faxrlanish har bir millatga xos xislatdir. Millatning xalqning kuch qudrati uning soni bilan o‘lchanmaydi, balki siyosiy yetukligi, milliy ongining o‘sganligi, o‘z-o‘zini anglab yetganligi, milliy uyushganligi bilan belgilanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, oilada yosh avlodni ota-ona namunasi, oila-an’analari, shajarasi kas-kori, axloqiy-ma’naviy qadriyatlari asosida tarbiyalash, ularni ongida oilaga sadoqat, o‘zaro mehr-muhabbat, hurmat xissini shakllantirish vositasida ulani oilaviy hayotga tayyorlash kutilgan natija beradi. Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning jamoatchilikning Vatan oldidagi burchlaridir. Bu burchni xalol, pok fidoyilik, ma’naviy o‘zlikni anglash tizimini yaratish va shu asosda, yoshlarda vatanparvarlik, fidoyilik xususiyatlarini shakllantirish har bir fuqarolarning, ota-ona va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T., O‘zbekiston, 2023, -25b.

2. Mirziyoyev SH.M. Konstitusiya erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy etishining mustahkam poydevori. Xalq so‘zi.-2017y.

3. Mirziyoyev SH.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir.

4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch.-T., 2008- 111b

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 23 fevral kuni tasdiqlangan “Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”. 2.03.2018y.

DEVELOPMENT OF A METHOD FOR RESCUE VICTIMS AND MATERIAL VALUABLES IN AN UNBREATHABLE ENVIRONMENT

MUKHAMEDOV I.I.
Senior Lecturer Associate Professor of the Department of Fire and Rescue Equipment” (Academy of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan),
KARIMOV F.K.
Officer of the department of “educational and ideological work” (Academy of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan).

UDK: 614.842(07)

Experience in extinguishing large and complex fires shows that the success of combat operations depends on the level of organization of the gas and smoke protection service (GSPS), on the degree of its technical equipment and the level of training of personnel to work in an unsuitable for breathing environment. Timely and correct use of this service can significantly reduce the time of extinguishing fires, reduce losses, and most importantly, provide the necessary assistance to people in a timely manner.

According to statistics, every second major fire in the country is extinguished with the help of GSPS units [1].

The combat work of GSPS personnel is carried out in conditions of high temperatures, in a smoky and toxic environment. When moving to the source of the fire (place of work), the commander of the GSPS flight should be the first. The advance of the fire control unit in the premises is carried out along the main walls, remembering the route, in compliance with precautionary measures, including those determined by the operational and tactical features of the fire object.

To carry out the combat mission and ensure the safety of its work, the GSPS link includes the necessary minimum of fire-technical weapons, which provides communication means (radio station or intercom) and lighting means (group flashlight - one per link and an individual flashlight for each gas and smoke protector) [2]. When working on fires, the GSPS units, faced with fire hazards (FH), remain virtually “blind”, poorly oriented in the current situation.

Currently, the solution to ways to ensure control of the operation of the GSPS units is considered by the Ministry of Emergency Situations of the Republic of

Uzbekistan as an urgent task. However, all methods for solving the problem of orientation in space of GDS units are used only for training work or exercises.

For example, the Academy's Ministry of Emergency Situations offers for these purposes the "Volna" electronic tracking system for the movement of the gas pressure control unit in the smoke chamber. The system is protected from industrial interference and allows for independent control of several simultaneously operating units.

The operating principle of the proposed system is based on the direction finding of electromagnetic oscillations of a small-sized generator placed on the clothing or helmet of a gas and smoke protector. Information about the movements of smoke and gas protectors is initiated on the light plane. The electromagnetic oscillation generator is connected to an antenna mounted on the helmet. Electromagnetic field indicator sensors are mounted on the ceiling of the smoke chamber. A sensor is attached above each square of the maze. When moving in the electromagnetic field created by the generator, an electromotive force appears at the inputs of the sensor coil, which leads to the operation of the relay and the turning on of the light beam [1].

In Russia, the UGPS of the Nizhny Novgorod region has a training complex with a biotelemetric system, which allows using the industrial television installation PTU-42 to monitor the progress of training, and using a radio electrocardiograph REK-1-7a to monitor the pulse rate of each gas and smoke protector [1].

A possible way out of this situation is to use thermal imaging technology to assess the situation in the work of the GSPS units. When fighting fires in heavily smoky buildings, when the primary task is to search and rescue people, the use of thermal imagers can be the most effective way out of such situations, and the use of a video recording system with the possibility of remote wireless transmission can increase the control over the actions of rescuers.

Solving the problem of using thermal imagers involves solving the problem of recognizing objects in a smoky environment. Thermal radiation is attenuated when passing through the atmosphere due to absorption by gas molecules, aerosols, precipitation, as well as smoke, fog, smog, etc.

Let us consider, in order of importance, substances that absorb infrared (IR) radiation in wide bands with centers corresponding to the indicated wavelengths (table).

Table. IR Absorption Range

Atmosphere	Wavelength, μm
Water	2,7; 3,2; 6,3
Carbon dioxide	2,7; 4,3; 15
Ozone	4,8; 9,6; 14,2
Nitrous oxide	4,7; 7,8
Carbon monoxide	4,8
Methane	3,2; 7,8

Apart from attenuation in dense dispersed media, molecular absorption is the main reason for attenuation of radiation, and radiation is most strongly absorbed by water vapor, carbon dioxide and ozone. In the lower atmosphere, absorption by nitrous oxide and carbon monoxide can usually be neglected. Thus, taking into account the above, it is possible to determine the position of two "windows" of transparency: 3.5-5 μm and 8-14 μm [3].

In practice, the presence of transparency "windows" means that all thermal imagers must operate in these ranges - short-wave or long-wave.

The short-wavelength (3-5 microns) range is more typical for cooled thermal imagers, the long-wavelength (8-14 microns) - for uncooled ones.

In the short-wave range, receivers with the photoelectric effect are used - the quantum energy is sufficient for electrons to move into the conduction band under the influence of IR radiation. In long-wavelengths, bolometers are used much more often, since it is easier to detect radiation in this part of the spectrum using the thermistor effect [4, 5]. The working range is better suited for observation in conditions of smoke, fog, smog - in the range of 8-14 microns, IR radiation is not absorbed by either water vapor or carbon dioxide (the «window» of transparency is «more transparent» than in the range of 3-5 microns).

In specifications you can often find the NETD -Noise Equivalent Temperature Difference parameter - equivalent noise temperature difference. This value is equal to the temperature difference between the scene and the object, which is regarded by the device as noise. It is introduced to make it easier to understand the sensitivity of the thermal imager. For example, for a cooled thermal imager with NETD=20 mK, this means that a body with a temperature of 30.002 °C will be indistinguishable from a background with a temperature of 30 °C, while a difference of one degree will be clearly visible. Interestingly, the rattlesnake has approximately the same sensitivity as a cooled thermal imager - 18 mK [6].

In the short-wave range the resolution is higher.

Modern thermal imagers are divided into devices with a cooled matrix and an uncooled one. The use of certain thermal imagers is determined by the tasks that the customer needs to solve. Let's give a comparative assessment of cooled and uncooled thermal imagers.

According to the Rayleigh criterion, resolution is determined by the relation:

$$R=D/1{,}221,$$

where D is the lens diameter; l is the wavelength. The angular diffraction limit (this term refers to the minimum angular size of a monochromatic source) of a cooled thermal imager is equal to:

$$Gp=VD,$$

where l is the wavelength; D is the diameter of the lens, on the order of 0.08 mrad (0.004 degrees). For uncooled thermal imagers, this parameter is 3-4 times lower.

Cooled thermal imagers have greater contrast sensitivity - a cooled thermal imager distinguishes differences of 20 mK with an aperture of 5, while an uncooled bolometric imager distinguishes about 50 mK, subject to the condition that the aperture is equal to one. This is a consequence of the different physics of photoelectric and thermistor effects. The combination of the first two factors gives a third advantage - a much greater detection range. A detection range of 10 km is far from the limit for a cooled device.

Speaking about the advantages, we should also mention the disadvantages of cooled systems:

- high power consumption caused by the presence of cooling devices compared to uncooled devices;

- rather long cooling time - several minutes may pass between turning on the thermal imager and obtaining an image;

- limited service life caused by the time between failures of the cooling element, usually several thousand hours of continuous operation.

Let us now consider uncooled thermal imagers. The main advantages of uncooled thermal imagers are:

- the operating range is better suited for observation in conditions of smoke, fog, smog - in the range of 8-14 microns, IR radiation is not absorbed by either water vapor or carbon dioxide (the “window” of transparency is “more transparent” than in the range of 3-5 microns);

- relatively small size and weight [6].

Unlike cooled ones, uncooled thermal imagers work immediately after switching on. They are characterized by lower power consumption. They are characterized by a very long MTBF. It is also believed that in order to create a clear IR image, thermal imaging cameras in principle do not require lighting, which is especially important for firefighters, since they will be able to see through the smoke. A thermal imager allows you to remotely assess the effectiveness of fire extinguishing and determine the direction of extinguishing even in heavily smoky places [6].

Thus, we can conclude that despite a significant number of publications on improving control over the operation of gas pumping stations units, not all issues within the framework of the issues under consideration have been resolved.

Smoke is not only one of the main obstacles to salvation, but also a real threat to human life and health. However, this problem can be solved using thermal imaging technology. The light weight, easy operation and compact size of the thermal imager, combined with the possibility of mounting on a protective helmet, make this device

an indispensable assistant in extinguishing fires when, due to high smoke levels, it is impossible to search for sources of fire. Combining high reliability, robust construction and high image clarity, the device will allow you to quickly find the source of fire, navigate in smoky rooms, and detect people in them.

Literature

1. Improving the organization of fire protection services in the divisions of the State Fire Service: educational method. manual St. Petersburg: St. Petersburg. University of the Ministry of Internal Affairs of Russia, 2000. 32 p.

2. Approval of the rules for the gas and smoke protection service of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan: Order of the Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan dated October 14. 2019 No. 517.

3. Formozov B.N. Aerospace photodetectors in the visible and infrared ranges. St. Petersburg: St. Petersburg GUAP, 2002. 120 p.

4. Lloyd J. Thermal imaging systems. M.: Mir, 1978. 414 p.

5. Hudson R. Infrared systems. M.: Mir, 1972. 535 p.

6. Nikitin S. Thermal imagers: not everything is so simple // Security algorithm. 2011. No. 3.

INNOVATSION YETAKCHILIK FAOLIYATINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI.

T.A.NURABULLAYEV
Nukus davlat pedagogika instituti
"Psixologiya" kafedrasi tayanch doktoranti

Innovatsion yetakchilik faoliyati mazmun-mohiyati ko'ra, psixologiya, sotsiologiya, menejment, pedagogika kabi bir qator fanlarning predmeti sifatida tadqiq etiladi. Aynan, ularning orasida yetakchilik faoliyatini taminlashda psixologik o'ziga xosliklarni inobatga oladigan bo'lsak psixologiyaning roli beqiyos. Rahbar faoliyatining mohiyati, subyektlarning shaxsiy faoliyatini yuqori darajada hamkorlikda tashkil etishni ta'minlashdan iborat bo'lib, boshqaruv faoliyati uni amalga oshirishning jamoaviy subyekti doirasida rivojlanadigan qo'shma faoliyatning tartibga soluvchi quyi tizimi sifatida ishlaydi.

Innovatsion yetakchilik faoliyatini tadqiq etishga doir turli xil yondashuvlar mavjud. B.M.Bassning fikricha, yetakchilik faoliyatiga doir yondashuvlarning har biri faqat ma'lum bir jihatni tavsiflashga qaratilgan. Har bir yondashuv turli darajadagi umumlashtirishning o'ziga xos tahlil birligi bilan tavsiflashning faqat bir tomonlama usulini ifodalaydi[1]. A.V.Karpovning so'zlariga ko'ra, barcha mavjud usullar yetakchilik faoliyatini tahlil qilish darajalarini ifodalaydi. Bu holat ko'p qirrali

tahlilni talab qiladigan yetakchilik faoliyatining murakkabligiga ishora qiladi. V.V.Belovning aytishicha, doimiy va vaqtinchalik tahlillar asosida boshqaruv faoliyati mazmunining quyidagi xususiyatlar: qisqa muddatli turli harakatlar bilan yuqori samaradorlik, juda keng aloqalar tarmog‘i, komunikativ harakatlarning ustunligi, bir kichik masaladan ikkinchisiga o‘tish, bir nechta harakatlarning o‘z vaqtida tez-tez takrorlanishiga ajratib ko‘rsatish mumkin. L.G.Pochebutning yozishicha, yetakchilik faoliyati nafaqat boshqaruv siklini amalga oshirishni ta’minlaydigan texnologik yoki professional asoslarni balki ijtimoiy rollar bilan bog‘liq asoslarni ham o‘z ichiga oladi[2]. Arizona universiteti tadqiqotchisi D.R.Veberg 10 ta asosiy yetakchilik rolini ajratib ko‘rsatib, ularni uchta toifaga: shaxslararo rollar (ijrochi, yetakchi) axborot rollari (“axborot oluvchi”, axborot tarqatuvchi), jamoatchilik bilan bog‘liq rollar (tadbirkor, nizolarni bartaraf etuvchi, resurslarni taqsimlovchi, muzokaralar olib borish)ga ajratadi[3]. Tadqiqotchi H.Alsolami yetakchilik faoliyatini juda murakkab jarayon sifatida baholab, uni amalga oshirishda har doim boshqaruv funksiyalariga tayanish lozim ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Boshqaruv faoliyati rahbarlardan turli boshqaruv ishlarini bajarishni talab qiladi. Guruh a’zolarining birgalikdagi faoliyati jarayonida ularni muvofiqlashtirishga qaratilgan integratsiya faoliyatining predmeti bo‘lgan rahbar o‘zining individual faoliyatida maxsus vazifalar tizimini bajaradi. Shu munosabat bilan, muhim nazariy masala - bu ishlarning ixtisoslashtirilgan turlari bo‘lgan va boshqaruv faoliyatining mazmunini belgilaydigan funksiyalar masalasi hisoblanadi.

V.Karitovning ta’rificha, yetakchilik faoliyatining mazmunini o‘rganish an’anaviy ravishda funksional tahlil doirasida amalga oshiriladi. Har bir funksiya boshqariladigan obyektga boshqaruv ta’sirining ma’lum bir shakli va usulini aks ettiradi, tegishli uslub va boshqaruv usullarini keltirib chiqaradi. Rus tadqiqotchisi E.Smirnov bugungi kunda boshqaruv faoliyati tarkibida uning mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini tashkil etuvchi va buning uchun majburiy bo‘lgan ba’zi asosiy funksiyalar mavjud ekanligini e’tirof etadi. Mashhur fransuz boshqaruv maktabi vakili A.Fayol yuqorida ta’kidlab o‘tilgan funksiyalarni alohida ajratib ko‘rsatdi. Unga ko‘ra, oldindan ko‘rish (rejalashtirish), tashkil etish, boshqarish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish kabilar asosiy funksiyalar sifatida baholanadi. L.Gyulik ushbu ro‘yxatni davom ettirib, “kadrlarni saralash”, “hisobot”, “byudjetni shakllantirish” kabilarni qo‘shadi[4]. Zamonaviy tadqiqotchilar J.Makguiyere va G.Rodes asosiy funksiyalar sifatida rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, yetakchilik, kadrlar bilan ishlash funksiyalarini ajratib ko‘rsatadilar[5]. A.A. Tixomirov funksiyalarni nazorat tizimini tashkil etish, maqsadlarni tanlash, prognozlash, rejalashtirish, axborotlashtirish, qaror qabul qilish, tashkiliy-ommaviy faoliyat, boshqaruv samaradorligini baholash kabi turlarga ajratgan bo‘lsa, O.Martens boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, qaror qabul qilish, tashkil etish,

tartibga solish va tuzatish, hisobga olish kabilarni asosiy funksiyalar sifatida e'tirof etadi. Yuqorida keltirilgan funksiyalardan farqli o'laroq A.Svenisskiy ma'muriy, strategik, ekspert va maslahat, vakillik, tarbiyaviy, psixoterapevtik, kommunikativ va tartibga solish, innovatsion, intizomiy funksiyalarga ishora qiladi[6]. Shunday qilib, har bir mualliflarning yondashuvlari bir-biriga juda o'xshash bo'lsada, aslida funksiyalar ro'yxatida sezilarli o'zgarishlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin.

Yetakchilik faoliyatining psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi masalalar adabiyotlarda keng yoritilgan. Zamonaviy innovatsion yetakchilik faoliyatini tashkil etishda ko'plab tadqiqotchilar asosan ikkita qadriyatlar tizimiga alohida e'tibor qaratishgan. Bular yetakchining shaxsiy qadriyatlari va jamoa qadriyatlari. Bularning o'rtasidagi munosabatlarning bir nechta turlari mavjud. Ular o'rtasidagi kelishmovchilik qarama-qarshilikning paydo bo'lishi, shaxsiy qarashlarning deformatsiyasi va "soxta" qadriyatlarning paydo bo'lishi boshqaruvdagi tartibsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ikkinchisi passiv hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish, javobgarlikdan qochish (muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi) oqibatida yetakchi faoliyatida samaradorlik kuzatilmaydi. Aniq qadriyatlarga ega bo'lgan yetakchi doim faol hayotiy pozitsiya egaligi, fikr-mulohazalarni o'rnatish istagi, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikka tayyorligi bilan ajralib turadi.

D.G.Trunovning ta'kidlashicha, bularning barchasi belgilangan maqsadlarga erishishga olib keladi, eng muhimi, strategik qarorlar qabul qilishda katta ta'sir ko'rsatadi. Maqsadlarni belgilash va qadriyatlar tizimiga ega bo'lish bilan bir qatorda, motivatsiya yetakchilik faoliyatining asosini tashkil etadi.

O.V.Yevtixovning aniqlashicha, yetakchilik faoliyatida boshqaruv motivatsiyasi rahbarning shaxsiy maqsadlari va jamoaning umumiy maqsadlariga erishish uchun o'zini va boshqalarni harakat qilishga undash jarayonidir. Jamoada rahbar uchun ham xodim uchun ham umumiy bo'lgan zaruriy motiv turlari mavjud bo'lib, ularning sirasiga shaxsiy rivojlanish va o'sish, tegishlilik hissi, mas'uliyat, qiziqishlarni kiritish mumkin. Binobarin, bu motivatsiya yana individual xususiyatlar va boshqaruv samaradorligi darajasi o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi. K.K.Oganyanning so'zlariga ko'ra, rahbarlik tashkilot ichidagi jamoaviy funksiya bo'lsada, rahbarlar birinchi navbatda o'zlarining shaxsiy xususiyatlari va tajribasidan foydalangan holda individual harakat qiladilar[7]. Individual xarakterning bunday erkin ifodasi jamoaning mehnat faoliyati samaradorligini taminlab turadi.

M.S.Balunovning qarashlariga ko'ra, yetakchi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu xulq-atvorning yagona qadriyat regulyatorlari hisoblanadi. Bunga rahbar o'z qo'l ostidagilar bilan bo'lgan boshqaruv munosabatlarini anglab yetganda erishish mumkin. Bundan tashqari, rahbarning shaxsiy yondashuvi doirasida o'z-o'zini hurmat qilish kabi shaxs xususiyatiga ham ahamiyatiga qaratish lozim. M.Balunov bu pozitsiyani shunday tasvirlaydi. Haddan tashqari o'z-o'zini

hurmat qilish, takabburlik, kibrlanish, mensimaslik kabi salbiy xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Bunday xususiyatlarga ega bo‘lgan rahbar odatda jamoada ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Bu uning yetakchilik faoliyati natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Lekin o‘z-o‘zini hurmat qilish xususiyatining haddan tashqari pastligi ham uning faoliyat samaradorligiga o‘z tasirini ko‘rsatmasdan qolmaydi[8]. Ayni o‘rinda har bir xususiyatning meyyoriy darajalarini bilib olish juda muhim sanaladi. T.Amabilening qarashlariga ko‘ra, yetakchilik faoliyatining boshlanishi boshqaruvchining o‘zligini anglashi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu o‘zini - o‘zi aniqlash, o‘zini - o‘zi namoyon qilish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi anglashning psixoanalitik jarayonlari ko‘rinishida rivojlana boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, bu jarayonlar insonning motivatsion sohasini rivojlantirishning mohiyatini tashkil etadi. Boshqaruvning subyektiv tomonini tashkil etuvchi kuch, ya’ni motivlar va maqsadlar rahbarlarning o‘z-o‘zini anglashi bilan harakterlanadi[9].

Shaxsiy va individual psixologik xususiyatlarni, shaxsning guruhni baholashga doir ma’lumotlarini tahlil qilish orqali G.G.Liginchuk quyidagi yetakchilarga qo‘yiladigan talablar to‘plamini shakllantiradi[10]:

1.Ijtimoiy ustunlik, shaxsning ijtimoiy faolligi. Ushbu blokda zamonaviy shart-sharoitlar bilan belgilanadigan ijtimoiy vazifalar, yetakchi tomonidan jamoaning faoliyati uchun yuqori darajadagi ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq rahbarning rolini qabul qilish to‘g‘risidagi tushunchani ifoda yetuvchi ko‘rsatkichlar mavjud. Bu borada S.N.Kaznacheyevaning yondashuvi o‘ziga xos bo‘lib, muallifga ko‘ra, yetakchilikning shakllanishi birinchi navbatda uning ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi. Shu boisdan ijtimoiy faollik xususiyatini ustuvor deb baholaydi.

2.Xulq-atvorda o‘z-o‘zini boshqarish. Ushbu blok boshqaruv muammolarini hal qilishda rahbarning talabchanlik darajasining ko‘rsatkichlarini, shuningdek, boshqalarning fikriga nisbatan samaradorlik, bag‘rikenglik, hukmlarda va baholash xususiyatlarida o‘z-o‘zini tanqid qilishni o‘z ichiga oladi.

3.Perseptiv va kommunikativ xususiyatlar. Ushbu blok rahbarning professional muhitda biznes aloqalari tizimini tasvirlaydigan talablar doirasini belgilaydi. I.G.Gizzatulinning fikricha, ta’lim-tarbiya muassasalarida rahbarlarning yetakchilik xususiyatlarini uning perseptiv-kommunikativ qobiliyatlarisiz tasavvur qilish mumkin emas.

4.Yuqori motivatsiY. Ushbu talablar blokiga kiritilgan shaxsning sifatlari majmuasi professional va boshqaruv faoliyatida takomillashtirishga qaratilgan shaxsning ijtimoiy-psixologik nuqtai nazarini tasvirlaydi. Bu borada O.Yevtixovning yondashuviga e’tibor qaratish lozim. Unga ko‘ra, haqiqiy yetakchi birinchi navbatda o‘ziga keyin boshqalarga qanday motivatsiya berishni biladi. Bu holat uning professionalligini belgilab beradi.

5.Empatik qobiliyat. Bunga sezgirlik, ehtiyotkorlik, sotsializm, odamlarga individual yondashuv, subordinatlarning professional o‘sishiga g‘amxo‘rlik qilish kabi chuqur shaxsiy xususiyatlar kiradi. N.P.Belyatskiyning aytishicha, aynan empatik qobiliyatlarga ega bo‘lish rahbarlarning innovatsion yetakchilk qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Innovatsion yetakchilik faoliyatini tashkil etishda birinchi navbatda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat – bu faoliyatning samaradorligi hisoblanadi. Faoliyat samarali bo‘lishi yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, yetakchining ham ijtimoiy ham psixologik o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. N.G.Tereshenkoning fikricha, samarali rahbar muloqot qobiliyatiga ega bo‘lishi, xodimlarni to‘g‘ri tanlashi, bo‘linma ishini oqilona tashkil qilishi, vakolatlarni topshirish usullarini samarali ishlatishi, ish vaqtini rejalashtirish va taqsimlash; tashkilot ichidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ayniqsa, korporativ madaniyatni bilish; mehnat jamoasida ishlab chiqarish to‘qnashuvlarini oldini olish va malakali ravishda tahlil qilish, stressli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi[11].

A.A.Urbanovich rahbarlik faoliyatining samaradorligi uchun asosiy vaqtni rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish va nazorat qilish uchun ajratish kerak deb hisoblaydi[12]. Agar u rejalashtirishga juda oz vaqt ajratsa, u kundalik hayotda g‘arq bo‘lish va tashkilotning strategik maqsadlarini e’tiborsiz qoldirish xavfini tug‘diradi. Agar u tashkiliy jihatni e’tiborsiz qoldirsa, o‘z rejalarini amalga oshirish uchun tegishli tuzilmani yaratmasa, unda uning jamoasi samaradorligi u qadar yuqori bo‘lmaydi. Motivatsion omilni e’tiborsiz qoldirish xodimlarning kam daromad bilan ishlay boshlashiga olib keladi yoki odatda jamoani tark etadi va ularning qarorlarini bajarish ustidan nazoratning yo‘qligi xo‘jayinning hokimiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, odamlarni boshqarish san’atining asosiy omili bu to‘rtta boshqaruv funksiyasi o‘rtasida maqbul muvozanatni topishdir. Shu bilan birga, samarali boshqaruv bir qator o‘ziga xos ko‘nikmalardan iborat. K.Ernstning qarashlariga ko‘ra, bu strategik maqsadlarni to‘g‘ri tanlash, malakali xodimlarni tanlash, ish vaqtini tashkil etish qobiliyati, xodimlarni samarali ijodiy ishlarga undash qobiliyati, bo‘ysunuvchilarning vakolatlarini samarali topshirish san’ati, tashkilotning korporativ madaniyatini hisobga olish va unga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, stressni boshqarish qobiliyati va nizolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishdir[13].

Ingliz tadqiqotchisi S.Xaslimning ta’kidicha, barcha vaqt va xalqlar uchun mos bo‘lgan muvaffaqiyatli yetakchilik uchun yagona universal retsept mavjud emas. Shu boisdan raxbarlarning yetakchilk qobiliyatlari ularning yashash sharoiti, faoliyat turlari, ijtimoiy holati, jamiyat ijtimoiy onggi, etnopsixologik xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. L.V.Shaveninaning so‘zlariga ko‘ra, biznes tashkiloti yetakchisining diqqat markazida bo‘lishi kerak bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlar to‘plami

kamida uchta omilga bog‘liq: rahbarning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy muhit talablari va tovarlar va xizmatlar bozorida mavjud vaziyat. Shunday qilib, demokratik jamiyat sharoitida tashkilotni yoki kompaniyani muvaffaqiyatli boshqarish tamoyillari qat’iy tuzilgan iyerarxik jamiyatdan farq qiladi. Innovatsion yetakchi uchun o‘z xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘ziga xos axloqiy tamoyillarni hisobga olish muhimdir. Misol uchun, xavf-xatarni qabul qilish va intuitivlikka tayanishga odatlangan lider, ehtiyotkorlik va aniq hisob-kitobga ega bo‘lgan boshqa rahbarning yetakchilik uslubini nusxa ko‘chira olmaydi. Shu bilan birga, tahlilchilar barcha muvaffaqiyatli rahbarlarga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni topishga urinishda davom etmoqdalar, bu esa eng yaxshi rahbarlar o‘z tashkilotlarini muvaffaqiyatga olib boradigan samarali boshqaruvning asosiy qismini ochib beradi. Tomas Neff va Jeyms Sitrin Amerikaning 50 nafar samarali biznes rahbarlarining faoliyatini tahlil qilish natijasida boshqaruvning oltita asosiy tamoyilini keltirishadi[14]:

– Samimiy va boshqalarga har bir ishda namuna bo‘lish;
– Istiqbolli strategiyani ishlab chiqish;
– Kuchli boshqaruv jamoasi yaratish;
– Global maqsadlarga erishish uchun xodimlarni ilhomlantirish;
– Tashkilot moslashuvchan va o‘zgarishga tayyor bo‘lishi;
– Mukofot tizimini yaratish.

Samarali yetakchilik faoliyati bilan bog‘liq yana bir muhim nuqta shundaki, muvaffaqiyatli rahbar har doim ikkita cheklov o‘rtasida optimal muvozanatni saqlashi kerak. Y.V.Sherbatix ko‘plab mashxur rahbarlarni kuzatishlari asosida tahlil qilib, ularning aksariyati bir qarashda bir-birini istisno qiladigan oltita quyidagi fazilatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi[15]:

– Ambitsiya – kamtarlik;
– Strategik fikrlash;
– Tafsilotlarga e’tibor;
– G‘ayrat - ichki xotirjamlik;
– Odamlarga ta’sir qilish qobiliyati
– Odamlarga e’tibor;
– Tavakkal qilish qobiliyati - xatolardan foyda olish qobiliyati. Bu fazilatlar, shubhasiz, har bir rahbar faoliyatini samarali tashkil etishda o‘ziga xos kalit vazifasini bajaradi.

AQShning Prinston universiteti tadqiqotchisi N.O.Keohanening ta’kidlashicha, XX asrning oxirlariga kelib, insonning deyarli har qanday faoliyat turida, o‘zini yaxshi yetakchi ekanligini isbotlash imkonini beradigan individual-psixologik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. R.Bell yetakchilik faoliyatining asosiy xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni

umumlashtirganda, quyidagi xususiyatlar ko‘pincha ajralib turishini alohida e’tirof etadi:

– Intellekt murakkab va mavhum muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida;

– Harakat zarurati va mavjud motivlarni anglash;

– O‘ziga bo‘lgan ishonch, yuqori darajadagi kompetensiya va intilish darajasi.

Yana bir taqiqotchi T.V.Memford R.Bellning fikrlarini to‘ldirgan holda, boshqaruv ishlarida rahbarlarni boshqarishni o‘rganish shaxsiy muhim vazifalari mavjud ekanligini ta’kidlaydi:

– Aqlning amaliy-psixologik yo‘naltirilganligi-amaliy psixologiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni yegallash, ularni tashkiliy vazifalarni hal yetish amaliyotida qo‘llashga tayyorligi;

– Psixologik takt-odamlar bilan munosabatlarda mutanosiblik hissining mavjudligi, "tashkilotchilik qobiliyati";

– Ijtimoiy energiya-insonning yenergiya bilan uyushgan odamlarni zaryad qilish qobiliyati;

– Talab qilish-vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab yetarli talablar qo‘yish qobiliyati;

– Tanqidiylik – bu faoliyat uchun muhim bo‘lgan vazifa bilan belgilanadigan shartlardan chetga chiqishni aniqlash va ifodalash qobiliyati va hokazo.

Tadqiqotchi S.O.Pojarskiy o‘zining yetakchilik sifatlariga oid maqolasida P.Sekord va K.Bakman tomonidan amalga oshirilgan kuzatuv natijalari tahlilini keltiradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, bir marta yetakchiga aylangan va shu tufayli munosabatlar tizimida va maqomlar iyerarxiyasida markaziy o‘rinni egallagan holda, yetakchi, bir tomondan, guruh a’zolaridan ijobiy baho oladi, boshqa tomondan esa o‘zida yetakchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, yetakchilikning ijobiy tajribasi ko‘p jihatdan uni o‘z mavqeini saqlab qolishga undaydi, shu bilan birga yetakchining muvaffaqiyati guruhning qolgan a’zolarining ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo‘lib, ularning har birining individual faolligining pasayishiga yordam beradi, bu esa o‘z faoliyatini kuchaytiradi[16]. O.Sharmerning so‘zlariga ko‘ra, yetakchilik faqat tajriba orttirish jarayonida rivojlanadi. Hech kim boshqa odamlarning musiqiy asarlarini tinglash orqali pianino chalishni o‘rgana olmaydi yoki televizorda o‘yin ko‘rish orqali yaxshi futbolchi bo‘la olmaydi. Boshqalarni kuzatish orqali yetakchilikni o‘rganish ham qiyin. Rahbar bo‘lish uchun amaliyot va tajriba kerak. R.Tomasning so‘zlariga ko‘ra, “Tajriba” tushunchasi kasbiy psixologik trening mazmunini tavsiflash uchun kalit hisoblanadi. Shu boisdan rahbarlarda innovatsion yetakchilik xususiyatlarini psixologik taminlanishi aksariyat holatlarda psixologik trening ko‘rinishida amalga oshiriladi. M.P.Bukareva ta’lim shaklini "ta’lim tajribasining yadrosi, ba’zi hollarda esa - insonni o‘qitish va o‘zgartirishning yagona muvaffaqiyatli usuli" deb ataydi. Uning ta’kidlashicha, "guruhda hosil bo‘lgan barcha

tajribalar va tajribalar oqimi har bir ishtirokchiga o‘zining ko‘plab cheklangan munosabati va e’tiqodlarini tahlil qilish va qayta baholash imkonini beradi. Trening davomida ishtirokchilar keyinchalik kundalik hayotga o‘tkazishlari mumkin bo‘lgan turli ko‘nikmalarni modellashtirishlari va sinab ko‘rishlari mumkin[17]. Tadqiqotchi I.S.Beronning ta’kidlashicha, shaxsning trening jarayonidagi vaziyatlarda muvaffaqiyatli yetakchilik tajribasini o‘zlashtirishi yetakchilik fazilatlarini kompleks rivojlantirishga yordam beradi, uning yetakchilik motivatsiyasini oshiradi, guruh oldida uning yetakchilik qiyofasini va obro‘sini shakllantirishi mumkin, keyinchalik u haqiqiy hayotga va professionallikka o‘tishi mumkin[18].

M.V.Makkolning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, agar rahbar yangi guruhga o‘tsa, uning psixologik bilimlari va psixologik treninglardan olgan tajribasi uning uchun yangi guruhdagi yetakchilik intilishlariga, shuningdek, rahbar lavozimini egallash jarayonida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. I.V.Vachkovning fikricha, so‘nggi o‘n yilliklarda psixologik trening nazariyasi va amaliyoti psixologiya sohasida sezilarli rivojlanishga erishdi.

Yuqorida tahlil etilgan ma’lumotlardan kelib chiqib, shularni xulosa qilish o‘rinliki, innovatsion yetakchilik faoliyatini taminlashning o‘ziga xos ijtimoiy - psixologik asoslarini tahlil qilishda, quyidagi fikrlarni boshlang‘ich nuqta sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq sanaladi:

1.Yetakchilik - bu ijtimoiy hodisa, shuning uchun yetakchilik xatti-harakatlari modellarini ishlab chiqish shaxslararo va guruh ichidagi o‘zaro ta’sir jarayonida amalga oshirilishi kerak.

2.Yetakchilik fazilatlarini rivojlantirish – muvaffaqqiyatli xatti-harakatlarni amalga oshirilgan vaziyatda sodir bo‘lishi mumkin. Uzoq vaqt davomida yetakchi rolini o‘ynaydigan shaxsda buning uchun zarur bo‘lgan xususiyatlar shakllanishi va mustahkamlanishi mumkin.

3.Rahbarning yetakchilik fazilatlarini kompleks rivojlantirish tashkilot rahbarining yetakchilik funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan, kasbiy faoliyat va guruh ichidagi o‘zaro munosabatlarning simulyatsiya qilingan vaziyatlarida amalga oshirilishi lozim.

4.Professional psixologik tayyorgarlik, yetakchilik fazilatlarini rivojlantirishning samarali vositasidir. Shaxsning taqlid qilingan o‘quv vaziyatlarida muvaffaqiyatli yetakchilik tajribasini o‘zlashtirishi yetakchilik fazilatlarini kompleks rivojlantirishga yordam beradi, yetakchilik motivatsiyasini oshiradi, uning yetakchilik qiyofasini va guruh oldida obro‘sini shakllantiradi, keyinchalik bu haqiqiy hayotga va professional vaziyatlarga o‘tkazilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bass B.M. Transformational Leadership / B.M. Bass, R.E. Riggio. – 2005. – R 32.

2. Pochebut L.G., Chiker V.A. Organizatsionnaya sotsialnaya psixologiya: Uchebnoye posobiye. SPb.: PITER, 2010. – S.214.

3. Weberg D. R. Complexity leadership theory and innovation: A new framework for innovation leadership. – Arizona State University, 2013. – R.52.

4. Polyakov A. N. Administrativnoye upravleniye Anri Fayolya (rus.) // Management : jurnal. – 2020. – № 3 (55) - 2020. – S. 74 - 80.

5. McGuire, J. B., & Rhodes, G.B. Transforming your leadership culture. San Francisco: Jossey Bass and Center for Creative Leadership, 2009. – P.69.

6. Svensitskiy A. L. Sotsialnaya psixologiY. – Obshestvo s ogranichennoy otvetstvennostyu Izdatelstvo YURAYT, 2019. – C.294.

7. Oganyan K.K. Vzaimootnosheniya tipov organizatsionnoy kulturi, stiley upravleniya i tipov lichnosti rukovoditelY.// Sovremenniye problemi nauki i obrazovaniY. 2012. – № 1. – S.291.

TARIXIY HARBIY YURISHLARDAGI HARBIY OILALARNING O‘RNI, HARBIY OILALAR VA FUQAROLIK OILALARI O‘RTASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING TAHLILI

J.M.MIRZASOLIYEV

Qadim zamonlardan beri odamlarning asosiy mashg‘ulotlari ov va urush bo‘lib kelgan. Agar ov oziq-ovqat ta’minotini to‘ldirish zarurati tug‘ilganda amalga oshirilgan bo‘lsa, urush doimiy ishtirokni talab qilgan. Bugungi kunda ham harbiy xizmatchi fuqarolikdan farqli o‘laroq, rasmiy ravishda sutkada 24 soat xizmat qiladi, bu armiyaning asosiy boshqaruv hujjatlarida mustahkamlangan. Boshqacha qilib aytganda, “ideal” harbiy xizmatchining hayotida haqiqiy urush va unga tayyorgarlikdan boshqa faoliyatga o‘rin yo‘q. Shunga ko‘ra, oilaga g‘amxo‘rlik qilish ko‘p kuch va vaqt talab qiladi. Masalan, mashhur psixolog P.I.Kovalevskiyning yozishicha Suvorov: “Oilasi armiya, rafiqasi xizmatchi, farzandlari askar, uning manfaatlari harbiy muvaffaqiyat va vatanning shon-shuhratidir... Suvorovning xotiniga ham, oilasiga ham vaqti yo‘q edi[36]. Harbiy xizmatchi uchun asosiy narsa uning harbiy burchidir degan g‘oya, uning hayotida bir qator muammolarni yuzaga keltirgan.

Ushbu haqiqatni jamoat miqyosida noto‘g‘ri tushunish va rad etish bugungi kunda harbiy oilalarda fojialarga, qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligining pasayishiga olib kelmoqda. Tarixda bu ziddiyatni bartaraf etish misollari mavjud. Bu borada qozoq harbiylari oilasining tajribasi qiziq.

[36] https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-semi-voennosluzhaschego-i-problema-obespecheniya-boegotovnosti.

Qadimda qozoqlar turmush qurmaslik qonunlariga rioya qilganlar. Biroq, XVIII asrning oxirida Rossiya hukumati chegaralarni himoya qilish uchun o‘zini o‘zi himoya qiladigan armiyaga muhtoj ekanligini sezdi. Qozoqlar o‘rtasida nikoh faoliyatiga davlat aralasha boshladi. XIX asrda imperator farmoni bilan har bir uylangan qozoq oilalar hukumatdan 100 rubldan olgan. Rossiya gubernatorligidan yosh qizlar va beva ayollar maqsadli ravishda ko‘chirilib, qozoqlar bilan majburiy nikohlanish sharti bilan qozoqlar armiyasiga qo‘shilgan. Qozoqlar oilasining o‘ziga hos xususiyati ichki intizom, har bir oila a’zosining tinchlik va urush davridagi vazifalarini aniq bilishi, ya’ni doimiy safarbarlik va jangovar shayligida ko‘rinar edi. Shu bilan birga, oiladagi ichki intizom oilaviy an’analar hisobiga saqlanib qoldi va tashqi sharoitlar o‘zgargan taqdirda qozoqlar oilasi har doim safarbarlikga tayyor edi. Qozoqlar oilasining an’analari va uning jangovar ruhi bugungi kungacha ko‘plab qozoq mintaqalarida o‘zgarishsiz qolgan.

Hozirgi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida harbiy xizmatchilarning oilaviy ahvoli davlat tomonidan tartibga solingan. Faol jangovar harakatlar davom etayotgan va armiya juda harakatchan bo‘lgan bir paytda, harbiy xizmatchilarning oilaviy turmush tarzi davlat tomonidan rag‘batlantirilmoqda. Buning sababi bitta, agar harbiy oilalardagi ijtimoiy-psixologik muammolar ortib borsa, armiya harakatchanligining pasayishiga, harbiy jamoaning tanazzulga uchrashiga va jangovar tayyorgarlikning pasayishiga olib keladi. Buni Qadimgi Rim misolida ko‘rish mumkin. Qadimgi Rimda imperator Avgust davridan boshlab, legionerlarning qonuniy nikohdan o‘tishi qonunchilikda taqiqlangan. Agar askar armiyaga borishdan oldin uylangan bo‘lsa, u oilasini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan, biroq oilasi bilan yashamagan. Keng ko‘lamli harbiy harakatlar jarayonida qo‘shinlarning harakatchanligi pasaya boshlagan. Harbiylar o‘rtasida ahloqsizlik holatlari kuchayib ketgan. Rim, harbiylarni oila qurishlariga muhtojlikni sezgan va faqat shu yo‘l bilan armiyadagi tartib intizomni saqlab qolish mumkin bo‘lgan.

Natijada, legionerlarning turmush qurishiga qo‘yilgan taqiq bekor qilindi, keyinchalik ularning huquqlari sezilarli darajada kengaytirildi. Jumladan, legionerlarga oilasi bilan harbiy shaharcha hududidan tashqarida yashashga ruxsat berildi, ularga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari va xususiy mulk sifatida yer sotib olish imkoniyati berildi, davlat soliqlaridan ozod qilindi. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolaridan tashkil topgan istiqomat qiluvchi aholi punktlari tashkil etildi. Shu bilan Rim armiyasining jangovar tayyorgarligi sezilarli darajada o‘zgardi.

Rim imperatori tomonidan ishlab chiqilgan qonunda erkaklar 25 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar esa 20 yoshdan 50 yoshgacha turmush qurishlari belgilangan. Qonun buzilgan taqdirda ular meros olish huquqidan maxrum qilingan[37].

Hozirgi kunga kelib harbiy oilalarda nizolarni paydo bo‘lishi harbiy xizmatchilarning oilaviy hayotdagi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, harbiy xizmatchi oilasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyati kabi muammolarni vujudga keltirmoqda. I.Yu.Zagornaya harbiy xizmatchilar oilalarining ijtimoiy-psixologik moslashuvini o‘rganar ekan, u oilaviy funsiyalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan bir qator omillarni aniqladi. Ular orasida:

harbiy xizmatchilarning xizmat joyining tez-tez o‘zgarishi bilan takroriy ijtimoiy-psixologik moslashish omillariga moyillik;

harbiy xizmatchilar oilasining hayotini tartibga solish;

harbiy xizmatning alohida shartlari tufayli oilaviy hayotdagi muammolarning yuzaga kelishi;

turmush o‘rtoqlarining oilaviy qadriyatlari va oilada sog‘lom muhitni yaratishga qodir yoki aksincha shaxsiy fazilatlari;

harbiy xizmatchi oilasining ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-madaniy aloqalarining muntazam tanqisligi (chekka garnizonlarda, harbiy qismlarda, qishloq aholi punktlarida yashash).

